3. Абдурашидов К.С., Абдувасикова М.Х., Рахманов Б.К. *Анализ конструкций и оценка технического состояния памятника архитектуры комплекса Шохи-Зинда в Самарканде. “Архитектура ёдгорликларининг инженерлик муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. Ташкент, ТАҚИ 2009. -Б. 62-70.*
4. Абдувасикова М.Х., Рахманов Б.К. *Самарқанд шаҳридаги Шоҳи-Зинда обидалар мажмуасининг конструкциялари ечими ва уларнинг деформацияланиши ҳолатлари. “Архитектура ёдгорликларининг инженерлик муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. Ташкент, ТАҚИ 2009. -Б. 92-94.*
5. *Магистерская диссертация на тему: “Анализ конструкций, оценка технического состояния, расчеты на сейсмическое воздействия ансамбля Шохи Зинда в г. Самарканде”. Ташкент, ТАСИ - 2008. 77 стр.*

**УДК 624.042.7**

## **ОЦЕНКА ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ**

**Назарова М.К.**

кандидат технических наук, доцент кафедры «Строительной механики и сейсмостойкости сооружений» Ташкентского архитектурно – строительного института (Ташкент, Узбекистан).

**Ахундженов Д.Г.**

младший научный сотрудник института механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т.Уразбаева (Ташкент, Узбекистан).

**Зокиржонова К.Т.**

студентка 3 курса Kimyo International University in Tashkent (YTIT).

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья посвящена о сохранении древней и развитию нашей современной культуры. Для этой цели нужно планомерное исследование и реставрация архитектурных памятников. Историческая и художественная ценность - это важнейшие причины, из-за которых люди стремятся сохранить памятники архитектуры.*

**Ключевые слова:** мавзолей, реставрация, купол, достояния, конструкция, период, мечеть.

**Keywords:** mausoleum, restoration, dome, patrimony, construction, period, mosque.

Велика забота нашего государства о сохранении древней и развитии нашей современной культуры. На истинно отеческую заботу и внимание правительства специалисты отвечают умножением усилий, большой отдачи в благородном деле сохранения бесценного богатства – рукотворных сокровищ, созданных трудолюбием и талантом наших предков.

Научные исследования памятников зодчества и их широкая пропаганда в массах обогащают содержание художественной культуры узбекского народа, благодаря им все новые и новые культурные сокровища прошлого становятся ценным вкладом в национальную культуру Узбекистана.

В планомерном исследовании и реставрации архитектурных памятников в Шахрисабзе участвовали архитектор А. Виноградов, археологи В. Булатова, К. Шахурин. Ведущие архитекторы – исследователи и ученые Узбекистана М. Булатов, П. Захидов, К. Крюков, Л. Мальковская, В. Нельсон, И. Ножкин, Г. Пугаченкова, Л. Ремпель обобщают накопленный опыт.

Успехи реставраторов архитектурных памятников Узбекистана стали известны за пределами республики.

Памятник архитектуры – это сложное понятие, которое может подразумевать под собой различные объекты и сооружения. Так принято называть здания, которые представляют для людей какую-либо художественную или историческую ценность. Памятники архитектуры являются своеобразными носителями информации о прошлом, являются историческими источниками, отражающими уровень развития инженерных, технологических и производственных зданий в определенный период.

Большое значение придавалась архитектурным зданиям, которые возводились по приказанию самого Тимура на протяжении всего его царствования. Г.А. Пугаченкова детально изучила памятники данной эпохи. Она положила начало новому изучению зодчества эпохи Тимуридов и смогла показать с научной точки зрения всю уникальность, неповторимость и красоту одного из самых ярких явлений мирового зодчества.

Историческая и художественная ценность – это важнейшие причины, из-за которых люди стремятся сохранить памятники архитектуры, но со временем нуждаются в реставрации. Реставрация предполагает выполнение целого комплекса научно-обоснованных мероприятий с сохранением их ценных качеств.

Памятники истории и культуры, объявленные достоянием народа согласно Закона Республики Узбекистан состоят на государственной охране. Обеспечение действительно полноценного научного сохранения памятников прошлого во имя настоящего и будущего, представляет исключительно сложную задачу.

Цель работы – комплексное исследование конструкций архитектурных памятников Дорут-Тиловат в г. Шахрисабзе и разработка конструктивных мероприятий по обеспечению их долговечности.

Комплекс Дорут-Тиловат состоит из мечети Кук-Гумбаз (1436 г.), мавзолеев Шайх Шамсiddина Кулола (1373 г.) и Гумбази Сайдона (1437-1438 гг.).

Анализ архивных и опубликованных работ показал, что вопросы инженерных проблем памятников недостаточно изучены.

Архитектурный комплекс Дорут-Тиловат расположен на возвышенной части Шахрисабза, которая была ядром застройки древнего Кеша. Он начал

формироваться на окраине древнего родового мазара барласов, где был захоронен отец Темура Эмир Тарагай, скончавшийся в 1361 году. Ансабль составляет мавзолей Шамсиддина Кулола и Гумбази Сайдон и соборная мечеть Кук Гумбаз. Все сооружения Дорут-Тиловат объединены обширным двором, вытянутым с севера на юг [1].



Рис.1. Архитектурный комплекс Дорут-Тиловат

Дорут-Тиловат стал застраиваться после смерти в 1370 году видного религиозного деятеля своего времени суфи Шамсиддина Кулола.

Шейх Шамсиддин Кулол был большой авторитет не только в богословских вопросах, но и в политических. Начало организации ансамбля Дорут – Тиловат восходит к 1370 году, когда скончался шейх Шамседдин Кулол. Шейх Кулол был пиром, то есть духовным наставником Эмира Тарагая и самого Тимура. По смерти шейха Кулола, Тимур распорядился схоронить его близ соборной мечети Шахрисябзя.

Рядом, к югу, «в ногах» у пира, в 1374 г. по распоряжению Тимура соорудили купольный мавзолей, куда перенесли с места первоначального погребения останки Эмира Тарагая, умершего еще в 1361 г. Обе постройки вошли в состав здесь же отстроенного медресе под названием Дорут-Тиляват («Вместилище чтецов корана»). Могила Шамсиддина Кулола (гончар) сразу же стала святым местом поклонения. По указанию Амира Темура гробница великого Шейха была облицована плитами из черного мрамора.

По имеющимся литературным источникам время сооружения мавзолея Шамсиддин Кулола относится к 1373 г.

Мавзолей Шайх Шамсиддин Кулола в плане представляет собой прямоугольник с размерами сторон 13,0x10,7 м.

Пилон Шамсиддин Кулола облегчен срочным решением. Эти решения внедрены во внутри и расстояния между ними составляет 5,1 и 3,1 м. Нагрузка, приходящая на наружную арку, составляет от 1,8 м толщины пилона, а внутренняя от 0,25 м толщины пилона. Общий размер пилона составляет: толщина – 2,10 м, ширина – 10,2 м и высота – 12,2м.

В 1435/36 годах в архитектурном комплексе Дорут-Тиловат напротив мавзолея Шамсиддина Кулола была построена самая большая в Шахрисабзе пятничная соборная мечеть Кук-Гумбаз, т.е. «Голубой Купол». Надпись на её портале говорит о том, что она возведена Улугбеком от имени своего отца Шахруха.

Мечеть венчает великолепный огромный купол, покрытый голубой керамической плиткой. Этот купол в Шахрисабзе красуется как голубое небо над зелёным городом. Он и дал название мечети Кук-Гумбаз, что в переводе значит буквально – «Голубой Купол».

Мечеть Кук-Гумбаз – пример уютных и живописных ансамблей народного зодчества XV в. В плане – это обширное квадратное помещение мечети размером 12,52x12,61м. Наружные размеры памятника 20,94x24,25 м в виде прямоугольника. Высота входного портала – 22,38 м. Купол мечети состоит из двух куполов – внешних и внутренних. Диаметр внутреннего купола – 13,5 м, внешнего – 16,92 м.

Общая высота памятника от земли – 31,65 м. В зале памятника в четыре стороны имеются входные арка. Восточная арка является главным входом в мечеть, а южная и северная соединяли мечеть с галереями.

По архивным материалам от мечети Кук-Гумбаз, построенной период правления Улугбека, в настоящее время сохранился только основной массив без примыкавших ранее к нему с севера и с юга купольных галерей.

Северные и южные фасады по построению и сохранности идентичны между собой. Каждый из них имеет по четыре арки, принадлежавших интерьерам примыкавших галерей. В каждой арке имеются проемы, равные им по величине и были открытыми проходами в основное помещение мечети. По бокам от них в арках, у пилонов портала сделаны проходы на лестницу.

Спустя два года 1437/38 гг. после строительства мечети Кук-Гумбаз, по распоряжению Улугбека, у южной стены мавзолея Шамсиддина Купола,

вплотную к нему был возведен еще один мавзолей, известный под названием Гумбази-Саидон – «Купол Сейидов».

Мавзолей Гумбази Саидон в плане квадратное помещение размерами 7,75x7,52 м. Пилон мавзолея Гумбази Саидон несколько изящнее по сравнению с пилоном Шамсiddин Кулол и его размеры равны: толщина стен – 1,2 м, ширина – 6,5 м, и высота – 11,5 м.

Этот пилон также разгружен через внутреннюю арку. Расстояние арок составляет 4,0 м. с нагрузками пилона от толщины 0,8 м приходится на арку.

Мавзолеи Шайх Шамсiddин Кулол (1373 г.) и Гумбази Саидон (1437-1438г.г.), время строительства друг от друга отличается незначительно, но по конструктивным решениям они совершенно различны. Разнообразность конструктивных решений ярко влияет на этих памятниках.

В конструкциях стен обоих мавзолеев применен симметрично – расположенные арки. Эти решения по своим назначениям своеобразное. Если в Шамсiddин Кулоле воспользовались устройства «михраб», то в Гумбази Саидон несет арка. Конструктивно крыши обоих памятников снаружи схожи, но конструктивные соединения отличаются.

В обоих памятников имеются внутренние купольные конструкции. В Шамсiddин Кулоле симметрично расположен перекрестные арочные системы являются несущими нагрузок. В Гумбази Саидон эти функции выполняют устроенные в углах 8 симметрично расположенные арки.




Рис. 2. Схема расположения осадочных марок в комплексе Дорут-Тиловат

Барабаны куполов снаружи схожи, но по геометрическими размерами отличаются. В обоих памятниках на конструкции барабанов устроены наружные купола. Конструкции куполов снаружи схожи, но конструктивных решений отличаются. В обоих куполах с целью уменьшения собственных нагрузок толщины стен по внутренней стороне уменьшены конусообразно. В Гумбази Саидон жесткость обеспечивается внутренним устройством ребер жесткости.

В связи 660 – летию Амира Темира выполнены большие укрепительно – реставрационные работы. В настоящее время техническое состояние комплекса Дорут-Тиловат находится в удовлетворительном состоянии.

Для наблюдений осадки памятников в мавзолеях шейха Шамсиддин Кулъяль и Гумбази Саидон, а также в мечети Кук – Гумбаз были заложены осадочные марки в количестве всего 31 штук. Схема расположения осадочных марок ниже приведены на рис. 2. В 5 циклах проводились геодезические измерения. Нивелирование – высокоточные II класса.

Результаты геодезических измерений приведены ниже в таблице 1.

Результаты измерений мавзолеев Гумбази Саидон и Шайх Шамсиддин Кулол, а также соборной мечети Кук Гумбаз.

Таблица 1

Марки	I цикл	II цикл	III цикл	IV цикл	V цикл
2-3	- 0,093	- 0,099	- 0,098	- 0,101	- 0,101
3-4	+ 0,089	+ 0,086	+0,086	+0,086	+0,087
4-5	- 0,057	- 0,061	- 0,061	- 0,062	- 0,60
5-6	+ 0,095	+ 0,101	+ 0,101	+ 0,102	+ 0,102
6-7	- 0,190	- 0,192	- 0,191	- 0,190	- 0,182
7-8	+ 0,030	+ 0,37	+ 0,036	+ 0,038	+ 0,213
8-9	- 0,998	- 0,949	- 0,949	- 0,948	- 1,141
9-10	+ 0,911	+ 0,912	+ 0,912	+ 0.911	+ 0,912
10-1	+ 0.957	+ 0,955	+ 0,953	+ 0,953	+0.958
11-2	- 0.794	- 0,790	- 0,789	- 0,789	-0,738
	+ 2,082	+ 2,091	+2,088	+ 2,090	+ 2,272
	- 2,082	- 2,091	- 2,089	- 2,090	- 2,272
		Кук Гумбаз			
12-13	+ 0,008	+ 0.008	+ 0.008	+ 0.008	+ 0.009
13-14	- 0.330	- 0,330	- 0.330	- 0,330	- 0.328
14-15	+ 0.000	+ 0.000	+ 0.000	+ 0.000	+ 0.000

15-16	+ 0.301	+ 0,301	+ 0,301	+ 0.301	+ 0.299
16-17	+ 0.035	+ 0.035	+ 0.035	+ 0.035	+0.036
17-18	- 0.134	- 0.134	- 0.134	- 0,134	-0.134
18-19	- 0.105	- 0.105	- 0,105	- 0.105	- 0.105
19-20	- 0.205	- 0,205	- 0.205	- 0.205	- 0,205
20-21	- 1.259	- 1.259	- 1.259	- 1.259	- 1.259
21-22	-1,210	-1,210	-1,210	-1,210	-1,213
22-23	+ 0,098	+ 0,098	+ 0,098	+ 0,098	+ 0,100
23-24	+ 0.092	+ 0.092	+ 0.092	+ 0.092	+ 0.089
24-25	+ 0,303	+ 0,303	+ 0,303	+ 0,303	+ 0,304
25-26	+ 0.203	+ 0.203	+ 0.203	+ 0.203	+ 0,203
26-27	+ 1.687	+ 1,687	+ 1,687	+ 1.687	+ 1,687
27-28	+ 0.217	+ 0,217	+ 0,217	+ 0,217	+ 0,217
28-29	+ 0,274	+ 0,274	+ 0,274	+ 0,274	+ 0,274
29-30	+ 0,475	+ 0.475	+ 0.475	+ 0,475	+ 0.476
30-31н	- 0.920	- 0,920	- 0,920	- 0,920	- 0.922
31н-12	+ 0,470	+ 0,470	+ 0,470	+ 0,470	+ 0.471
	+ 4,163	+ 4,165	+ 4,165	+4,163	+ 4,165
	- 4,163	- 4,165	- 4,165	- 4,165	- 4,165

Таким образом, по результатам измерений осадок фундаментов памятников архитектуры установлены, что разнообразность конструктивных решений ярко можно наблюдать на этих двух памятников – мавзолеев. Время строительства этих памятников, хотя друг от друга отличается незначительно, по конструктивному решению они совершенно различны. В обоих памятниках с фасадной стороны имеются порталы.

Анализ опубликованных работ и архивных материалов показывает о плохом техническом состоянии. В обоих памятников купола были разрушены. Крыша Шамсиддин Кулола было покрыто каркасным решением, и оно служило переходу Гумбази Сайдон. Пилоны почти были разрушены и в них из местных материалов были выполнены большие укрепительно-реставрационные работы.

В настоящее время техническое состояния мавзолеев находится в удовлетворительном состоянии.

**ЛИТЕРАТУРА**

1. <http://www.manzaratourism.com/ru/uzbekistan/dorut-tillavat-complex-shamsiddin-kulol-mausoleum>
2. Крюков К.С. Архитектура Альманах / Ташкент издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма-1989г.
3. Архитектура ёдгорликларнинг инженерлик муаммолари. (Республика илмий-амалий анжумани илмий ишлар мўплами). Тошкент 2009. -124 С.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Государственное издательство художественной литературы УзССР. Ташкент – 1958.
5. Нишанбаев Н.М. Амалий геодезия. Меъморлик обидаларини таъмирлашига оид геодезик ишлар. Т.1992. 110 стр.
6. Нишанбаев Н.М. Геодезическое обеспечение восстановительных и реставрационных работ архитектурных памятников период Темура и темуридов. Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий конференция маъruzалари тезислари. Тошкент. “Фан” нашириёти 2002. С – 115.

## EKSPORTGA KO'RSATILADIGAN MOLIYAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Lapasov Shaxzod Anvar o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi

Email: [shahzodlapasov@mail.ru](mailto:shahzodlapasov@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola orqali har bir mamlakatda xalqaro savdo va xalqaro kapital bozorida faol ishtirokini taminlashda eksport va import munosabatlarininining qanchalik muhimligi, shuningdek moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda xorij tajribasini o‘rgangan holda qanday joriy etish chora-tadbirlari batafsil yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** eksport, import, kredit, eksimbank, Shevsiya, Germaniya, AQSH, COFACE, Fransiya, EKN, ERG, EULER HERMES, ECGD, SAGE, davlat mulkchiligi, xususiy mulkchilik, aralash mulkchilik, Yevropa Ittifoqi.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье подробно описано значение экспортно-импортных отношений в обеспечении активного участия в международной торговле и международном рынке капитала в каждой стране, а также способы реализации мер на основе изучения зарубежного опыта развития финансовых услуг.*

**Ключевые слова:** экспорт, импорт, кредит, эксимбанк, Швейцария, Германия, США, COFACE, Франция, EKN, ERG, EULER HERMES, ECGD, SAGE, государственная собственность, частная собственность, смешанная собственность, Европейский Союз,

### ANNOTATION

*This article describes in detail the importance of export and import relations in ensuring active participation in international trade and the international capital market in each country, as well as how to implement measures based on the study of foreign experience in the development of financial services.*

**Keywords:** export, import, credit, eximbank, Switzerland, Germany, USA, COFACE, France, EKN, ERG, EULER HERMES, ECGD, SAGE, state ownership, private ownership, mixed ownership, European Union,

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksport faoliyatini moliyalashtirish yoki eksportga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda nobank strukturalar ham juda faol ishtirot etishib, ular bank strukturalarining bu boradagi faoliyatini to'ldirib borish bilan birga turli shakldagi banklar bilan bir qatorda moliyaviy xizmatlar portfelining ham kengayishiga muhim ta'sir ko'rsatishmoqda. Biz ushbu paragrafda tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda xorijiy mamlakatlarda eksportni moliyalashtirishda o'zining munosib o'rniqa ega bo'lgan eksport kredit agentliklari va eksimbanklarni rivojlantirish bo'yicha tajribalarni ko'rib chiqamiz.

Eksport kredit agentliklari. Jekyuz Melits va Patrik Messerlinlarning ta'kidlashlaricha, hozirgi paytda eksport kredit agentliklari katta biznesga aylanib bormoqda[1]. Darvoqe, bugungi kunda eksport kredit agentliklari deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Masalan, Fransiyada COFACE, Shvesiyada EKN, Shveysariyada ERG, Germaniyada EULER HERMES, Angliyada ECGD, Italiyada SAGE, AQSH da US Ex – Im Bank va boshqalar fikrimizga yaqqol misol bo'ladi.

Eksport kredit agentliklari davlat tomonidan mahalliy mahsulotlar eksportini qo'llab – quvvatlash, milliy iqtisodiyotdagi turli xil tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Bir qancha mamlakatlarda bittadan ko'p bo'lgan eksport kredit agentliklari ham faoliyat ko'rsatishadi: masalan, Hindistonda Export Credit Guarantee Corporation of India Ltd. va Ex – Im Bank of India, Yaponiyada bo'lsa Japan Bank for International Cooperation va Nippon Export and Investment Insurance.

Eksport kredit agentliklari keng ko'lamdag'i xizmatlarni taklif etishib, bunday xizmatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: tashqi savdo operasiyalarini kreditlash; eksport kreditlari bo'yicha davlat kafolatlarini taqdim etish; eksport kreditlari va bitimlarini siyosiy, tijorat, umumiqtisodiy va boshqa turdag'i risklardan sug'ortalash. Bundan tashqari, eksport kredit agentliklari nomoliyaviy xizmatlarni ham, jumladan eksport qiluvchilarni tashkiliy va axborot – analitik qo'llab – quvvatlashni amalga oshirishadi. Xideki Funatsuning ta'kidlashicha, eksport kredit agentliklari milliy eksportni qo'llab – quvvatlash dasturlari doirasida moliyalashtiruvchi bank va ishlab chiqaruvchi korxonaning risklarini sug'urta orqali qoplashni taklif etishadi. Har qanday mamlakatdagi eksport kredit agentligi o'z iqtisodiy siyosatiga ega bo'lib, risklarni sug'ortalashda o'zining shaxsiy ustuvorliklarini belgilaydi[2].

Eksport kredit agentliklari turli mulkchilik shakllarida tashkil qilinishi mumkin bo'lib, quyidagi jadvalda bunga yanada aniqlik kiritilgan:

**1 - jadval****Eksport kredit agentliklarining mulkchilik shakllari[3(29)]**

<b>Davlat mulkchiligi shaklidagi eksport kredit agentliklari</b>	<b>Xususiy mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklari</b>	<b>Aralash mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklari</b>
<i>Eksport kredit agentliklarining katta qismi davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar bo'lib, AQSH dagi Eximbank, Yaponiyadagi NEXI va Buyuk Britaniyadagi ECGD lar bular orasidagi eng taniqlilari sanaladi.</i>	<i>Xususiy mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklarining soni ancha kam bo'lib, bu bevosita bunday tashkilotlar maqsadi va faoliyatining o'ziga xos jihatlariga bog'liq bo'ladi. Eng tanilgan xususiy eksport kredit agentliklari bo'lib Euler Hermes (Germaniya), COFACE (Fransiya) va Atradius (Gollandiya) lar hisoblanishadi. Shuningdek, Portugaliya, Litva, Gresiya, Avstriya va Argentinada ham xususiy eksport kredit agentliklari faoliyat yuritishadi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, hatto to'liq xususiy bo'lgan eksport kredit agentliklari ham eksport qiluvchilarni moliyaviy qo'llab – quvvatlashni davlat hisobidan va davlatning nazorati ostida amalga oshirishadi.</i>	<i>Davlat mulkchiligi va xususiy mulkchilik shakllaridagi eksport kredit agentliklaridan tashqari aralash mulkchilik shaklidagi eksport kredit agentliklari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga Braziliyadagi SBCE, Ispaniyadagi CESCE, Shvesiyadagi SEK va Misrdagi ECGE kabilarni kiritish mumkin.</i>

Endi eksport kredit agentliklari bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlarning tajribalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Germanianing Euler Hermes eksport kredit agentligi eng tarixiy va yirik agentliklardan biri bo'lib, u tashqi savdo bitimlari bo'yicha sug'urta qoplamasini taqdim etishga ixtisoslashadi. "Euler Hermes" Gollandiyaning "Atradius" va Fransianing "COFACE" eksport kredit agentliklari bilan bir qatorda dunyo miqyosida kredit operasiyalarini sug'ortalash bo'yicha yetakchi hisoblanadi. U tashqi savdo operasiyalarini siyosiy va tijorat risklaridan sug'ortalashning turli – tuman shakllarini taklif etib, quyidagi uchta sug'urta polisi ular ichidagi asosiyлari sifatida e'tirof etiladi:

maxsus polis – xorijiy davlat yoki xususiy kompaniyalar bilan bir martalik bitimlarni amalga oshiradigan nemis eksport qiluvchilari uchun qisqa, o‘rta va uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha taqdim etishga mo‘ljallanadi; qisqa muddatli yangilanuvchan polis – faqat bitta xorijiy davlat yoki kompaniyaning o‘ziga doimiy eksportni amalga oshiradigan milliy eksport qiluvchilar uchun taklif etiladi; global polis – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti[4] yoki Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirmagan mamlakatlardagi bir necha xaridorlar (xususiy firmalar) bilan bitimlarni amalga oshiradigan tovarlar yoki xizmatlar eksport qiluvchisi uchun 12 oylik muddatga berilgan kredit bo‘yicha taqdim etiladi.

Fransiyaning “COFACE” eksport kredit agentligi tijorat risklari sohasida ekspert va dunyo miqyosida kredit operasiyalarini sug‘urtalash sohasida yetakchi hisoblanadi. Ushbu agentlik asosan quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: har qanday kompaniyani hajmi, faoliyat sohasi yoki mamlakatidan qat’iy nazar qo‘llab – quvvatlaydi, ya’ni kompaniyalar ham ichki va ham tashqi bozorda rivojlanadi; kreditni sug‘urtalash sohasida xaridolarning biznesini bankrot bo‘lish riskidan himoya qilishga qaratilgan yechimlarni taklif etadi; o‘z mijozlari uchun mamlakat, iqtisodiyotning tegishli sektori va kredit riskini har tomonlama puxta tahlil qilish asosida kerakli vaziyatda to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish uchun risklarni baholash va kamaytirishga yordam ko‘rsatadi va h.k.

Eksimbanklar yoxud eksport – import banklari. Juhon mamlakatlarida Eksimbanklar milliy eksportni qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jekyuz Melits va Patrik Messerlin<sup>31</sup> hamda Jagdish N. Bxavatti<sup>[5]</sup> larning bu boradagi ilmiy – amaliy qarashlari asosida aytish mumkinki, eksimbanklarda amal qiladigan eksportni imtiyozli moliyalashtirish instrumentlari va sxemalari milliy eksport qiluvchilar uchun tashqi bozorlarda yanada kengroq chiqish imkoniyatlarini yaratadi. 2-jadvalda eksimbankka tegishli bo‘lgan umumiyl va zarur ma’lumotlar keltirilgan. Quyida Eksimbanklar faoliyatiga oid bo‘lgan xorij tajribasi xususida vaziyatli yondashuvdan kelib chiqqan holda qisqacha ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz:

Xitoy Eksimbanki. Bugungi kunda Xitoy o‘z Eksimbankining kredit sxemalaridan foydalanib, Afrika qit’asi mamlakatlaridagi ta’sirini kengaytirib bormoqda. Bu Xitoyni mineral resurslar bilan ta’minalashga qaratilgan tashqi strategiyaning bir qismi bo‘lib, buni amalga oshirish orqali yirik Afrika bozoriga jadal sur’atlarda kirib borish maqsadi qo‘yilgan. Bunday vaziyatda Xitoy uchun Afrika qit’asidagi ustunlik shundaki, uning Eksimbanki tomonidan ajratiladigan eksport kreditlari odatda rivojlangan mamlakatlar tomonidan bajarilishi talab qilinadigan ekologik va boshqa shu kabi muammolarni yechish majburiyatlariga ega bo‘lmaydi.

## 2 – jadval

### Eksimbankka oid umumiy va zarur ma'lumotlar[6(33)]

<b>Eksimbank</b>	<b>Eksimbanklarni tijorat banklaridan farqlovchi asosiy jihatlar</b>
Davlat tomonidan ta'sis etiladi va unga bo'ysunadi	Eksimbanklar faoliyatining maqsadi kredit faoliyatidan foyda olish emas, balki eksportni qo'llab – quvvatlash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish hisoblanadi
Faoliyati maxsus qonunchilik hujatlari bilan tartibga solinadi	Eksimbanklar xorijiy mamlakatlarning spesifik jihatlari bilan bog'liq bo'lgan yuqori darajadagi iqtisodiy va siyosiy risklarni o'z zimmalariga olishadi
Eksportni qo'llab – quvvatlash maqsadida ta'sis etilib, eksport qiluvchilarga eksportni moliyalashtirish bo'yicha keng ko'lamdagi xizmatlarni taklif etadi	Eksimbanklarning kreditlari eksport shartnomasi o'z mamlakatida to'liq yoki qisman ishlab chiqarilgan tovarlar yoki xizmatlar eksportini nazarga tutgan holdagina beriladi
Ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan mamlakatlarda eksportni moliyalashtirishni amalga oshiradi	Eksimbanklarning davlat hukumatiga dahldorligi tashqi bozordagi mahalliy ishlab chiqaruvchining kreditni qaytara olish layoqati va ishonchlilagini oshiradi
Eksport shartnomasida eksimbankni ta'sis etgan mamlakatda to'liq (yoki qisman) ishlab chiqarilgan tovarlar yoki asbob – uskunalar eksportining nazarga tutilishi sharti bilan kreditlar ajratadi	Eksimbanklarning kreditlari bo'yicha foiz stavkalari tijorat banklarining foiz stavkalaridan past bo'ladi
Eksport kreditlari bo'yicha foiz stavkalari byudjet mablag'lari va tashqi qarzlardan foydalanish hisobiga bozordagidan ko'ra past bo'ladi	
Davlat eksimbank majburiyatlari bo'yicha kafil hisoblanadi	

So‘nggi 10 yil davomida Xitoy Eksimbanki Afrika mamlakatlarida infratuzilmani rekonstruksiya qilish hamda elektrostansiyalar, neft va gazni qayta ishlash ob’yektlarini qurish uchun 17 mlrd. AQSH dollarini hajmidagi kreditlarni taqdim etdi. Bunda aholi bandligi muammolari sezilarli darajada yechimini topayotgan bo‘lib, qurilish materiallari, muhandislik va qurilish texnologiyalari, shuningdek inson resurslari Xitoydan import qilinmoqda[7].

Chexiya Respublikasi. Chexiyaning eksport banki yuqori darajadagi tijorat va siyosiy risklarga ega bo‘lgan bozorlarda mahsulotlarning eksport qilinishini rag‘batlantirish maqsadida yaratilgan. Chex eksport banki kreditlarining 80% ga yaqini yuqori darajadagi riskka ega bo‘lgan mamlakatlarda (ayrim rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda) eksport faoliyatini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, odatdagi tijorat banklari bunday mamlakatlarga kredit berishdan bosh tortishadi. Bu o‘z navbatida chex ishlab chiqaruvchilariga yangi bozorlarni tezda o‘zlashtirish va eksport mahsulotini ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, eksportni moliyalashtirishning katta risk darajasiga egaligi bilan xarakterlanishi bu jarayonda xususiy kompaniyalarga qaraganda davlat tashkilotlarining faol ishtirok etishini talab qilmoqda. Xorij tajribasidan ko‘rinib turganidek, eksport kredit agentliklari va eksimbanklar eksportni davlat tomonidan moliyalashtirish maqsadida rivojlantirilgan tashkilotlar bo‘lib, ulardagi har tomonlama imtiyozli, qulay va zamonaviy tizim tashqi bozorlarda milliy eksport qiluvchilarning raqobatbardoshligini oshishiga imkon yaratmoqda.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Jacques Melitz & Patrick Messerlin. *Export credit subsidies. Economic Policy*. Vol 2, No 4. (Apr 1987), p. 150. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)
2. Hideki Funatsu. *Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance*. Vol 53, No 4. (Dec 1986). p. 682.
3. Ushbu jadvalni tuzishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Hideki Funatsu. *Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance*. Vol 53, No 4. (Dec 1986) [www.jstor.org](http://www.jstor.org) ; Юлдашев Р. Т. Департамент гарантирования экспортных кредитов // Страховой бизнес: Словарь – справочник. – Москва: Анкил, 2005. – с.35. – 832 с.
4. Koreya, Meksika va Turkiya bundan mustasno.
5. Jacques Melitz & Patrick Messerlin. *Export credit subsidies. Economic Policy*. Vol 2, No 4. (Apr 1987), pp. 149 – 175. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)
6. Jagdish N. Bhagwati. *Export - Promoting Trade Strategy: Issues And Evidence*. The World Bank Research Observer. Vol 3., No 1. (Jan 1988), pp. 27 – 57. [www.jstor.org](http://www.jstor.org)
7. Manba: Возможности и перспективы создания Эксимбанка в Узбекистане. Доклад. Ташкент 2007.

## O'ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI

Lapasov Shaxzod Anvar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi

Email: [shahzodlapasov@mail.ru](mailto:shahzodlapasov@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola orqali har O'zbekistonda xalqaro savdo va xalqaro kapital bozorida faol ishtirokini taminlashda eksport va import munosabatlarinining qanchalik muhimligi, shuningdek har ikkalasini rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar ko'rib chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** *Eksport, import, jahon bozori, kredit, kichik biznes, eksportni sug'urtalash, makroiqtisodiy daraja, eksportni kreditlash, MDH, tashqi savdo, mashinasozlik va xalqaro mintaqaviy integrasiya.*

### АННОТАЦИЯ

*Посредством данной статьи рассмотрено значение экспортно-импортных отношений в обеспечении активного участия в международной торговле и международном рынке капитала в каждом Узбекистане, а также меры по развитию того и другого.*

**Ключевые слова:** Экспорт, импорт, мировой рынок, кредит, малый бизнес, экспортное страхование, макроэкономический уровень, экспортный кредит, СНГ, внешняя торговля, машиностроение и международная региональная интеграция.

### ANNOTATION

*Through this article, the importance of export and import relations in ensuring active participation in international trade and the international capital market in each Uzbekistan, as well as measures for the development of both were considered.*

**Key words:** *Export, import, world market, credit, small business, export insurance, macroeconomic level, export credit, CIS, foreign trade, engineering and international regional integration.*

## Kirish

O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini tahlil qilishdan oldin eksportning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati xususida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish quyidagi bir qator sabablar tufayli muhim ahamiyat kasb etadi: birinchidan, eksportning rivojlanishi va diversifikasiyalanishi mamlakat savdo balansining mustahkamlanishiga olib keladi, milliy valyuta va mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyatning barqarorlashuviga ko‘maklashadi. Ikkinchidan, mahalliy korxonalar jahon bozorida raqobat muhitiga moslashishi uchun ishlab chiqariladigan mahsulotning xarajatlarini pasaytirish va sifatini oshirish sari harakat qilishib, ularning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Uchinchidan, valyuta tushumlarining oshishi mamlakat uchun yangi texnologiyalarni import qilish, iqtisodiyotni modernizasiyalash va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. To‘rtinchidan, eksportning o‘sishi bilan yangi daromad manbalari va aholining bandligini ta’minlash imkoniyatlari ham kengayadi.

Mamlakatimizda ana shu maqsadlarni ko‘zlagan holda eksportni rivojlantirish borasida erishilayotgan asosiy natijalarni tahliliy ma’lumotlarga tayanib keltirib o‘tamiz. 1-jadvalda tashqi savdo aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Ushbu jadvaldan ko‘rinib turganidek, mamlakat tashqi savdo aylanmasi ko‘rsatkichi yildan-yilgan oshib borgan bo‘lib, MDH mamlakatlariga nisbatan boshqa mamlakatlarda bu ko‘rsatkichning hajmi ancha yuqori bo‘lgan. Tashqi savdo aylanmasi hajmi 2010 yilda 2005 yilga nisbatan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan. Bunga jahon bozori narxlari kon’yunkturasidagi sezilarli o‘zgarishlarning amalga oshganligi, mamlakat eksport salohiyatining ko‘tarilganligi, shuningdek ichki iste’mol bozori to‘lov qobiliyatining oshganligi kabilar sabab bo‘lgan.

**1 – jadval**

**O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlari**  
 (mln. AQSH doll.)[1]

Ko‘rsatkichlar	2005	2010	2011	2012	2013
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>9500,1</b>	<b>21842,4</b>	<b>26059,3</b>	<b>26286,5</b>	<b>28886,0</b>
MDH mamlakatlari	3403,4	9424,5	11038,9	12402,4	12305,6
boshqa mamlakatlar	6096,7	12417,9	15020,4	13884,1	16580,4
<b>Eksport</b>	<b>5408,8</b>	<b>13044,5</b>	<b>15021,3</b>	<b>14258,8</b>	<b>15087,2</b>
MDH mamlakatlari	1722,6	5898,7	6720,1	7737,8	7155,1
boshqa mamlakatlar	3686,2	7145,8	8301,2	6521,0	7932,1
<b>Import</b>	<b>4091,3</b>	<b>8797,9</b>	<b>11038,0</b>	<b>12027,7</b>	<b>13798,8</b>
MDH mamlakatlari	1680,8	3525,8	4318,8	4664,6	5150,5
boshqa mamlakatlar	2410,5	5272,1	6719,2	7363,1	8648,3
<b>Savdo balansi</b>	<b>1317,5</b>	<b>4246,6</b>	<b>3983,3</b>	<b>2231,1</b>	<b>1288,4</b>

Bundan tashqari 1-jadvaldagi o‘zgarishlarni yanada aniqroq va chuqurroq tushunish maqsadida mamlakat eksporti va importi tarkibi tahlil qilingan jadvalni muhokama qilishga e’tiborni qaratamiz. Masalan, asosiy eksport manbai bo‘lgan paxta tolasining eksporti 2000 yildagi 27,5 foizdan 2010 yilga kelib 11,3 foizga tushgan va o‘tgan yilga qadar bu ko‘rsatkich yana ham pasaygan. Yoxud oziq-ovqat mahsulotlari importiga e’tiborni qaratsak, ushbu ko‘rsatkich 2000 yildagi 12,3 foizdan 2010 yilga kelib 10,3 foizga tushgan va keyingi yillarda turlicha tebranishlar bilan yana ham pasaygan (2 – jadval).

## 2 – jadval

**O‘zbekiston Respublikasida eksport va import tarkibining o‘zgarishi (%) [2]**

Ko‘rsatkichlar	2000	2010	2011	2012	2013
<b>Eksport</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	27,5	11,3	9,0	8,8	7,7
Oziq-ovqat tovarlari	5,4	9,7	13,3	6,2	9,8
Kimyo mahsuloti va undan ishlangan buyumlar	2,9	5,1	5,6	5,4	4,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	10,3	24,8	18,5	35,3	31,1
Qora va rangli metallar	6,6	6,8	7,4	7,4	6,3
Mashinalar va uskunalar	3,4	5,5	6,6	6,4	5,5
Xizmatlar	13,7	9,1	11,8	16,2	16,2
Boshqalar	30,2	27,7	27,8	14,3	19,4
<b>Import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat tovarlari	12,3	10,9	9,0	9,9	9,7
Kimyo mahsuloti va undan ishlangan buyumlar	13,6	14,3	12,9	14,4	14,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,8	6,0	8,1	7,3	7,2
Qora va rangli metallar	8,6	8,4	8,1	7,8	7,9
Mashinalar va uskunalar	35,4	44,0	41,3	45,4	44,2
Xizmatlar	8,5	4,7	5,3	6,1	5,8
Boshqalar	17,8	11,6	11,2	9,1	10,9

Bu mamlakatda eksportbop va import o‘rnini qoplaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga hukumat darajasida e’tibor berilayotganligining natijasi bo‘lib, buning natijasida O‘zbekiston xomashyo va tabiiy resurslarni eksport qiluvchi mamlakatdan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakatga aylanib bormoqda.

Mamlakatda eksport salohiyatining oshib borayotganligiga eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab – quvvatlash tizimining rivojlanayotganligi ham muhim ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ularning har biri xususida tahliliy ma’lumotlarga tayangan holda qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

- eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlari;
  - eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab – quvvatlash instrumentlari
  - eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar.
- Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlari

to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, keyingi yillarda bu borada ko‘plab ijobiy siljishlarni yuz berayotganligining guvohi bo‘lamiz. 3 – jadvalda ushbu qonunchilik hujjatlariga oid qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Eksportni davlat tomonidan kreditlash orqali qo‘llab - quvvatlash. Mamlakatimizda eksport kreditlarini rivojlantirishga muhim e’tibor qaratilayotgan bo‘lib, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar eksportini moliyalashtirish bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi “Rossiya Federasiyasi bilan investision va savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 1962-sonli Farmoni asosida amalga oshirilib kelmoqda.

### 2.3 – jadval

#### O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid ayrim qonunchilik hujjatlari[3]

Nº	Qonunchilik hujjatining nomlanishi	Qisqacha tavsif
1.	O‘zR Prezidentining 2013 yil 8 avgustdagи “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori	Ushbu qarorga muvofiq O‘zR TIF Milliy banki huzurida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash Fondi tashkil etildi.
2.	O‘zR Prezidentining 2012 yil 26 martdagи “Eksport qiluvchi korxonalarini rag‘batlashtirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori	Ushbu qarorga muvofiq eksport qiluvchi korxonalarga soliqlar bo‘yicha turli-tuman imtiyozlar taqdim etiladi (masalan, ushbu qarorda 2016 yil 1 yanvarga qadar respublikadagi o‘z mahsuloti hajmining, jumladan yarim tayyor mahsulotlarining 80 foizi va undan ortig‘ini erkin almashtiriladigan valyutaga sotadigan to‘qimachilik sanoati korxonalari mulk solig‘i to‘lashdan ozod qilingani alohida qayd etilgan).
3.	O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 iyundagi “Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hisobiga eksport qiluvchi korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori	Ushbu qarorga muvofiq eksport qiluvchi korxonalarining tijorat banklarining o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lari hisobiga aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun imtiyozli kreditlar olish yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida vaqtinchalik Nizom ishlab chiqilgan.

Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki va Asaka banki noxomashyo yo‘nalishidagi tovarlar va xizmatlar eksportini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Rossiyadagi “Osiyo Invest Bank” Aksionerlik-tijorat bankida kredit liniyasini ochishgan[4].

Eksport kreditlarini davlat tomonidan sug‘urtalash va kafolatlash. Bugungi kunda mamlakatimizda eksport kreditlarini sug‘urtalash va kafolatlash bilan shug‘ullanadigan assosiy davlat tashkiloti bo‘lib “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi hisoblanib, u Eksport kreditlari va investisiyalar sug‘urtalovchilari xalqaro Bern ittifoqi Praga klubining to‘laqonli a’zosidir[5]. Ushbu a’zolik doirasida kompaniya 20 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning davlat eksport-kredit agentliklari bilan hamkorlik qiladi.

Eksportyordi davlat tomonidan soliqlar orqali qo‘llab-quvvatlash. Biz yuqorida eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlarining ayrim muhimlarini ko‘rib o‘tganimizda, ularning deyarli barchasida soliq imtiyozlariga e’tibor qaratilganligining guvohi bo‘lamiz.


Eksportni davlat tomonidan subsidiyalash orqali qo‘llab-quvvatlash. Bizning fikrimizcha, ushbu moliyaviy instrumentni amalga oshirish ancha ko‘p xarajat talab qilgani bois, bugungi kunda eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda undan foydalanishga unchalik ehtiyoj tug‘ilmayapti.

Kichik biznes eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli–tuman jamg‘armalarni tashkil etish va rivojlantirish. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, O‘zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi zarur qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida shakllantirib kelinmoqda. Mamlakat Prezidentining 2013 yil 8 avgustdagи “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori bu borada qo‘yilgan muhim qadamlardan biri bo‘lib, unga muvofiq Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki huzurida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash Fondi tashkil etildi. Ushbu fond kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari, fermer xo‘jaliklariga quyidagilar borasida tekin moliyaviy yordam ko‘rsatadi:

- mahalliy eksportbop mahsulot brendlari rivojlantirish, eksport qilishni rag‘batlantirish, jumladan xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq ravishda zarur lisenziyalar, ruxsatnomalar va sertifikatlar uchun to‘lovlarni, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining xalqaro tender savdolarida ishtirop etish bilan bog‘liq bo‘lgan registrasion yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish;

- eksport shartnomalarini tuzish, yangi bozorlarga chiqishni ta’minlash va yangi turdagи mahsulotlarni eksport qilish maqsadida xorijiy ko‘rgazmalar va yarmarkalarda ishtirop etish[6].

Shu bilan birga Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash fondining o'zi va uning joylardagi filiallari ham 2019 yilning 1-yanvarigacha bo'lgan muddatda barcha turdag'i soliqlar, yig'imlar, bojlar va davlatning maqsadli fondlari uchun majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etilgan (yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno) va h.k. Bugungi kunda O'zbekistonda ham bunday zamonaviy tashkilotlarni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyoji yuzaga kelayotgan bo'lib, bular to'g'risida keyinchalik to'xtalib o'tamiz.



### **1 – rasm. O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab - quvvatlovchi tashkilotlar tizimi[7]**

Tadqiqotlarimiz natijasida joriy vaziyatda O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab - quvvatlovchi tashkilotlarni o'zida aks ettirgan 1– rasm yaratilib, yuqorida ushbu rasm keltirib o'tilgan.

Ushbu rasmga qisqacha tavsif beradigan bo'lsak, O'zR TIAISV huzuridagi tashqi savdo kompaniyalari, "O'zbekinvest" EIMSK, Tijorat banklari, shuningdek yaqinda

tashkil etilgan O'zR TIF Milliy banki huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash Fondidan tashqari boshqa tashkilotlar, jumladan tarmoq idoralari va ularning tarkibidagi maxsus tashkilotlar, investision guruhlar yoki hamkor tashkilotlar hamda tijorat - vositachi tashkilotlar eksport qiluvchi korxonalarning faoliyatini moliyaviy qo'llab – quvvatlashda unchalik darajada faol emaslar. Bundan tashqari, ushbu so'nggi nomlari keltirilgan uchala tashkilot moliyaviy qo'llab – quvvatlashdan ko'ra ko'proq nomoliyaviy qo'llab – quvvatlashga moyilliklari bilan xarakterlanadi.

### Xulosa

Umuman olganda, O'zbekiston eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab - quvvatlash tizimining rivojlanib borayotganligi mamlakat eksport salohiyatining yildan – yilga oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Mos ravishda, bunday o'zgarish eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab – quvvatlash tizimi oldiga yangidan – yangi vazifalarni qo'yayotgan bo'lib, bu birinchi navbatda ham eksport qiluvchi korxonalarning manfaatlari va ham mamlakatning eksportdan ko'radigan manfaatlarini o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilishi talabini qat'iy qo'ymoqda.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. *Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.*
2. *Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.*
3. *Ushbu jadvalni tuzishda quyidagi manbadan foydalanildi: Mahsulot qanday eksport qilinadi? O'z mahsulotini eksport qilishni rejalashtirayotgan tadbirkorlar uchun amaliy qo'llanma. Toshkent – 2013.*
4. *"Osiyo-Invest Bank" ATB kredit portfelining katta qismini "GM Uzbekistan" da ishlab chiqariladigan avtomobilarni xarid qilish uchun beriladigan kreditlar tashkil etadi. Rossiya bozorida avtomobilarning sotilishi mintaqaviy dilerlar orqali amalga oshirilib, O'zbekistondan avtomobilarni yetkazib berish bo'yicha hisob – kitoblar 100 foizlik oldindan to'lov asosida amalga oshirilib, dilerlar bunday to'lonni ta'minlash maqsadida "Osiyo-Invest Bank" ATB ga kredit olish uchun murojaat qilishadi.*
5. *"O'zbekinvest" EIMSK ning 2012 Yillik hisoboti.*
6. *Информационный дайджест №156 от 12 августа 2013 г. Пресс-служба МИД РУ. Стр. 3.*
7. *Ushbu chizmani yaratishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Posobiye po eksportnoy deyatelnosti (dlya nachinayushchix eksporterov Uzbekistana) Tashkent – 2007; Содействие развитию экспорта Республики Узбекистан: формирование благоприятной среды и эффективных институтов. Ташкент – 2005.*

## HUVAYDONING “ROHATI DIL” DOSTONI TARKIBI

**Eshkuziyeva Hilola G‘ulom qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

[luckyperson0123@gmail.com](mailto:luckyperson0123@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostonining tarkibi, dostondagi hikoyat va rivoyatlarning ma’naviy barkamol shaxslarni kamol toptirishdagi ahamiyati haqida bayon qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** “Rohati dil”, do‘zax, islam dini, “Nurnoma”, tasavvuf, nasr.

### **ANNATATION**

*The article describes the composition of Khojanazar Huvaido’s epic “Rohati Dil”, regarding the importance of stories and narratives in spiritual perfect people’s development.*

**Key words:** “Rohati dil”, hell, Islam, “Nurnama”, mysticism, prose.

Huvaydo mumtoz adabiyotimizdagi didaktik nasrchilik hamda epik dostonchilik an’analarini davom ettirib, diniy-irfoniy manzumasini qalbni barcha g‘ubor, nuqsonlardan poklovchi “Rohati dil” deb atadi. Asarni turkiy (eski o‘zbek) tilda, she’riyatning masnaviy janrida yaratdi. Huvaydoning “Rohati dil” dostoni pandnoma turining go‘zal namunasi hisoblanib, unda ochko‘zlik, tamagirlilik, vafo, boqiylik, foniylilik, yaxshilikning foydasi, yomonlikning zarari, go‘zallik va mehnatsevarlik, moddiy va ma’naviy poklik kabi xilma-xil axloqiy mavzulardagi ibratli hikoyalar keltirilgan. Dostonning “Nurnoma” bobida olamning yaratilishi, Muhammad payg‘ambar ikki olamning rahmati, mo‘minlar sarvari ekanligini; “Qiyomatnama” deb atalgan bobida maxsharning olti qiyofasini; “Do‘zaxning sifatlari” bobida Jabroyil do‘zaxning ta’rifini Rasulullohga bayon etadi. Do‘zaxning yetti eshigi (tamug‘, xoviya, jahannam, saqar, natto, sa’iyr, xutama, nor)ni tavsiflaydi. Har bir eshikdan qaysi toifa odamlarning kirishini birma bir bayon etadi. Jahm eshigidan zinokorlar, yolg‘onchilar, imomiga xiyonat qilganlar, chaqimchilar tashlanadi. Zolimlar, poraxo‘r qozilar, harom luqma yegan olimlarning joyi Saqardadir. Shaytonga hamroh bo‘lganlarning o‘rni esa Luzodadir. Sa’irda esa sharobxo‘rlar va rabo olg‘uchilar, tarozidan urib qolgvuchi toifa odamlar tashlanadi. Xatmada esa Qur’onni o‘qib, bilmay noto‘g‘ri tavsiflaganlar, hadisdan o‘z manfaati yo‘lida foydalanganlar yotadilar. Yettinchisining ismi Nor bo‘lib benamozlarga ne’mat bergenlar, qo‘shnisining nasihatlarini olmaganlar, haromdan qaytmaydigan savdogarlar shu joyga keltiriladilar.

Jabroyilning ushbu hikoyatidan Rasululloh g‘oyatda g‘amga botganligi va ummatlarining holini o‘ylab benihoya azoblanganligi tasvirlanadi.

*Ko ‘zining yoshidan yer suvgaga to ‘ldi,  
Bu g ‘amdan qomati yoydek bukildi.  
Borib hujralariga qo ‘ydi sajdaga bosh,  
Oqizib ummati deb ko ‘zidin yosh<sup>3</sup>.*

Rasululloh Xudoga yolvorib nola qilar ekan Yaratgandan ummatlarining gutohlarini kechirishini iltijo etadi. Shu o‘rinda Huvaydo me’roj tunida ummat dardi bilan ko‘zyosh to‘kkaligini tasvirlaydi.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyalashni muhim vazifa, burch deb bilar ekan, zamondoshlariga kamolotga, ma’naviy xazinalarga yo‘l ko‘rsatishni asosiy vazifa hisoblagan. Jumladan, Huvaydo “Rohati dil” dostonini ham xuddi shu muammolarga bag‘ishlagan. Ma’naviy-axloqiy, din-tasavvufiy tarbiya, inson kamoloti masalalari Xo‘janazar Huvaydo ijodida asosiy o‘rin egallaydi. Shoirning bu jihatdan “Rohati dil” dostoni ahamiyatlidir. Adabiyotshunosligimizda hali yetarli o‘rganilmagan “Rohati dil” Huvaydoning hissiy va ruhiy kechinmalarni o‘zida mujassamlashtirgan asar bo‘lib, unda shoirning tarjimayi holiga, ijtimoiy-siyosiy, diniy-tasavvufiy qarashlari jamuljam. Uning masnaviy yo‘lda yozilgan ushbu dostoni xalq orasida mashhurdir. Muallif dostonning yozilish sababiga alohida kichkina bob bag‘ishlaydi. Kitobning yozilish sabablari ham doston muqaddimasidan anglashiladi. Shoirning “Rohati dil” dostonini yozishdan maqsadi zamondoshlarini ma’naviy g‘aflatdan uyg‘otish.

*Kitobimning otidur “Rohati dil”  
Erur har bir so ‘zi tanbehi g ‘ofil<sup>4</sup>.*

Huvaydo asarni dastlab nasrda yozgan. Keyinchalik talab va takliflarni inobatga olib, uni nazm yo‘li bilan qayta yaratadi va „Rohati dil“ asari bilan dostonchilik an’analarini yanada rivojlantirib, she’riyat bilan chambarchas bog‘laydi. Shoirning butun umri kechgan Chimyon shahri aholisi turkiygo‘y bo‘lgani sababdan dostonni turkiy tilda yozishga qaror qiladi.

*Ko ‘ngul shahri yagona azm qildim,  
Kitobim nasr erdi man nazm qildim.  
Bu chimyon shahrining piyru javoni,  
Tamomiysi erurlar turkiyxoni,  
Alar garchi so ‘zga behunarroq,  
Dedim bo ‘lsa kitobim turkiy behroq.<sup>5</sup>*

<sup>3</sup> Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Ҳалқ мероси”, 1994. – Б. 35.

<sup>4</sup> Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Ҳалқ мероси”, 1994. – Б. 16.

<sup>5</sup> Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Ҳалқ мероси”, 1994. – Б. 16.

Dostonning tarkibi 30 bob hamda Ibrohim Adham hikoyatidan iborat. Doston hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan „Rohati dil” dostoni an’anaviy tarzda Allohma hamd va payg‘ambarlarga na’t bilan boshlanadi. Shundan so‘ng chahoryorlar: Abu Bakr Siddiq r.a., Umar r.a., Usmon r.a. va Ali r.a. ta’riflari beriladi. Shundan so‘ng Hasan va Husayn raziyallohu anhumolarning ta’rifi, vafoti haqida fikr bildirar ekan Allohma iltijo etadi. Har bir bobda bo‘lgani kabi ushbu bobda ham Huvaydo insonlarni bu dunyodan yuz o‘girishga, jahonga ko‘ngil qo‘ymaslikka da’vat etadi. “Rohati dil” diniy-didaktik asar bo‘lib, unda islom va tasavvuf ta’limotining umuminsoniy g‘oyalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etilgan. Mol-dunyoga hirs qo‘yish, nafsga qul bo‘lishning oqibatlari, bilim olishning ulug‘ligi, ilm ahli izzatini o‘rniga qo‘yish, ota-onalidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish, qo‘ni-qo‘shnilarning bir-biriga mehr oqibatli bo‘lishi, er-u xotinning bir-biriga mehr-muhabbatli, izzat-hurmatini joyiga qo‘yishi, riyokorlik, xiyonat, tamagirlilik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi fazilat-u qusurlar asarning markazida turadi. Bu muammolarning har biri qisqa hajmli hikoyalarda xalqona uslubda sodda, tushunarli tilda bayon etib beriladi. “Rohati dil” dostoni badiiy jihatdan teran va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan adabiy manbadir. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o‘ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she‘rning jarangdor va o‘ynoqilagini rang-barang bo‘yoqlar orqali ochib beradi “Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo‘nalishi islom dinining qisqacha bo‘lsa-da tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyalar orqali insonning ongi hamda uning tashqi va ichki dunyosini islom ma’naviyati bilan boyitishga qaratilgandir. “Rohati dil” asarining asosiy g‘oyasini insonning ichki dunyosini shakllantirish, eng avvalo, insonda e’tiqodning sobit o‘rin olishini, so‘ngra islom dini ruknlariga ongli ravishda amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Dostonga kirgan har bir hikoya va uning qahramoni o‘ziga xos ilohiy tuyg‘ular bilan to‘lib-toshgan. Bunday omil asar obrazlarining hayajonli va to‘laqonlilagini ta’minlagan. Hikoyalarning deyarli hammasida voqealarning ishtirokchilari muallifning falsafiy e’tiqodi bilan chambarchas bog‘langan insonlardir. Ular ichki guruhlarga bo‘linadilar: birinchi guruhdagilar iyomon, soflik, halollik, poklik, insoniylik kabi fazilatlar timsoli sifatida rivoyatlarda ishtirok etsalar, ikkinchi toifadagilar buning teskarisi, ya’ni g‘azab-nafrat uyg‘otadigan qiyofadagi obrazlardir. Asar boshdan-oyoq o‘quvchilar qalbida eng nozik his tuyg‘ularni uyg‘otadi, ularda hayotga muhabbat, iyomonli, pok e’tiqod egasi bo‘lishga chorlaydi. Kitobda keltirilgan rivoyat va hikoyatlarning aksariyati o‘z manbasiga ega va ular tarixiy kitoblardan olingan. Shuningdek, asardagi turli qiziqarli va ibratomuz voqealar asar qahramonlarining taqdiri bilan mustahkam bog‘lanib ketadi. Har bir inson o‘z qilmishi, yurish-turishi va amallariga ko‘ra ma’lum bahoga

sazovor bo‘ladi. Asarning markazida, musulmon olamidagi Alloh yaratgan banda – inson yotadi. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ohib berishga kirishar ekan, o‘ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she’rning jarangdor va o‘ynoqilagini rang-barang bo‘yoqlar orqali ohib beradi. Dostondagi har bir misra o‘quvchini to‘lqinlantiradi, undagi chuqur mazmunni idrok etishga chorlaydi.

Xo‘janazar Huvaydo o‘z asarlarida Qur’on oyatlari, Hadis hikmatlari va shariat ahkomlarini badiiy vositalar va yorqin timsollar vositasida targ‘ib qilishga harakat qiladi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda she’rda Qur’on va hadis so‘zlarining ishlatalishi alohida san’at hisoblangan, ya’ni biror bayt yoki misrada talmi’ san’ati emas, boshqa bir mustaqil san’at iqtibos san’atidan foydalaniлади. A.Hojiahmedov o‘zining “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” asarida iqtibos san’ati haqida shunday deydi: “Ilm o‘zlashtirmoq” ma’nosidagi bu so‘z Qur’on oyatlari va payg‘ambar hadislarini she’r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she’rda ifodalash san’ati nomidir. Musulmon mamlakatlarning shoirlari bu usulga keng murojaat qilib, o‘zlarining lirik va liro-epik asarlarida oyatlari va hadislarni keltirganlar. Hadislarga bag‘ishlab yozilgan “Arbain”lar ham iqtibos usulida yaratilgan”<sup>6</sup>. Huvaydo ham dostonning ayrim o‘rinlarida Qur’on oyatlari hamda hadislardan keng foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Huvaydo she’r vazni talablari hamda asarni turkiy tilda yozganligi sababli ham ayrim o‘rinlarda ularning tarjimasini keltiradi. Oyat, hadis so‘zlarini juz’iy o‘zgarishlar bilan she’rda keltirish usulini Ataulloh Husayniy iqtibos san’atining bir turi deb hisoblaydi. Ataulloh fikri bo‘yicha aqd (arab., turg‘un bog‘lamoq, javohirlarni ipga tizish) nasr javohirlarini nazm rishtasiga tizmoq bo‘lsa, Koshifiy iqtibos va aqd o‘rtasidagi tafovut haqida shunday yozadi: “Iqtibos – Qur’on (oyatlari) va hadisni aynan keltirishdir. Va aqdda so‘z o‘zgartiriladi”.

Huvaydo o‘z nuqtai nazarlarini bayon etish jarayonida Qur’on va hadisga murojaat qiladi. Qur’oni karim va payg‘ambarimiz (s.a.v) hadisi shariflari jamiyat ma’naviyatining ajralmas va muhim qismiga aylangani odamlarning ongiga singdirilgani va kundalik hayotning hamma sohalarida qo‘llanilganligi uchun ham she’riy tarzda bayon etadi. Musulmon dunyosida amalga oshiriladigan har bir savobli, xayrli ishning “Bismillahir rahmonir rahim” ilohiy jumlesi bilan boshlanishi muqaddas an’anadir. Alouddin Mansur bu suraning fazilatlari haqida shunday yozadi: “Qur’ondagi suralarning joylashishi tartibida avvalgi o‘rinda turgani vav qisqa bo‘lishiga qaramasdan Qur’onning asosiy mazmun mohiyatini o‘zida mujassam etgani uchun ham u Qur’on mazmunini ochuvchi deb nomlangan<sup>7</sup>. “Bismillahir rahmonir

<sup>6</sup> Hojiahmedov A. She’r san’atlarini va mumtoz qofiya. – T.: O‘qituvchi, 1999. -B. 60-61.

<sup>7</sup> Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi/Tarjima va izohlar muallifi. A. Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001. – B. 534.

rohim” jumlesi bilan doston yozgan ijodkor Nizomiy Ganjaviy hisoblanadi. Amir Xusrav Dehlaviy ham “Matla’ ul-anvor” da ham “Bismillohir rahmonir Rahim” jumlesi bilan boshlaydi. Ta’kidlash joizki, Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostoni Sharq adabiyotining mumtoz vakillari bo‘lmish Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiyotlaridagi “Mahzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuxfat ul-axror”, “Hayrat ul-abror” dostonlaridan ilhomlanish natijasida maydonga kelib, uning tuzilishi (maqolat va hikoyatlar, masallar) ham, ijtimoiy va axloqiy muammolarning o‘rtaga qo‘yilishida ham umumiylig borligi ko‘zga tashlanadi. Yuqorida tilga olingan dostonlar yoki shoirlarning ijodidagi asosiy mushtaraklik axloqiy-ta’limiy fikrlarni ifodalash, komil insonni tarbiyalashga bosh vazifa sifatida qarashdir. Huvaydoning “Rohati dil” dostonida ilmi kalom va ilmi fiqhda zikr etilgan masalalarni bayon qilishda So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asariga yaqin turishini kuzatishimiz mumkin. Har ikkala asarda ham insonlarning e’tiqodi, iymoni, diyonatini mustahkamlashni, ularning o‘zligini va Xoliqni tanish bilan bog‘liq masalalar haqida fikr yuritilganligi ko‘zga tashlanadi.

Xo‘janazar Huvaydoning o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos munosib o‘rni bor. “Rohati dil” dostoni esa o‘zining diniy-axloqiy va didaktik mazmuni bilan nafaqat diniy ilmlar, balki boy adabiyotimiz tarixini yangicha o‘rganish uchun ham bebafo durdonadir. Bu dostonni o‘qigan har bir kishi o‘zining ichki ma’naviy dunyosini poklashga intiladi, qalbida mujassamlangan insoniylik tuyg‘ularini harakatga soladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. *Хуваидо. Роҳами дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Ҳалқ мероси”, 1994. 119 б.*
2. *Hojiahmedov A. She’r san’atlari va mumtoz qofiya. – T.: O‘qituvchi, 1999.*
3. *Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi/Tarjima va izohlar muallifi. A.Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001.*

**UDK 547.46.054****UZUM MEVASIDAN SHINNI TAYYORLASH USULLARI VA KIMYOVIY  
TARKIBI HAMDA TIBBIYOTDA ISHLATILISHI****Azimova A.Q.**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
e-mail: [info@biochem.uz](mailto:info@biochem.uz)

**Islomov A.X.**

O‘zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, 100125,  
Toshkent shaxri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 83. e-mail: [islomov-72@mail.ru](mailto:islomov-72@mail.ru).

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada uzumdan shinni tayyorlash usullari va kimyoviy tarkibi hamda  
tibbiyotda ishlatalishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *uzum mevasi, vitaminlar, glyukoza, pektin, oqsil, uglevodlar.*

**ANNOTATION**

*This article provides information on the methods of making grape molasses, its  
chemical composition, and its use in medicine.*

**Key words:** *grape fruit, vitamins, glucose, pectin, protein, carbohydrates.*

**KIRISH:**

Dunyo miqyosida bugungi kunda o‘simgliklardan olinadigan tabiiy dorivor moddalarni ajratib olish va mahalliy quruq mevalardan yangi turdagи shifobaxsh tabiiy maxsulotlar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Miromonovich rahnamoligida amalgalashirilayotgan keng qo‘lamli islohotlar jarayonida fan-texnikani, ichki va tashqi (eksportbop) maxsulot ishlab chiqarishni izchil rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2021 yil 7 iyulda uzum etishtirish, uni sanoat usulida qayta ishlash, uzumni qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirishni rivojlantirish, uzum plantatsiyalari tashkil etish hamda hududlarda enoturizmni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar va Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2022 yildagi PQ-99-sonli qarori asosiga mos keladigan dorivorligi jihatidan yuqori

o‘rinlarda turuvchi tabiiy uzum mevalaridan tayyorlanadigan shinni olish texnologiyalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan ishsizlar sonini kamaytirib, Halqimiz fuqorolarini ish bilan taminlash dolzARB mavzulardan biri xisoblanadi. Uzum mevasining ko‘pchilik turlari Yevropa mamlakatlarida yetishtiriladigan va mazasi hamda kimyoviy tarkibida ham o‘sish sharoitiga qarab turlicha bo‘ladi. Tok bu *Vitaceae Juss* oilasining *Vitis* turkumiga mansub qadimiy gulli yoki yopiq urug‘li o‘simlik bo‘lib tokdoshlar oilasi turkumga yaqin turlarini o‘z ichiga oladi. Ular o‘zlarining morfologik belgilari, biologik xususiyatlari va ishlatilishiga qarab bir-biridan farq qiladi. Uzum tarkibida B guruhidagi barcha vitaminlar, E, A, PP, K, C va D vitaminlari ham yetarlicha saqlanadi. Bundan tashqari, uzumda temir, mis, kaliy, kalsiy, magniy, rux, bor, vanadiy, alyuminiy molibden, selen, titan, kobalt, radiy, xlor, kremniy va oltingugurt kabi mikro va makroelementlar ham bor. Uzumda suv, glyukoza, pektin, oqsil, uglevod, to‘yingan va to‘yinmagan yog‘ kislotasi, efir moyi hamda bo‘yovchi moddalar mavjud [1-2].

## NAZARIY QISM

Uzum va uning sharbati bilan davolanish ishtahasizlikka chek qo‘yadi. Uyqusizlik, kamqonlik, buyrak kasalliklari, nevroz va tanadagi modda almashinuvi buzilishiga qarshi samarali vositadir. Uzumning eng foydali navi qora kishmish bo‘lib, u kamqon va nimjon odamlarga tavsiya etiladi. Xatto saratonga chalingan bemorlarga ham immunitetni ko‘taruvchi vosita sifatida qora uzum yoki mayiz buyuriladi.

Uzum sharbatini kimyoviy tarkibida fruktoza, glyukoza, saxaroza, rafinoza, ksiloza kabi foydali moddalar borligi sababli quvvatni oshiradi. Uzumni kamqonlik, yurak-qon tomirlaridagi kasalliklar, surunkali gepatit kabi xastaliklarda iste’mol qilish buyuriladi. Bundan tashqari, uzumni oshqozon-ichak trakti, o‘tkir va surunkali nefrit, nevroz kasalligida iste’mol qilish tavsiya etiladi. Buyragida tosh yoki qum bo‘lganlar doimiy ravishda uzum eb, sharbatini ichib yurishsa, undan xalos bo‘lishadi. Nafas yo‘llaridagi shamollah va astmaga qarshi uzum sharbatini ichish foydali, chunki u shamollahni oladi. [1-3].

Uzumdan tayyorlangan quritilgan (mayiz) organizm tomonidan tez o‘zlashtiriladigan glyukozaga boy (65-80%) yuqori kaloriyalı hisoblanadi. Uzum po‘sti va danagida resveratrol miqdori ko‘pligi sababli unda saratonga qarshi kurasha olish quvvati bor. Yallig‘lanishga qarshi kurashish xususiyati tufayli ko‘krak saraton, yo‘g‘on va to‘g‘ri ichaklardagi saraton xastaligining boshlanishini asoratsiz davolaydi. Mayiz tibbiy jihatdan juda kaloriyaga boy mahsulot bo‘lib, undan kamqonlik, quvvatsizlik, immunitet pasayishi va asablar taranglashuvida foydalilaniladi. Yangi uzilgan uzumga nisbatan mayizning shifobaxshligi yanada kuchliroq bo‘ladi. Oq uzum mayizi asab tolalarini mustahkamlab, ichaklarni toksin va infeksiyalardan tozalasa,

qora uzum mayizi esa asabi taranglar (sabrsizlar) uchun eng foydali darmondori, ya’ni asabni tinchlantirib, charchoqni oladi. [4-8].

Uzumning dorivorlik xususiyati ham ancha qadimdan ma’lum. Sharq tabobatida dorivor o’simlik sifatida uzumdan pishgan va xom holida foydalanganlar. Shuningdek, uzum sharbat, sirkasi, bargi poyasidan ham unumli foydalanishgan. Abu Rayhon Beruniyning ta’kidlashicha, uzum poyasini kesganda oqib tushadigan suvi ko‘p shifobaxsh xususiyatlarga egadir. Uning poyasidan efir moyi ham olingan. Mashhur tabib Abu Ali ibn Sino esa uzumning xususiyatlari haqida shunday deb yozadi: «Bir muncha muddat olib qo‘yilgan uzum tanani yaxshi oziqlantirib, quvvatlantiradi. Yaxshi pishgan uzumning zarari pishmaganidan kamroqdir. Uzumning o‘zi sharbatidan ko‘ra foydaliroqdir. Uzum va danakli mayiz ichak og‘rig‘ida yaxshi foyda qiladi. Shuningdek, mayizi buyrak va qovuq uchun ham foydali. Uzum poyasining suvi, yovvoyi uzum mevasining sharbat qon tupurishni bartaraf etadi. Ich ketish va yo‘g‘on ichak xastaliklarida ham foydali. Uzum poyasining suvi toshlarni maydalaydi, so‘gal, qontalash, temiratkini davolaydi. Uzum mevasi, shinnisi va mayiz maxsulotlari 1-rasmda keltirilgan.



### **1-rasm.Uzum mevasi va shinnisi NATIJALARНИ MUHOKAMA QILISH**

Hozirgi kunda turli kimyoviy qo‘sishimchalarsiz oziq-ovqatlarni topish ancha mushkul. Bu borada foydaliligi jihatidan xalqimiz azaldan tayyorlaydigan maxsulot shinnidir. Shinni shuningdek, tut, qovun, tarvuz va boshqa ho‘l mevalar sharbatini qaynatish usuli bilan ham tayyorlanadi. Shinni – fransuzchadan tarjima qilinganda qora jigarrang rangli, o‘ziga xos hidli qiyom yoki nordon suyuqlik turi degan ma’noga ega. Bu qiyom ozuqa hissoblanadi. Kanada va Qo‘shma shtatlarda pazzandachilikda ta’omlar tayyorlashda foydalilanadi. Ayrim mamlakatlarda esa uzum suvidan sirop shaklida foydalanish juda ommalashgan. Shinni uglevodlarga juda boy. Uzum suvining tarkibini 60%dan ortiq uglevod, 20-25% suvni tashkil qiladi. Uzum shinnisi quvvat beradi, ishtahani ochadi; qonni ko‘paytiradi, homiladorlikda foydasi katta.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda shakarning zararlari ma’lum bo‘lgach, uning ahamiyati yanada ortdi. Ertalab iste’mol qilinadigan ikki qoshiq shinni vujudning kundalik kalsiy, temir, magniy va boshqa vitaminlarga ehtiyojini qondiradi va kam qonlik (anemiya) kasalliklarida yaxshi natija beradi. Shinni -uzum sharbatidan tayyorlanadigan shirinlik turi bo‘lib, oq uzum navlaridan tayyorlanadi. (Buvaki, Bayan Shirey, Soyaki, Nimrang va boshqalar).

### TAJRIBA QISM

Shinni tayyorlash uchun uzumni yaxshi pishgan boshlari sovuq suvda yuvilib, g‘ujumi bilan eziladi. So‘ngra sharbati filtrlab olinadi. Aynib qolmasligi uchun filtrlab olingan sharbatga sog‘ toza sariq tuproq (gil) aralashtirilib, sharbat tarkibidagi ortiqcha zarralar (chang, uzum eti) cho‘kmaga tushiriladi va filtrlab sharbat esa qozonga solinib, past olovda rangi tiniqlashib bir qadar quyulguncha qaynatish davom ettiriladi. Vaqtivaqti bilan yog‘och kurakchada aralashtirib turiladi. Tayyor shinni to‘q kahrabo rangda bo‘ladi. Bu usul bo‘yicha yaxshilab tayyorlangan shinni uzoq saqlanganda ham kimyoviy tarkibi o‘zgarib qolmaydi.

### XULOSA

Bu usul bo‘yicha tayyorlangan shinni uzoq saqlanganda ham kimyoviy tarkibi o‘zgarib qolmaydi shuningdek kalsiy, temir, uglevodlar va boshqa vitaminlarga juda boy bo‘lib tibbiyotda quvvat beruvchi, ishtahani ochuvchi, qonni ko‘paytiruvchi hamda kam qonlik (anemiya) kasalliklarida yaxshi natijalar beruvchi shinni tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqildi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Temurov Sh. *Uzumchilik*. Toshkent, 2002 yil. B. 199.
2. Djavakjans Y.M., Gorbach V.I. *Vinograd Uzbekistana*. Tashkent, 2001.g. S.240
3. Mirzaev M.M., Rizaev R.M. *Rekomendachii po sushke vinograda v fermerskix xozyaystvax*. Tashkent, 2011 g. B. 6-21.
4. E. A. Shreder., K. I. Baymetov., Sh. M. Axmedov O‘zbekiston fermer xujaliklarida uzum kuchatlarini kupaytirish texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent, 2015.y. B. 4-11.
5. Islamov A.Kh., Sanova Z.A., Matchanov A.D., Abdulladjanova N.G., Saidova V.A., Gaynullaeva.O.O., Ishmuratova. A.S., Raximov R.N., Khushvaqtov Z.Sh. // *Technology of production of active applications with natural capsulla against*

*diseases caused by iodine deficiency// World journal of engineering research and technology. sjif impact factor: 5.924 wjert, 2020, vol. 6, issue 4, 91-104*

6. Islomov A.X., Matchanov A.D., Abdulladjanova N.G., G‘aybullaeva O.O., Ishmuratova A.S., Raximov R.N., Xushvaqtov Z.Sh. akademik AN RUz Ibragimov B.T. // mayiz asosida tabiy kapsulali biologik faol qo‘sishchalar olish texnologiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining maruzalari. 2020 y, №5. s. 63-69

7. Islomov A.X., Jalmurodova D.D. // Mayiz asosida tabiy kapsulali biologik faol qo‘sishchalar olish afzaliklari // ToshDTU. Tabiiy fanlar sohasidagi dolzarb muammolar va innovatsion texnologiyalar// Xalqaro ilmiy-amaliy on-line anjuman. ilmiy ishlar to‘plami. Toshkent., 2020 yil 20-21 noyabr. B. 608-610.

8. Islamov A.X. Jalmurodova D.D. // Mayiz va yodlangan mayiz tarkibidagi mikro va makroelementlar mikdori taxlili.//O‘zMU Kimyoning dolzarb muammolari mavzusidagi ilmiy- amaliy anjumani (4-5-fevral 2020yil) B.232-233

## “ZARBULMASAL”ASARI VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

**Qurbanova Sarvinoz Gulboyevna**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti)yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

[sarvinozqurbanova.2002@gmail.com](mailto:sarvinozqurbanova.2002@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Gulxaniy ijodida “Zarbulmasal”asarining o‘rni va uning o‘rganilishi, ”Zarbulmasal”asari va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlik qisqacha yoritilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** Zarbulmasal, Gulxaniy, misol, maqol, matal, xalq og‘zaki ijodi

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье кратко описывается роль Зарбулмасала в творчестве Гулхани и его изучении, а также связь Зарбулмасала с фольклором.*

**Ключевые слова:** Зарбулмасал, Гулханы, пример, пословица, поговорка, фольклор.

### **ANNOTATION**

*This article briefly describes the role of Zarbulmasal in the work of Gulkhani and its study, as well as the connection of Zarbulmasal with folklore.*

**Keywords:** Zarbulmasal, Gulkhans, example, proverb, saying, folklore.

Adabiyot paydo bo‘lgan davrdan boshlab doimo insoniyat taraqqiyoti va uning ma’naviy yuksalishi uchun xizmat qilgan. Shunga munosib ravishda ijod ahli ham insoniyat uchun foydali manbalarni yaratishga harakat qilganlar. Ayniqsa, har qaysi davrda xalq dardini, tashvishini boricha ochib bera olgan va xalq uchun kurashgan ijodkorlar ko‘proq e’zozlangan, asarlari sevib o‘qilgan. Xalq bilan hamnafas ruhdagi asarlari bilan XVIII-XIX asr o‘zbek mumtoz adabiyotida Gulxaniyning o‘ziga xos o‘rni bor. Bu davrlar nasri taraqqiyotini uning ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham uning asarlari doim adabiyot muxlislari va tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan. U o‘zining nasriy va she’riy asarlarining xalqchilligi va tilining o‘tkirligi bilan o‘quvchilarning e’tiborini torta olgan. Uning hayoti va ijodining o‘rganilishi borasida adabiyotshunoslikka oid bir qancha darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ham ma’lumotlar berilgan.

“Uning ijodi haqida ma’lumotlar,mulohazalar o‘z zamonasida yaratilgan tazkiralari,tarixiy asarlar ,badiiy asarlardayoq bayon etila boshlangan.Jumladan,birlamchi,muhim manbalar sifatida Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”,Vozehning “Tuhfat ul-ahbob...”tazkiralari,Avazmuhammad Attorning “Tarixi jahonnamo”asarini,Dilshod Barnoning “Tarixi muhojiron”risolalarini ko‘rsatishimiz mumkin.P.Qayumovning keyinroq tasnif etilgan “Qo‘qon tarixi va adabiyoti”asaridan ham Gulxaniy haqida ma’lumot olish mumkin.Shoirning eng mashhur asari “Zarbulmasal”.Uning 6 qo‘lyozma va 10dan ortiq bosma nusxalari mavjud.U bilan XIX asr oxirlarida rus sharqshunoslari ham qiziqa boshlagan.1895-yilda rus tiliga tarjima etilgan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Gulxaniy asarlari kirill alifbosida nashr etila boshlagan.Jumladan,”Namunai adabiyoti tojik”(1926-y.),”O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”(1945-y.),”O‘zbek poeziyasi antologiyasi”ni aytish mumkin.1951-yilda “Zarbulmasal”alohida nashr etiladi.1958,1960-yillarda ham qayta chop etilgan.

Gulxaniy ijodini o‘rganish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan.Dastlabki ish 1938-yil “Mash’ala”jurnalida chop etilgan Fitratning “Zarbulmasal”nomli maqolasidir.1948-yilda R.Muqimov yirik tadqiqot,ya’ni maxsus dissertatsiya yozdi.Taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan H.Yoqubov,V.Zohidov,V.Abdullayev,M.Qo‘shtonovlarning bu boradagi xizmatlari ham e’tiborga molik.A.Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti”(1961-y.)nomli kitobidan ham Gulxaniy hayoti,ijodi,o‘zbek mumtoz adabiyotidagi mavqeい bobida muhim ma’lumotlar olish mumkin.Shoir ijodi tilshunoslik nuqtai nazaridan ham o‘rganila boshlangan.X.Nazarovaning bir qancha ilmiy tadqiqotlari ma’lum.”<sup>8</sup>

Mulla Gulxaniy nomini avloddan avlodga yetkazib kelayotgan va adabiyotimiz tarixida unga abadiy joy olib bergen yodgorlik, bu — «Zarbulmasal»dir. «Zarbulmasal» XIX asming 80- yillaridayoq rus sharqshunoslarining e’tiborini o‘ziga tortdi.1890- yili Qozon universiteti bosmaxonasida nashr etildi va rus tiliga tarjima qilindi. U 1951- yili M.Sale tomonidan yana bir bor rus tiliga tarjima etildi. Bunda tarjimon asarning sho‘rolar davridagi nashrlariga tayanibish ko‘rgan edi. 1948- yili samarqandlik adabiyotshunos R.Muqimov Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi ishlami umumlashtirib, «Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi. Gulxaniy ijodini ilmiy jihatdan baholashdaH.Yoqubovning Gulxaniy asarlari nashriga yozgan kirish so‘zi, akademik V.Abdullayevning «O‘zbek adabiyoti tarixi» darsligidagi adabiy portreti, akademik A.Qayumovning «Qo‘qon adabiy muhiti» monografiyasida Gulxaniy hayoti va ijodiga ajratilgan o‘rinlaming, O‘zFA haqiqiy a’zosi M.Qo‘shtonov va tilshunos

<sup>8</sup> N.Jumaxo‘ja,I.Adizova.O‘zbek adabiyoti tarixi.Toshkent,”Noshir”2019,-268-bet.

olima X.Nazarovaning «Zarbulmasal»ning badiiy xususiyatlari, tili va uslubini o‘rganishga doir ishlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, gulkaniyshunoslikda matnshunos, manbashunos, tilshunos olim

Fathiddin Is’hoqovning amalga oshirgan tadqiqotlari katta qadam bosdi. Bu olim Gulxaniy va uning davri adabiyoti bilan bog‘liq juda ko‘p manbalarni, «Zarbulmasal»ning ko‘p sonli qo‘lyozma va bosma nusxalarini qiyosan o‘rganib, uning tanqidiy matnnini tayyorladi hamda 1976- yili Toshkentda nashr ettirdi. Olim Gulxaniy va uning adabiy merosi haqida bir qancha salmoqli risolalar, maqolalar e’lon qildi. U o‘zining 20-25 yillik ilmiy izlanishlarini yakunlab, 1997- yil 16- dekabrda «Gulkaniy ,«Zarbulmasalning ilmiy-tanqidiy matni» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. F.Is’hoqov o‘z tadqiqotlarida Gulxaniy hayoti va adabiy merosini o‘rganish jarayonida boshqalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan nuqsonlami bartaraf etadi, adibning taxallusi, qismati, qushlar obrazlarini noto‘g‘ri nomlash, asarning janriy xususiyatlarini belgilash borasidagi chalkashliklarga aniqlik kiritadi. F.Is’hoqovning ilmiy asarlarida «Zarbulmasal» xalqchil nasrning o‘ziga xos namunasi ekanligi, asarning g‘oyaviy-badiiy dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Uning ishlarida ayniqsa «Zarbulmasal»ning til xususiyatlari keng ko‘lamda o‘rganildi.<sup>9</sup>

Ushbu asar o‘sha davrdagi tarixiy vaziyatni,xalq turmushini yorqin aks ettirishi bilan birga o‘z o‘rnida va mohirona qo‘llangan so‘zlari bilan o‘quvchini jalb qila oladi va estetik zavq bag‘ishlaydi.Mehnatkash xalq hayotini yaxshi bilgan hajviy asarlar muallifi Gulxaniy xalq dardini ,uning og‘zaki ijodini juda yaxshi bilar edi. U o‘zbek va tojik tillaridagi bir qancha maqol, masal va hikmatli so‘zlardan san’atkorlarga xos badiiy mahorat bilan ijodiy foydalandi. Keltirilgan barcha maqollar asarning g‘oyaviy mazmunini ochishga yordam beradi. Masalan, Yapaloqqushning o‘g‘liga o‘z qizini berishni lozim ko‘rmagan Boyo‘g‘li sovchi bo‘lib kelgan Ko‘rqushga qarab shunday deydi: “*Sen menga nasihat o‘qig‘ali keldingmu?*”. “*Anglamay so‘zlagan og‘rimay o‘lar...*”

Gulkaniy xalq og‘zaki ijodi materiallaridan foydalanar ekan, uning g‘oyaviy yo‘nalishini, shakli, uslubi va badiiy xususiyatlarini to‘la saqlab qolishga intiladi. Shuningdek, ayrim maqollarni ko‘chma ma’noda ham qo‘llaydi. Bu esa istiora yoki metaforik iboralardir. Masalan, “Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas” iborasi bir ishni bitkazish uchun mashaqqat chekishga to‘g‘ri keladi, degan ma’noda ishlatilgan.

Gulkaniy “Zarbulmasal”da ijodiy foydalangan ko‘pgina maqol, matal, masal, hikmatli so‘zlar ham xalqimizning jonli tilida va yozma adabiyotida qo‘llaniladi. Bu maqollarda kishilarning mehnatsevarlik, har bir masalaga aql-idrok bilan yondashish,

<sup>9</sup> R.Orzibekov.O‘zbek adabiyoti tarixi. O ‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti.T.:2006,-153-bet.

to‘g‘rilik, sofkillik, sabotlilik kabi ajoyib fazilatlari ulug‘lanadi. Masalan, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma”, “Uyat o‘limdan qattiq”, “Evi bilan so‘zlaganning qurboni bo‘l”, “Yolg‘on masal turmas», “Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltirar”, “Yaxshi bilan yurding – etding murodga, yomon bilan yurding - qolding uyatga” kabi o‘rinli qo‘llangan maqollar xalq donoligini ifodalab keladi.

Maqollar “Zarbulmasal”ning tilini boyitib, uning g‘oyaviy-badiiy qimmatini, shiradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqollarga juda katta e’tibor bergan Gulxaniy o‘z asarini “Zarbulmasal” deb nomlaydi. Zarbulmasal maqol demakdir.

Maqol xalq og‘zaki ijodining eng ixcham, lekin nihoyatda sermazmun janridir. U xalqning ko‘p yillik tajribasi natijasida orttirgan donishmandligini namoyish etadi.

Umuman, maqol va hikmatli so‘zlar, A.M.Gorkiy aytganidek, xalqning o‘ziga xos hayotini, tajribalarini namunaviy yo‘sinda ifodelaydi.

Gulxaniy “Zarbulmasal”da: “Ammo roviylar andoq rivoyat qilurlarkim”, “Bor erdi Farg‘onada bir sorbon”, “Murod-maqsadlariga etdilar” kabi xalq rivoyatlari va xususan, ertaklar, qissalarga xos an’anaviy muqaddima va xotima gaplardan juda o‘rinli foydalangan. Bu esa asar tili va uslubining sodda va maroqli bo‘lishiga xizmat qilgan.

Yozuvchi “Zarbulmasal”da aksar xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan saj, ya’ni nasriy ifodaning qofiyalanishidan ham foydalangan. Misol uchun “Farosatning oyog‘i oqsoq”, “Tevadek yegani sho‘ra va yantoq”, “Oyog‘idan osilgan sutqoq, oqqushga o‘xshagan Jalol bo‘qoq...” kabilarni eslatib o‘tamiz. Bunday prozada vazn bo‘lmasa ham, lekin ichki qofiya mavjud. Prozadagi bunday qofiya saj deyiladi.<sup>10</sup>

Gulxaniy ushbu asarida voqealarni humor bilan boyitish barobarida real hodisalardan hikoya qiladi va xalqqa zulm o‘tkazuvchilarni o‘zlariga munosib obrazlar yordamida achchiq tanqid ostiga oladi. Biz asarda tanqid va pandning o‘zgacha aralashuvini ko‘rishimiz mumkin. Xalqning orzu-umidlarini xalq tilida bayon qilinganligi asarga o‘ziga xos ruh bergan. Xulosa qilib aytganda, satirik yozuvchi Gulxaniy “Zarbulmasal”da xalq og‘zaki ijodi imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanish bilan o‘z asarining g‘oyaviy-badiiy jihatdan pishiq va xalqqa manzur bo‘lishiga erisha olgan.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. N.Jumaxo‘ja,I.Adizova.*O‘zbek adabiyoti tarixi*.Toshkent, ”Noshir”2019
2. R.Orzibekov.*O‘zbek adabiyoti tarixi*.O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti.T.:2006
3. M.Hamidova.*Bolalar adabiyoti*.Ma’ruzalar matni.Namangan,2017

<sup>10</sup> M.Hamidova.Bolalar adabiyoti.Ma’ruzalar matni.Namangan,2017,-105-bet

## ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛУЧЕННЫХ СИТАЛЛОВ НА ОСНОВЕ БАЗАЛЬТОВ МЕСТОРОЖДЕНИЯ КУТЧИ

**Д.Б.Ахунов, Ш.Жураев, Д.Ахатов, Х.Жураев**

Наманганский строительно инженерн<sup>к</sup>й институт, И.каримов 12, 100000,  
Наманган, Узбекистан. E-mail:[doni78inbox.ru](mailto:doni78inbox.ru)

### АННОТАЦИЯ

В этой статье описаны проведенные анализы физических и химических свойств ситаллей. При кристаллизации некоторых стекол в качестве первичных метастабильных фаз регистрируются кварцеподобные твердые растворы. Установлено, что в ситаллах кристаллы ряда алюмосиликатов по своей структуре не отличаются от кварца. В связи с этим предположили, что такие кристаллы образуются путем замещения в узлах решетки кремнезема ионов  $Si^{4+}$  на ионы  $Al^{3+}$  и заполнения пустот в междуузлиях катионами других элементов. Электронно-микроскопические снимки закристаллизованных образцов стекол также позволяют предположить образование кварцеподобного твердого раствора в исследованных образцах. Разработанный ситалл на основе базальтов Кутчинского месторождения, обладает высокой химической стойкостью и износостойчивостью. Поэтому он рекомендован для футеровки перекачивающих щелочей и кислот химических аппаратов, деталей центробежных насосов.

**Ключевые слова.** Ситалл, песок, стекла, гранит, базальт, сиенит


**Введение.** Изделия, получаемые путём плавления и последующей кристаллизации из расплавленных основных магматических горных пород типа базальтов и диабаз, получили название каменного литья. Они отличаются высокой прочностью большим сопротивлением истиранию, даже более высоким, чем некоторые легированные марганцовистые стали, и значительной кислотоустойчивости. Поэтому в ряде случаев такое литьё успешно применяется для замены дорогостоящего металла в различных видах химической аппаратуры и в качестве строительного материала: желобов для транспортировки угля, железной руды и пустой породы [1].

**Литература и методология.** В последние годы проведены исследования по переходу от каменного литья к ситаллам. На основе различных горных пород – изверженных (базальт, диабаз, гранит, нефелиновый сиенит и др.), осадочных (пески, глины мергели, каолины и др.), метаморфических (гнейсы, сланцы, мраморы, серпентиниты и др.) получены различные ситаллы [2].

Составы стекол перерабатываемые в ситаллы разнообразны и многочисленны. Особенно технические ситаллы и ситаллы строительного назначения, которые могут быть разбиты на подгруппу либо по составу, либо по ведущему свойству. Технические ситаллы по составу могут быть, как литийсодержащие (сподуменовые, эвкриптиловые, петалитовые), магнийсодержащие (кордиеритовые, шпинельные), высокоокремнезистые (тридимитовые, кристабалитовые), свинецсодержащие, фотоситаллы и другие. По ведущему свойству технические ситаллы различают термостойкие, прозрачные и другие.

Стекла, синтезированные на основе природного базальта, а также искусственных шихт, после термической обработки были подвергнуты

### Электронномикроскопические снимки стекла состава 1Б




Термообработка стекла при 900 и 1000°C, выдержка 1 ч. при каждой температуре.  $\times 5500$

**Рис. 1.**

Структура закристаллизованных стекол составов 2Б, 3Б и 5Б является также тонкодисперсной, однако по однородности уступает образцам, полученным из стекла состава 7Б.

## Электронномикроскопические снимки стекол 2Б, 3Б и 5Б



Термообработанного при 900 и 1000°C выдержка 1 ч. в каждой температуре,  
а - 2Б; б – 3Б; с – 5Б. ×6000


**Рис.2.**

электронно-микроскопическому анализу. Электронно-микроскопические снимки образцов, полученные кристаллизацией стекол при температуре 900°C, представлены на рис. 1-3. Они получены на электронном микроскопе ЭМБ-100 БР методом одноступенчатых угольно-серебрянных реплик.

Закристаллизованные стекла, полученные из базальтового расплава сохранили ликвационную структуру исходного стекла каркасного типа. Размер кристаллов не превышает 2 мкм.

**Результаты.** При кристаллизации некоторых стекол в качестве первичных метастабильных фаз регистрируются кварцевоподобные твердые растворы. Установлено, что в ситаллах кристаллы ряда алюмосиликатов по своей структуре не отличаются от кварца. В связи с этим предположили, что такие кристаллы образуются путем замещения в узлах решетки кремнезема ионов  $\text{Si}^{4+}$  на ионы  $\text{Al}^{3+}$  и заполнения пустот в междуузлиях катионами других элементов. Электронно-микроскопические снимки закристаллизованных образцов стекол также позволяют предположить образование кварцевоподобного твердого раствора в исследованных образцах.

## Электронномикроскопический анализ стекла состава 7Б



Термообработанного при 900 и 1000°C, выдержка 1 ч. ×6000

**Рис. 3**

**Обсуждения.** Таким образом, обычная степень увеличения в 6000 раз в электронной микроскопии позволила воспроизвести топографию исследуемой поверхности закристаллизованных стекол, т.е. зафиксировать структуру ситаллов в целом, которая в рассматриваемом конкретном случае для состава 7Б является однородной и тонкокристаллической.

Образцы ситаллов, полученные по выбранному режиму, были подвергнуты испытаниям. Результаты испытаний сведены в табл. 5.7.

Из данных таблицы видно, что высокие значения механических свойств ситаллов есть результат образования тонкодисперсной кристаллической структуры. Присутствие в составах щелочи понижает температуру кристаллизации и значения химико-механических свойств ситаллов.

**Таблица.1.****Физико-химические свойства полученных ситаллов**

Составы	Свойства								
	Плотность, г/см <sup>3</sup>	ТКЛР, $\alpha \cdot 10^{-7}$ град <sup>-1</sup>	Кристаллизационная способность, °C:		Предел прочности при изгибе, МПа	Предел прочности при сжатии, МПа	Химическая устойчивость, %		
			нижний предел	верхний предел			к 35 %-ной NaOH	к конц. HCl	конц. H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>
2Б	3,14	55	800	950	117	830	99,85	99,95	99,87
3Б	3,25	56	800	950	115	910	99,87	99,97	99,66
5Б	3,23	59	750	900	113	900	99,71	99,89	99,97
6Б	3,12	63	800	950	112	890	99,67	99,93	99,86
7Б	3,09	54	750	945	121	920	99,76	99,98	99,89

**Заключения.** По исследованиям свойства полученных стекол и ситаллов: предел прочности при изгибе стекол равен 53-56 МПа, в то же время для ситаллов показатели увеличиваются более чем в два раза – 112 – 121 МПа. Аналогичные результаты получены при испытаниях на сжатие данных материалов. Стекла имеют показатели 448 – 464 МПа, а ситаллы – 890 – 920 МПа.

Базальтовые стекла устойчивы к концентрированным HCl и H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, но они плохо работают в щелочной среде (95,90 – 95,78 %), ситаллы же очень стойки по отношению к ним (99,67 – 99,76 %).

Разработанный нами ситалл на основе базальтов Кутчинского месторождения, обладает высокой химической стойкостью и износостойчивостью. Поэтому он рекомендован для футеровки перекачивающих щелочей и кислот химических аппаратов, деталей центробежных насосов.

## ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ахунов, Д. Б., & Мухторалиева, М. (2022). *Oqova suvlarni tozalash texnologiyasini takomillashtirishga tavsiyalar berish*. Экономика и социум, (2), 93.
2. Ахунов, Д. Б., & Жураев, Х. А. (2017). Стеклокристаллические материалы на основе базальтов Кутчинского месторождения. Современные научные исследования и разработки, (3), 14-17.
3. Ахунов, Д. Б. (2008). Стекла и ситаллы на основе базальтов Кутчинского месторождения (Doctoral dissertation, –технология силикатных и тугоплавких неметаллических материалов. Ташкент, 2008.–143 с).
4. Ахунова, Д. Б., & Вотякова, Л. Р. (2019). ОПТИМИЗАЦИЯ СЕТЕВЫХ ГРАФИКОВ. In Управление качеством на этапах жизненного цикла технических и технологических систем (pp. 112-116).
5. Ахунов, Д. Б., & Карабаева, М. У. (2017). ЗАЩИТА ЗДАНИЙ ОТ ВИБРАЦИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ ОТ ТОННЕЛЕЙ МЕТРОПОЛИТЕНА КРУГЛОГО СЕЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ЭКРАНОВ. In Современные концепции развития науки (pp. 34-36).
6. Ibrahimjonov, H. S. (2022). ANALYSIS OF THE NEGATIVE IMPACT OF CAVITATION, DIRT AND SPILLS ON PUMPING DEVICES. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(12), 310-316.
7. Ibrahimjonov, H. S. (2022). ANALYSIS OF THE NEGATIVE IMPACT OF CAVITATION, DIRT AND SPILLS ON PUMPING DEVICES. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(12), 310-316.
8. РУДЗСКИЙ, Г. Г., КИМ, А. Н., ГУСАКОВСКИЙ, В. Б., & НЕГМАТОВ, М. К. (1990). Патронный фильтр для очистки жидкости.
9. Karimovich, N. M., Sharipovich, J. S., & Abduxamidovich, A. A. (2023). FILTRATION OF NATURAL WATER WITH INCREASED UPFLOW SPEED. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(01), 07-20.
10. Бекмирзаев, Д. А., & Мансурова, Н. Ш. (2020, June). ПРОДОЛЬНЫЕ КОЛЕБАНИЯ ПРЯМОЛИНЕЙНЫХ ПОДЗЕМНЫХ ТРУБОПРОВОДОВ ПРИ СЕЙСМИЧЕСКИХ ВОЗДЕЙСТВИЯХ. In The 11th International scientific and practical conference “Scientific achievements of modern society”(June 24-26, 2020) Cognum Publishing House, Liverpool, United Kingdom. 2020. 495 p. (p. 182). Xodjiev, N., Juraev, S., Kurbanov, K., Sultonov, S., Axatov, D., & Babayev, A. (2022, June). Analysis of the resource-saving method for calculating the heat balance of the

*installation of hot-water heating boilers. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 020019). AIP Publishing LLC.*

11. Arifjanov, A., Samiev, L., Khaydarov, S., Kasimov, T., & Juraev, S. (2022, June). *Increasing efficient use of water storage pools. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 040037). AIP Publishing LLC.*

12. Melikuziyev, S., Mirmigmatov, S., Elmuratova, A., Ibragimova, Z., Juraev, S., & Kurbanov, K. (2022, June). *New technology for protecting agricultural products from pests. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 040015). AIP Publishing LLC.*

13. Arifjanov, A., Juraev, S., Kosimov, T., Khaidarov, S., & Nodirov, J. (2022, June). *Definitions of the bentonite filtration coefficient in the logon deposit in the fergana valley. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 040003). AIP Publishing LLC.*

14. Juraev, S., Akramov, A., Abdurazzokov, A., & Pathidinova, U. (2022, August). *Increasing the efficiency of sedimentation tanks for drinking water treatment. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1076, No. 1, p. 012049). IOP Publishing.*

15. Akramov, A., Juraev, S., Xoshimov, S., Axatov, D., & Pathidinova, U. (2022, December). *Optimum placement of thin-layer elements in a horizontal sedimentation tank purification of drinking water. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1112, No. 1, p. 012139). IOP Publishing.*

16. Жураев, Ш., Ахатов, Д., Патхидинова, У., & Акрамов, А. (2022). *Оптимальное Размещение Тонкослойных Элементов В Горизонтальном Отстойнике Очистка Питьевой Воды. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(12), 53-62.*

17. Karimovich, N. M., Sharipovich, J. S., & Abduxamidovich, A. A. (2023). *FILTRATION OF NATURAL WATER WITH INCREASED UPFLOW SPEED. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(01), 07-20.*

18. Арифджанов А., Джураев С., Самиев Л. и Ибрагимова З. (2020). *Фаррух Бабаджанов Определение силы фильтрации и начального градиента фильтрации в грунтовых конструкциях. Журнал исследований Adv в области динамических и управляющих систем, 12.*

19. Арифьянов, А., & Джураев, С. (2012). *Значение бентонита при изучении процесса фильтрации в гидротехнических сооружениях. Научно-технический журнал Fer PI, (3), 14-17.*

20. Арифжанов, А. (2018, October). *Методы изучения фильтрационных особенностей бентонитов в гидротехнических сооружениях. In The collection*

includes scientific-materials of the International conference participants on the theme of "Topical issues of import substituting products based on the use of local raw materials in the Fergana valley" held on (pp. 271-273).

21. Арифжанов, А., & Жураев, Ш. (2012). Значение бентонита в изучении процесса фильтрации в гидротехнических сооружениях. ФерПИ научно-технический журнал, (3), 14-17.

22. Arifjanov, A., & Sh, J. (2019). Research of water permeability of soils used under doming. European science review., Vienna, Austria, 1(2), 94-95.

23. Жураев, Ш. (2014). Фильтрация жараёнини ўрганишида бентонитнинг аҳамияти. Республика ёш олимлар Илмий-амалий конференцияси" Маъруза тезислари тўплами.

24. Арифжанов, А., Ибрагимов, Ф., & Жураев, Ш. (2013). Магистрал каналларда нисбий фильтрация сарфи. Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги" АгроВИМ" илмий журнали, (2), 26.

25. Arifjanov, A., & Sh, J. (2019). Study of water permeability of bentonite. SCIENCE AND WORLD International scientific journal, 4(68), 33-35.

26. Мухсамеджанович, А. А. и Шарипович, Дж.С. (2019). Анализ водопроницаемости грунтов, используемых для строительства дамб. European science review, 1(1-2), 94-95.

27. Джураев, С. С. (2019). АНАЛИЗ ПРОНИЦАЕМОСТИ БЕНТОНИТА И ПЕСКА В ПОЧВЕННЫХ СТРУКТУРАХ. Теоретические и прикладные науки, (3), 437-440.

28. JURAEV, S. (2017). Informatizace veřejné správy v ČR (Doctoral dissertation, AMBIS vysoká škola, as).

29. Karimovich, N. M., Sharipovich, J. S., & Abduxamidovich, A. A. (2023). FILTRATION OF NATURAL WATER WITH INCREASED UPFLOW SPEED. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(01), 07-20.

30. Жураев, Ш. Ш., & Патхидинова, У. С. (2020). КАПЕЛЬНОЕ ОРОШЕНИЕ: ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ. Вестник Науки и Творчества, (1 (49)), 16-20.

31. Жураев, Ш. Ш. (2019). ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВА БЕНТОНИТА МЕСТОРОЖДЕНИЯ ЛОГОН В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. ББК 1 А28, 36.

32. Sheralli, J. Investigation of the bentonite properties of the Logon deposit in the Ferghana Valley. In Scientific and Publishing Center "Actuality. RF.", XIX International Scientific and Practical Conference "Advances in Science and Technology (Vol. 46, p. 36).

33. Арифжанов, А. М., & Жураев, Ш. Ш. (2019). ИССЛЕДОВАНИЕ ВОДОПРОНИЦАЕМОСТИ БЕНТОНИТА. Наука и мир, 1(4), 33-35.

34. Arifjanov, A., & Jurayev, S. (2018). *European science review*.
35. Karimovich, N. M., Sharipovich, J. S., & Abduxamidovich, A. A. (2023). *FILTRATION OF NATURAL WATER WITH INCREASED UPFLOW SPEED*. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(01), 07-20.
36. Sherali, J. *IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ECONOMISTS ON THE BASIS OF INTERACTIVE TEACHING METHODS*. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 77.
37. Жураев, Ш., Ахатов, Д., Патхидинова, У., & Акрамов, А. (2022). Оптимальное Размещение Тонкослойных Элементов В Горизонтальном Отстойнике Очистка Питьевой Воды. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(12), 53-62.
38. Jurayev, & Sh, S. (2019). *Analyze of the permeability of bentonite and sand in soil structures*. *ISJ Theoretical & Applied Science*, Philadelphia, USA., 3(71), 437-440.
39. Жураев, Ш. (2022). Ичимлик сувини тозалашида горизонтал тиндиригичлар самарадорлигини ошириши. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES*.
40. Arifjanov Aybek, M., Juraev Sherali, S., Maqsud Yusufovich, O., Kasimov Takhirjon, O., & Akhatov Davron, N. (2022). *Conditions for the Effective Use of Anti-Filtration Coating Types in Uncoated Channels*. *Middle European Scientific Bulletin*, 29, 80-86.
41. Жураев, Ш. (2020). Сув сақлаш обьектлари фойдали ҳажсига лойқаланиши жараёнларининг таъсирини баҳолаш. *STJ FerPI*.
42. Жураев, Ш. (2019). Определение водопроницаемости местных грунтов в полевых условиях. *NamMTI scientific technical journal*.
43. Жураев, Ш. (2019). Гидротехника қурилишида “Грунтдаги девор” усулини кўллашида бентонит лойидан фойдаланиши. *NamMTI scientific technical journal*.
44. Арифжанов, А. (2015). Қопламасиз каналларда фильтрация жараёнини ўрганиши бўйича тахлил ва тавсиялар. *SCIENTIFIC-TECHNICAL JOURNAL of FerPI*.

## БАҲОРГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙ НАВЛАРИНИНГ ЎСУВ ДАВРИГА ЭКИШ МЕЪЁРИ ВА МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

к/х.ф.д., профессор **Ойбек Анварович Аманов**

Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти директори

**Абдирасул Абдиҳакимович Жўраев**

Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти таянч докторант

[jurayevrasulbek\\_18@gmail.com](mailto:jurayevrasulbek_18@gmail.com)

к/х.ф.ф.д., **Фарход Дониёрович Мамадиёров**

Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти, «Алмашлаб экиш ва тупроқка ишлов бериш» лабараторияси мудири.

[farkhod.mamadiyov@gmail.com](mailto:farkhod.mamadiyov@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ.**

Уибу мақолада Қашқадарё вилоятининг Гузор туманидаги шўрланган оч тусли бўз тупроқлар шароитида баҳорги юмишоқ буғдой навларининг ўсиб ривожланишига экиш меъёр ва муддатлари таъсирни ёритилган.

Баҳорги юмишоқ буғдой навларининг ўсув даври 3; 3,5; 4 млн дона/га меъерида 1-муддат (10.02.2022), 2-муддат (20.02.2022) ва 3-муддат (01.03.2022) экиб ўрганилган. Бунда, ўсимликларнинг экиши муддатларининг кечикиб бориши ўсув даврининг қисқа бўлиши баён этилган.

**Калит сўзлар:** Баҳорги юмишоқ буғдой, иқлим, тупроқ, уруғ, меъёр, муддат, ҳарорат, ўсув даври, тўлиқ пишиши.

### **ABSTRACT.**

*This article describes the influence of sowing rates and terms on the growth and development of spring soft wheat varieties in the conditions of saline light gray soils of the Guzor district of the Kashkadarya region.*

*The period of growth of spring wheat varieties was studied when planting at a rate of 3.;3.5.;4 million pcs/ha in the period (10.02.2022) in the second period (20.02.2022) and in the third period (01.03.2022) In this case it is indicated that the growing season is shortened due to the delay in the planting period.*

**Key words:** Spring soft wheat, climate, soil, seed, rate, duration, temperature, growing season, full maturity.

## КИРИШ

**Мавзунинг долзарблиги.** Бугунги кунда «Дунё бўйича 340 млн гектар майдонга бошоқли дон экинлари етиширилади, шундан 57,8 млн.га ёки 17 фоизини баҳорги юмшоқ буғдой ташкил этади. Жаҳон бозорида ҳар йили 90-100 млн. тоннадан зиёдроқ буғдой дони чет-мамлакатларга экспорт қилинса, шундан 10-15 % баҳорги буғдой дони ҳиссасига тўғри келади»<sup>11</sup>.

Шу сабабли, ҳар бир минтақаларнинг тупроқ-икълим шароитларидан келиб чиқиб, баҳорги буғдойни турли хил муддатларда ва меъёрларда экиш, етиширишда қисқа даврда ҳосил берадиган навларни танлаш орқали унинг ҳосилдорлиги ҳамда сифатига таъсирини аниқлаш давомида иқтисодий жиҳатдан самарали бўлган агротадбирларни ишлаб чиқиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Дунё ғаллачилик соҳасида баҳорги буғдойни етишириш бўйича АҚШ, Хитой, Россия, Мексика, Италия, Франция, каби давлатлар етакчилик қилиб, асосан баҳорги буғдойнинг интенсив типдаги эртапишар навларини екиб етишириш бўйича бир қатор устувор йўналишларда илмий ишлар олиб борилмоқда. Бу борада, ҳар бир минтақаларнинг тупроқ-икълим шароитларидан келиб чиқиб, баҳорги буғдойни етиширишда қисқа даврда ҳосил берадиган навларни танлаш ҳамда уларнинг иқтисодий жиҳатдан самарали бўлган агротадбирларни ишлаб чиқишига қаратилган тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Республикамиз қишлоқ хўжалиги тизими бугунги кунда тубдан янгиланмоқда. Қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш, таркибий ўзгартиришларни чукурлаштириш, ишлаб чиқаришни муттасил ривожлантириш, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, экологик тоза маҳсулот ишлаб чиқаришни кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шунингдек, республикамизда чорвачиликни жадал ривожлантиришда озуқабоп экин майдонларини ташкил қилишда тариқ экини етишириш агротехникасини такомиллаштириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Мазкур диссертатсия иши Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 февралдаги «Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5742 сонли фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 сентябрдаги 806-сон «Бошоқли дон етиширишдаги кластер тизимини босқичма-босқич

<sup>11</sup> <https://hozir.org/jahon-qishloq-xo`jaligiga-umumiy-tarif.html?page=2hozir.org>

жорий этиш орқали юқори ҳосилдорликни таъминлашга доир қўшимча чоратадбирлар тўғрисида» қарорига доирасида бажарилади.

Республикамизнинг жанубий Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари сугориладиган ерларида баҳорги юмшоқ буғдой навларидан юқори ва сифатли дон ҳосилини етиштиришга доир илмий тадқиқотлар бугунги кунга қадар етарлича олиб борилмаган.<sup>12</sup>

## АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТАДАЛОГИЯ

Кўпгина ҳолларда тадқиқот ишларни ривожланган давлатлар тажрибасига таянган ҳолда ёки XX аср тадқиқотларига асосланиб амалга оширилади. Аммо, ўзимизнинг аждодларимизнинг олиб борган билиб ва кўникмаларидан жуда кам ҳолатда фойдаланилади. Бизнинг яшаб истиқомат қиласидан заминимизда азал – азалдан дехқончилик қилиниб, бой тажрибага эгадир. Жумладан, Географ олим Истахрий таъкидлашича, VII асрда Қашқадарёнинг ўнг томонидаги Еркўрғон ва Шуллуктепа (Хозирги Қарши шаҳри) шаҳристони атрофида асосан лалми дехқончиликка ихтисослашган серунум ерлар ҳисобланиб турли хил донли ва бошқа экиб етиштирилганлиги таърифланган [6].

Мовароуннаҳрда ўрта асрларда табиий оғатлар бўлган йиллари донли экинларни кеч муддатларда етиштириш маданияти ривожланган бўлиб, қисқа муддатда дон етиштириш бўйича ўзига хос агротадбирлар ишлаб чиқилиб, аҳолини нон ва нон маҳсулотларга бўлган талаби қондирилган [8].

Юқоридаги маълумотларга таянган ҳолатда, шуни таъкидлаш жоизки, бизнинг тупроқ-иқлим шароитларимизда баҳорги муддатларда дон етиштириш мумкин. Шу боис, республикамизнинг жанубий минтақаси Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлар шароитида баҳорги юмшоқ буғдойнинг «Наврўз», «Парвоз» ва «Жануб гавҳари» каби янги навларини турли хил муддат ва меъёрларда экиб ўрганиш мақсад қилиб олинди.

**Тадқиқот услублари.** Тадқиқот иши Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти марқазий тажриба участкасида олиб борилди. Тадқиқотларда баҳорги буғдойнинг «Наврўз», «Парвоз» ва «Жануб гавҳари» каби янги навлари 10 феврал, 20 феврал ва 1 март саналарида 3,0 млн.дона, 3,5 млн.дона ва 4,0 млн.дона унувчан уруғ ҳисобида экилди.

Фенологик кузатиш, ҳисоб ва таҳлиллар Умумиттифоқ Ўсимлиқшунослик институти услуби ва дала тажрибаларни ўтказиш услублар бўйича олиб борилди.

Барча фенологик кузатувлар тажрибанинг I-III такрорланишларнинг барча вариантларида  $1\text{ m}^2$  ҳажмда белгиланган 3 нуқтада олиб борилди. Баҳорги буғдойда фенологик кузатувларни олиб борилди [4.; 5;].

Р.О.Орипов Н.Х Халилов “Ўсимлиқшунослик” \\ Тошкент 2006й<sup>12</sup>

## НАТИЖА


Ғузор метеостанция маълумотларига кўра, тадқиқот олиб борилган 2022 йилнинг май ойида эса,  $+25,9^{\circ}\text{C}$ , июнь ойида ҳаво ҳарорати ўртача  $+34,7^{\circ}\text{C}$  ни ташкил этиши кузатилди (1-расм).



1-расм. 2022 йилда ўртача ҳаво ҳарорати,  $^{\circ}\text{C}$ .

Баҳорда экилган майдонларда буғдойнинг пишиб этилиши ўртача 25 июнга тўғри келиб, 18 июндан 5 يولгача ўзгариб туради. Баҳорда экилган буғдой кузда экилган буғдойга нисбатан 5-7 кун кейин пишиб етилади. Баҳорда экилган буғдойнинг ўртача 98 кун бўлиб, 62-125 кунга ўзгариб туради. Баҳорда экилган буғдойларда баъзи фазаларининг ўтиши кун ҳисобида катта фарқ кўзга ташланмайди. Бироқ, охирига томон фазаларнинг кечикиши ортиб боришидек умумий қонуният сақланади [3.; 7;].

Тадқиқот натижаларида 10 февралда экилган баҳорги юмшоқ буғдойнинг Парвоз, Наврӯз ва Жануб гавҳари навлари вегетация даври 114-115 кунни ташкил этиб, экиш меъёрлари ҳамда навлар бўйича кескин фарқ қузатилмади. Навларнинг тўлиқ пишиш санаси 14-16 июнь санасида қайд қилинди (2-расм).



## 2-расм. Баҳорги юмшоқ буғдой навлари вегетация даврининг экиш меъёр ва муддатлари таъсирида ўзгариши

Навларни экиш муддати 10 кун кечиктирилган (20 февраль) да экилганда эса, тўлиқ пишиш санаси 17-19 июнь кунлари қузатилди. Баҳорги юмшоқ буғдойнинг Парвоз, Наврӯз ва Жануб гавҳари навлари вегетация даври 108-109 кунни ташкил этиб, экиш муддати кечикиши билан навларнинг вегетация даври 6 кунга қисқариши аниқланди. Ушбу муддатда ҳам экиш меъёрлари ҳамда навлар бўйича кескин фарқ қузатилмади. Баҳорги юмшоқ буғдой навлари уруғлари 1 март санасида экилганда эса, вегетация даври 102-103 кунни ташкил этиб, экиш меъёрлари ҳамда навлар бўйича кескин фарқ қузатилмади. Навларнинг тўлиқ пишиш санаси 18-20 июнь санасида қайд қилинди.

### ХУЛОСА

Қашқадарё вилояти оч тусли бўз тупроқлари шароитида баҳорги юмшоқ буғдой навларининг тўлиқ пишиш санаси (вегетация даври) нинг қисқаришига ҳаво ҳарорати ўз таъсирини кўрсатади. Навларни 1 март санасида экилганда вегетация даври эрта (10 февраль) муддатга нисбатан 12 кун, ўрта (20 февраль) муддатга нисбатан 6 кун қисқариши аниқланди.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги ПФ-5742-сон «Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиши чора тадбирлари тўғрисидаги фармонида» ги фармони. [Lex.uz](#)
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 сентябрдаги 806-сон «Бошоқли дон етишишидаги кластер тизимини босқичма-босқич жорий этиши орқали юқори ҳосилдорликни таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори [Lex.uz](#)
3. Бўриев. Я. (2015). Қарши чўли шароитида қишлоқ хўжалик экинларини етишишии агромиллари. Насаф.
4. ЎзПИТИ. (2007). Дала тажрибаларни олиб бориши услублари. «ALBIT» МЧЖ.
5. Доспехов Б.А. (1985) Методы полевого опыта. Агропромиздат.
6. Марсель Брион. (2021). Менким, соҳибқирон – Жаҳонгир Амир Темур. Тошкент «Янги аср авлоди».
7. Орипов Р.О., Халилов Н.Х. (2006). Ўсимликиунослик. Тошкент.
8. Ртвеладзе Э., Сулаймонов Р., Буряков Ю., Саъдуллаев А., Мавлонов Ў., Хасанов А., Юсупова М., Ражабов Қ., Гюль Э., Сайдов А., Эркаев А., Жўрақулов О., Қодиров М., Жумаев А., Омельченко А., Уватов У., Ражабова Н. (2010). Қарши 2700. Маънавият.

## МАТН КОМПОНЕНТЛАРИНИНГ МУРАККАБ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР БИЛАН ИФОДАЛАНИШИ

**3. Напасова**  
(Самдчти магистранти)

### **АННОТАЦИЯ**

Уибу мақолада немис тилида матн компонентларининг мураккаб синтактик қурилмалар билан ифодаланиши, лексик-грамматик воситалар ҳамда грамматик категориялар ҳақида сўз боради.

**Калим сўзлар:** синтактик қурилма, ега, кесим, тўлдирувчи, аниқловчи, ҳол, абзац, сўз, сўз бирюкмаси, қўйшига гап.

### **ABSTRACT**

*This article discusses the definition of the representation of text components in German by complex syntactic devices, lexical-grammatical tools and grammatical categories.*

**Keywords:** subject, predicate, object, attributive, determiner, word, sentence, phrase.

Матнлар устида олиб борилган илмий изланишларни ўрганиш ва уларни таҳлил қилиш шуни қўрсатадики, гапнинг иккинчи даражали бўлаклари: аниқловчи, тўлдирувчи, ҳол ҳам иловали элементлар сифатида қўлланиши мумкин. Улар матн доирасида турли лексик-грамматик воситалар ёрдамида боғланиб келади. Иловали элементларни бошқа бўлаклардан фарқ қилдирувчи хусусиятлар мавжуд бўлиб, улар қўйидагилардан иборат: улар синтактик табиатига қўра ўзига хос оҳангга, мустақил маънога, тўхтамга, мантиқий урғуга эга бўлиб, маълум бўлаклардан тегишли тиниш белгилари ёрдамида ажратилади. Бундай воситалар-вергул, нуктали вергул, тире, икки нукта ҳисобланади. Шунингдек иловали элементлар худди маълум бўлаклардек эга, кесим, тўлдирувчи. аниқловчи, ҳол шаклида ифодаланиб, уларга нисбатан синтактик, семантик, стилистик ва коммуникатив функцияларни бажариб келади.

Матн ва унинг лингвистик моҳияти, матн билан боғлиқ бўлган муаммолар ҳозирги замон рус тилшунослигида, ўзбек тилшунослигида, герман тилшунослигида маълум даражада ўрганилган ва бу соҳада қўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилган. Ушбу йуналишда рус тилшуноси И.Р. Гальперин, немис тилшуноси Р. Ҳарвег, К. Е. Хайдольф, герман тилшунослигида

тадқиқот олиб борган А.И. Домашнев, В.Г. Адмони, Н Е.А. Реферовская ва бошқаларнинг ишлари эътиборга лойиқдир.

Матн мақомида нафақат мустақил гаплар мажмуаси, балки гапдан катта бирликлар ҳам келади. Улар жумласига биз анъанавий тилшуносликда қўшма гап номи билан аталган синтактик қурилмаларни киритамиз. Айтиш лозимки, «қўшма гап» тушунчаси орқали биз тил унсурларининг поғонали муносабатига катта путур етказган буламиз. Тил унсурларининг поғонали (иерархик) муносабати кичик тил бирликларининг катта бирлик сатҳида қўлланилишини тақозо этади. Масалан, фонема морфема ёки сўз сатҳида, морфема сўз сатҳида, сўз гап сатҳида синтактик фаоллик олади. Бирор бирлик йўқки, у ўз категориясига тегишли бирлик доирасида синтактик фаолликка эриша олса. Шундай бўлгач, гап ҳам гап сатҳида синтактик фаоллик ололмайди. Унинг фаоллик олиши учун ўзидан катта бирликка зарурат туғилади. Шунинг учун «қўшма гап» термини, бизнингча, талабга жавоб бера олмайди. У бир неча гапни битта гап деб атагани учун ҳам турли англашилмовчиликларга сабаб бўлмоқда.

Икки ва ундан ортиқ содда гапларнинг ўзаро бирикувидан матн вужудга келиши шубҳасиздир. Шунинг учун «қўшма гап» термини ўрнига «мураккаб синтактик қурилма» терминидан фойдаланиш ҳар томонлама мақсадга мувофиқдир.

Мураккаб синтактик қурилма компонентлари ўзаро икки хил боғланади. Уларнинг бирини тент боғланиш деб, иккинчисини эса эргаш боғланиш деб номлаймиз. Шунта биноан мураккаб синтактик қурилмаларни ҳам фарқлаб ўрганамиз:

1. Es war April ... Das Wetter war schön und sonnig. Die Mutter erlaubte ihrer Tochter spazierenzugehen ... Sie war im Dorf, in dem ihre Großeltern lebten.

2. Plötzlich schlug das Wetter um, es bewölkte sich. Es begann zu regnen. Sie standen vor dem Haus, wo viele Menschen waren.

Келтирилган мисолларнинг биринчисида компонентлари тент боғланишли, иккинчисида эса компонентлари муносабатлари эргаш ботланишга асосланган мураккаб синтактик қурилмаларни кўрамиз.

Матн компонентлари вазифасида абзац ҳам келади. Абзац, албатта, том маънода матн саналади. Бу ҳақда айтилган Е.А. Реферовскаянинг мулоҳазалари ҳам диққатга сазовордир: «Абзац ҳар доим ҳам фикр тугаллигини ифодалайвермайди, чунки кўп пайтларда фикр тугаллиги бир неча абзац сатҳида берилади» (Реферовская, 84). Бу жиҳатдан уни стилистик воқелик тарзида талқин этиш мумкин:

Wenn keiner Maßnahmen ergriffen werden, wird der Aralsee in den nächsten 20-25 Jahren versüden sein. Selbst wenn die Maßnahmen teilweise Erfolge haben, wird es schwierig die Situation zu retten.

Unter dem Ökosystem versteht man Wechselwirkung der Organismen einer Lebensgemeinschaft untereinander und mit der ihnen gemeinsamen Umwelt, zum Beispiel Teich. Wald u.s.w.

Абзац матн таркибида, хусусан, семантик жиҳатдан мухим мавқега эгадир. Буни матнда ифодаланаётган умумий хабарнинг қисмларга бўлиб берилишида янада аниқроқ кўриш мумкин. Чунки ҳар бир абзац матннинг маълум бир мазмуний парчасини тақозо этади:

Wichtig für eine nachhaltige Entwicklung im Bereich des Naturschutzes und den Erhalt der biologischen Vielfalt ist das 1992 in Rio de Janeiro geschlossene internationale Übereinkommen, das darauf abzielt, die biologische Vielfalt nicht nur zu schützen und erhalten, sondern auch nachhaltige Weise zu nutzen.

Кўринадики, мисол сифатида берилган ҳар икки матн ҳам маъноларига кўра бир-бири билан боғланмоқда. Катта матн таркибида қўлланилар экан, абзац матннинг умумий маъноси билан қандайдир йусинда боғланган бўлади. Бундай боғланиш, юқорида стилистик усул тарзида кўриб утганимиз сингари, икки матн ўртасида кузатилмаслиги ҳам мумкин. Лекин катта матнда ифодаланган умумий маънонинг қандайдир парчаси билан ҳар бир абзац алоқадор бўлади.

Катта матн таркибида келувчи компонентлар ўз грамматик категорияларига кўра бир хил бўлмайди, албатта. Уларнинг бири сўз, иккинчиси сўз бирикмаси, учинчиси гап, тўртинчиси мураккаб синтактик қурилма, бешинчиси абзац ва хаказо категорияларда бўлиши мумкин. Аммо ана шу категориялардаги ҳар бир компонент синтактик ва семантик фаоллашуви жиҳатидан поғонали муносабатни тақозо этади. Кўйида ана шу масала тавсифига қисқача тўхтаб ўтамиз.

Матн бир сўз билан ифодаланган бўлса, унда тил бирикмаларининг поғонали муносабатини фонема, морфема ва сўзлар мисолида кузатамиз. Масалан, *natürlich* сўзи билан ифодаланган матн компонентларининг поғонали муносабатига эътибор берайлик. Бунда фонема ишлатилган бўлиб, уларнинг ҳар бири ўзларига тегишли морфема таркибида фаоллашмоқда: *na-tür-lich*.

Мазкур морфемалар эса сўзнинг таркибий қисмлари сифатида синтагматик қатор сатҳида фаоллашмоқда.

Матн сўз бирикмаси билан ифодаланган бўлганда ҳам поғонали муносабат юқорида эслатиб ўтилган морфемалар мисолида бўлади, зотан, сўз бирикмаси номинатив бирликни тақозо этади. Агар сўз бирикмасини гапнинг сатҳида ўрганадиган бўлсак, поғонали муносабат сўз бирикмаси ва гап категориялари

ўртасида вужудга келади: *Unser Schulgarten ist schön.* (*unser Schulgarten, Garten ist schön*). Бироқ бундай вазиятда сўз бирикмаси матн мақомида бўлмайди.

Матн гап билан ифодаланган бўлса, поғонали муносабат сўз ва гап доирасида вужудга келади: *Usbekistan - ein Land mit großer Zukunft.* Айни пайтда қўлланилаётган ҳар бир сўз гап таркибида синтактик ва семантик фаоллик олмоқда.

Матн компонентлари гап ёки мураккаб синтактик қурилмалар билан ифодаланганда, вазият бирмунча мураккаблашади. Бошқача айтганда, гап мураккаб синтактик қурилма ёки матн таркибида синтактик фаоллик олади. Мураккаб синтактик қурилма эса, ўз навбатида, абзац ёхуд катта матн сатҳда синтактик актуаллик олади. Абзацнинг синтактик фаоллиги ҳам, ўз навбатида, ўзидан катта боб ёки матнда таъминланади. Шунинг учун бир боб таркибида ёки бобларга бўлинмаган матн таркибида бир пайтнинг ўзида бир неча абзац синтактик фаоллик олиши мумкин.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Адмони В.Г. *Введение в синтаксис современного немецкого языка.* -М. 1955. -396 с.
2. Гальперин И.Р. О. Понятие «текст» // Вопросы языкоznания, 1974, № 6.
3. Домашнев А.И., Шишкина И.П., Гончарова Е.А., Интерпретация художественного текста. Л., 1989.
4. Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. -Л.: Наука, 1983.
5. Harweg. R *Textlinguistik.* -In Perspektiven der Linguistik Bd-2 Stuttgart, 1974
6. Heidolph K.E. *Aspekte der linguistischen Behandlung von Texten.* In: Textlinguistik 2-Dresden, 1971.

## XITOY VA TAYVANNING ZAMONAVIY IQTISODIY TERMINOLOGIYASI

**Karimova Xurshida Abdurashid qizi**

O‘zJTU xitoy tili nazariyasi va amaliyoti

kafedrasi o‘qituvchisi

[botanichkahurshika@gmail.com](mailto:botanichkahurshika@gmail.com)

*Maqolada Xitoy va Tayvan tilining iqtisodiy terminologiyasining qiyosiy tahlili berilgan. Putonghua (XXR) va Guoyu (Tayvan) o‘rtasida aniq farqlar mavjud, ular birinchi navbatda lug‘atda, xususan, iqtisodiy jihatdan aks etadi. Asosiy sabab sifatida ijtimoiy tuzum va sotsialistik Xitoy mafkurasida tarixan shakllangan tafovutlarni ko‘rsatish mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** milliy xitoy tili; putonghua; goyu; iqtisodiy lug‘at; hududiy farqlash; leksik farqlar; ijtimoiy tartib; iqtisodiy tizim.

### ECONOMIC TERMINOLOGY OF THE MODERN CHINESE LANGUAGE IN MAINLAND CHINA AND TAIWAN

*The article is devoted to economic terminology of the National Chinese language in Mainland China and Taiwan. There are obvious differences between Mandarin and Guoyu, which are primarily reflected in the vocabulary and, in particular, in the economic terms. The main reasons include historical differences in the social structure, and, as a result, in the ideology of Mainland China and Taiwan; varying degrees of openness to the outside world; significant influence that Japanese and English had on the vocabulary of Taiwanese Chinese.*

**Key words:** National Chinese language; Mandarin; Guoyu; economic terms; territorial differentiation; lexical differences; social system; economic system; loanwords; lexical interpenetrations

XX asrdan buyon zamonaviy xitoy tili lug‘atida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bergan. Xitoy va Tayvanda iyeroglf yozuvidan foydalangan holda milliy xitoy tilida gaplashishiga qaramay, "Tayvan bo‘g‘ozining ikki tomoni" ning siyosiy tizimi va ijtimoiy-madaniy sharoitlaridagi farqlar (- Xitoy materigi va Tayvan oroli) tilning hududiy farqlanishiga olib keladi, bu birinchi navbatda iqtisodiy lug‘atda namoyon bo‘ladi.

Til hech qachon mutlaq birlashgan bo‘lmaydi, chunki uning birligini shakllantirishga yordam beradigan omillar bilan bir qatorda uning turli-tumanligini

keltirib chiqaradigan omillar ham mavjud. Tilning turli xil variatsiyalari odatda ikki guruhga bo‘linadi - ularning ba’zilari hududiy dialektlar, boshqalari esa uning ijtimoiy variatsiyalari deb nomlanadi. [3].

Tayvan Xitoy Xalq Respublikasining provinsiyasi bo‘lib, tarixiy sabablarga ko‘ra (1894–1895 yillardagi Xitoy-Yaponiya urushida Xitoyning mag‘lubiyatga uchrashi natijasida) 1895-yildan 1945-yilgacha Yaponiya tarkibiga kirgan. Bu albatta mahalliy madaniyat va tilga ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Hozir Tayvanda ingliz tili va Amerika madaniyatining aralashuvi aniq kuzatilmoqda. Tilga kelsak, Tayvandagi xitoy tili Xitoy materigidagi mandarin tilidan farq qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasining milliy tili – putonghua (普通话- umum qabul qilingan so‘zlashuv tili), uni Tayvanda "goyu" deb atashadi (国语 - rasmiy til, Xitoy Respublikasida Sinxay inqilobi g‘alabasidan keyin qabul qilingan milliy xitoy tilining nomi saqlanib qolgan). Chan Kayshi boshchiligidagi Gomindan hukumati fuqarolar urushida mag‘lub bo‘lib, Xitoy materigidan Tayvanga qochib ketgunga qadar orolda xitoy tilining janubiy min dialektida (闽南语) so‘zlashishgan. Biroq, hukumat, parlament va rasmiy ma’muriyat orolga ko‘chib o‘tgandan so‘ng, Tayvanda shimoliy dialektni faol ravishda tarqata boshladи, chunki ko‘chib o‘tganlar aynan shu dialektida gapirgan. Bu ikki lahjaning muqarrar birga yashashini hisobga olib, Goyu janubiy min dialektining ayrim xususiyatlarini o‘ziga singdirgan, o‘z navbatida, Goyu ham shimoliy dialektida nimanidir o‘zlashtirgan.

### Iqtisodiy terminologiya misolida Putonghua va Guoyu o‘rtasidagi leksik farqlar

Putonghua va Guoyu o‘rtasidagi eng muhim farqlardan biri leksik farqdir. Keling, ba’zi misollar keltiraylik (1-jadvalga qarang).

Jadval №1

Leksik birlik	Xitoy materigi	Tayvan
<b>Geografik joy nomlari</b>		
Italiya	意大利	义大利
Laos	老挝	寮国
<b>Transport</b>		
Velosiped	自行车	脚踏车
Motosikl	摩托车	机车
<b>Ta’lim</b>		
Bakalavr	本科	大学部
O‘rta maktab	初中	国中
<b>Fan va texnika</b>		
Internet	网络	网路
Dasturiy ta’minot	软件	软体

Ko‘rib turganizingizdek, farqlar ma’lum bir tushunchani ifodalash uchun morfemalarni (so‘z komponentlarini) tanlashda ham, so‘z tovushini yozish uchun ierogliflarni tanlashda ham, hatto so‘z fonetik jihatdan bir xil bo‘lgan hollarda ham namoyon bo‘lgan (masalan, Italiya so‘zida).

Keling, iqtisodiy lug‘atdagi farqlarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz (2-jadvalga qarang).

Jadval №2

Iqtisodiy termin	Xitoy materigi	Tayvan
Rivojlanayotgan mamlakat	发展中国家	开发中国家
Rivojlangan mamlakatlar	发达国家	已开发国家
Makroekonomika	宏观经济学	总量经济学
Mikroekonomika	微观经济学	个体经济学
yalpi milliy mahsulot, YaIM	国民生产总值	国民生产毛额
Aholi jon boshiga o‘rtacha daromad	人均收入	个人所得

Xitoy va Tayvanning iqtisodiy lug‘atida, biz ko‘rib turganimizdek, bir xil tushunchani bildiruvchi so‘z (ibora)ning tarkibiy qismi sifatida turli morfemalarning (so‘zlarning) qo‘llanilishi mavjud. Shu bilan birga, ko‘pincha leksik birlikning tarkibiy qismlaridan biri (so‘zdagi bo‘g‘in yoki iboradagi so‘z) xitoy tilining ikkala variantida mos keladi va ikkinchi komponentlar sinonim bo‘ladi: masalan, 发展中国家 va 开发中国家 (ikkala ibora “rivojlanayotgan mamlakatlar” degan ma’noni anglatadi) so‘zlarida 发展 va 开发 fe’llari sinonim bo‘lib, “rivojlanmoq, rivojlanmoq” ma’nosini bildiradi. Endi Xitoy va Tayvan ommaviy axborot vositalaridan misol keltiramiz.

### Xitoy materigi

2019 年原油价格可能保持在 70 美元/桶 以下, 主要原因是产量过剩(其中大部分来自美国), 以及经济增长放缓削弱了欧佩克减产支撑市场的努力。

2019 yilda neft narxi bir barrel uchun 70 dollardan past bo‘lib qolishi mumkin. Asosiy sabab – neft yetkazib berishning ko‘pligi (asosan AQSh hisobiga), shuningdek, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi, bu esa Neft Eksporti mamlakatlariga bozorni saqlab qolish uchun neft qazib olishni kamaytirishni qiyinlashtiradi.

## Tayvan

由于在美中贸易战持续中、Fed 升息不确定情况下，国泰金控预测台湾明年经济成长率仅为 2.2%....。

Bunday sharoitda, Qo'shma Shtatlar va Xitoy o'rtaqidagi savdo urushi to'xtamasa va AQSh Federal zaxira tizimi foiz stavkalarini oshirsa, "Cathay Financial Holding" prognozlariga ko'ra, Tayvan iqtisodiyoti atigi 2,2 foizga o'sadi...

Xitoy materigi va Tayvandagi zamonaviy xitoylarning iqtisodiy lug'atidagi farqlar murakkab qisqartirilgan so'zlardan foydalanishda ham namoyon bo'ladi. "Xitoycha qisqartirilgan so'zlar xitoycha lug'atning alohida qismi bo'lib, ular oddiy so'z va iboralardan jumla tarkibiga bir butun bo'lib kirib, gapning turli a'zolari vazifasini bajarishi bilan farq qiladi. So'zlashuv nutqida, maxsus lug'atda, terminologiyada qo'shma so'zlar nisbatan ko'p bo'lib, bu yerda ixchamlik, tejamkorlik tamoyili amal qiladi.[2]

Zamonaviy xitoy tilining iqtisodiy lug'atining hududiy tabaqalanishi haqida gapirganda, ba'zi bir murakkab qisqartirilgan nomlar Tayvanda, iboralar esa materikda keng qo'llanilishini ta'kidlash kerak. Keling, misollar keltiramiz (3-jadvalga qarang).

Jadval №3

So'z birikmasi	Tayvan	Xitoy materigi
tashqi savdo taqchilligi	外赤	外贸赤字
sanoat ishlab chiqarish	产值	生产制造

So'z boyligidagi (xususan, iqtisodiy) tafovutlarga sabab bo'lgan sabablarga o'tishdan oldin, men "ikki qirg'oq"ning iqtisodiy hayotidagi umumiylilikni ta'kidlamoqchiman:

1) Tayvan iqtisodiyotini liberallashtirish va iqtisodiyotdagi iqtisodiy islohotlar. XXR birinchi navbatda bozorning iqtisodiyotdagi yetakchi roliga asoslandi, xususiy korxonalarini yaratish va rivojlantirish rag'batlantirildi;

2) 20-asrning 50-70yillarda Xitoy va Tayvandagi xususiy banklar o'rtaida bank operatsiyalarini amalga oshirish mumkin emas edi. Moliyaviy institutlar erkin faoliyat yurita olgachgina vaziyat o'zgardi;

3) Ko'pgina G'arb davlatlaridan farqli o'laroq, Xitoy va Tayvanning davlat organlari iqtisodiy rivojlanish vektorini aniqladilar. Xitoyda bu, birinchi navbatda, 1980-yillarning boshlarigacha bo'lganligi bilan bog'liq edi. rejali iqtisodiy tizim mavjud edi. Biroq, bugungi kunda ham XXR ham, Tayvan ham iqtisodiy rivojlanishda ma'lum rejadan foydalanadilar: materikda Taraqqiyot va islohotlar davlat qo'mitasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning 5 yillik rejani ishlab chiqdi, Tayvanda, Iqtisodiyotni rejorashtirish va rivojlantirish kengashi - 6 yillik rejani ishlab chiqdi.

## Xulosa

Agar Xitoy materigi va Tayvan xalqlarining xitoy tilining lug‘atidagi farqlarning eng keng tarqalgan sabablarini tahlil qilsak, quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1) Ijtimoiy tuzumdagagi farqlar va natijada mafkuradagi farqlar. Tayvanga kelsak, ijtimoiy tizim hech qanday sifat o‘zgarishlariga uchramagan, ijtimoiy faoliyatning ko‘p sohalarida eski tushunchalar saqlanib qolgan va meros bo‘lib qolgan, shuning uchun ham aytishimiz mumkinki, til o‘zining “avvalgi ko‘rinishini” ma’lum darajada saqlab qolgan, xususan, 1949-yildan keyin (XXR tashkil topgan yil) Goyu lug‘ati ham jiddiy o‘zgarishlarga uchramagan.

Xitoyda 1949 yildan keyin ijtimoiy tizim sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi, siyosiy islohotlar qayta-qayta amalga oshirildi, bu jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, mafkura, urf-odatlar va, albatta, tilga muqarrar ravishda ta’sir qildi. Shunday qilib, birinchidan, qadimgi lug‘atning ko‘p qismi Xitoyning Putonghua tilidan chiqib ketgan (ammo u goyuda saqlanib qolgan), ikkinchidan, sotsializm yoki materik Xitoyda sodir bo‘layotgan tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq aniq tushunchalarni aks ettiruvchi lug‘at paydo bo‘ldi, masalan: 改革开放 - islohot va ochiqlik siyosati; 社会主义市场经济 - sotsialistik bozor iqtisodiyoti va boshqalar. Tayvanda bunday lug‘atning paydo bo‘lishi uchun hech qanday ijtimoiy-siyosiy shartlar yo‘q edi;

2) Tashqi dunyo bilan ochiqlik va aloqalar darajasidagi farqlar. Tayvan uzoq vaqt davomida Yaponiyaning protektorati ostida edi, shuning uchun yapon tilidan ko‘proq qarzlar tilga kirib bordi. 1949 yildan beri Tayvan Qo‘shma Shtatlar ta’sirida bo‘lib, u jamoat hayotining barcha sohalariga tarqaldi va lug‘at ingliz tilidan olingan qarzlar bilan sezilarli darajada to‘ldirildi. Yangi tushunchalar uchun qarz olishning fonetik usuli ko‘pincha ishlatalgan, kamroq - semantik.

Xitoyning xalq tiliga kelsak, shuni ta’kidlash kerakki, ingliz va yapon tillari Guoyu tilidagi kabi mandarin tiliga unchalik sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan, shuning uchun materikdagi «qarzni» ifodalovchi so‘zlar soni Tayvanga qaraganda ancha kam. 40 yil muqaddam islohot siyosati boshlanganidan beri XXRdagi vaziyat o‘zgardi, boshqa davlatlar bilan aloqalar mustahkamlanmoqda, Xitoy o‘zining tashqi dunyoga ochiqligini ataylab kengaytirmoqda va buning natijasida ko‘proq o‘zlashtirilgan lug‘at paydo bo‘ldi, ayniqsa o‘zlashtirilgan so‘zlarning Putonghua tiliga (asosan ingliz tilidan) faol kirib borishi XX asrning 80-90-yillarida sodir bo‘lgan.

Hozirgi vaqtida Xitoy va tayvanliklarning lug‘atidagi farq 500 leksik birlikdan oshadi (alohida so‘zlar va morfemalarning talaffuzidagi farqni hisobga olmagan holda), ammo shuni ta’kidlash kerakki, islohotlar siyosati chuqurlashtirilgandan keyin va materik Xitoy va Tayvan o‘rtasidagi aloqalarning ochilishi va mustahkamlanishi natijasida lug‘atning o‘zaro kirib borishi jarayoni boshlandi va leksik farqlar asta-sekin

yo‘q qilindi. [5] 越洋电话- xalqaro telefon qo‘ng‘irog‘i, 雷射-lazer, 比基尼- bikini va h.k. so‘zlar Xitoy materigiga Tayvandan kelgan.

Vaqt o‘tishi bilan putongxua va goyuning aralashishi tobora aniq bo‘lib, "ikki qirg‘oq" ning yakuniy birlashmasidan keyin leksika ham ma’lum darajada birlashadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Никулин В. Е., Хоречко У. В. Разница между китайским «путунхуа» и языком на Тайване // Молодой ученый. 2015. № 10 (90). С. 1499–1501.
2. Семенас А. Л. Лексика китайского языка. М. : ACT : Восток-Запад, 2005. 310 с.
3. Серебренников Б. А. Территориальная и социальная дифференциация языка // Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. М., 1970. С. 451–501.
4. Онлайн-словарь различий в лексике материкового Китая и Тайваня *O 咬□口璧 瓢 藝 □使 瓢□*. URL : [m.ishare.iask.sina.com.cn/f/15642111.html](http://m.ishare.iask.sina.com.cn/f/15642111.html) (дата обращения: 16.01.2019).
5. Онлайн-энциклопедия Байкэ. Статья *飮 腸 份 □□□□ 藝 庫* / . URL : [www.baike.com/wiki/%E6%B5%B7%E5%B3%A1%E4%B8%A4%E5%B2%B8%E7%94%A8%E8%AF%AD%E5%AF%B9%E7%85%A7%E8%A1%A8](http://www.baike.com/wiki/%E6%B5%B7%E5%B3%A1%E4%B8%A4%E5%B2%B8%E7%94%A8%E8%AF%AD%E5%AF%B9%E7%85%A7%E8%A1%A8) (дата обращения: 10.01.2019).

## OILA TARBIYASINI TASHKIL ETISHDA OTA-ONANING ASOSIY VAZIFALARI

Usanov Sh.A.

(Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

[sh.usanov2021@gmail.com](mailto:sh.usanov2021@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada oila tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarning asosiy vazifalari ilmiy pedagogik jihatdan asoslanib, ota-onalarning tarbiyachilik malakalarini takomillashtirishga oid tavsiyalar berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** oila, ota-onsa, bola, vazifa, ijtimoiy rivojlantirish, mas’uliyat, bilim, madaniyat, tarbiya, takomillashtirish.

### АННОТАЦИЯ

*В статье обоснованы основные задачи родителей в организации семейного воспитания на основе научно-педагогических аспектов, а также даны рекомендации по повышению воспитательного мастерства родителей.*

**Ключевые слова:** семья, родители, ребенок, задача, социальное развитие, ответственность, знания, культура, воспитание, совершенствование.

### ABSTRACT

*In the article, the main tasks of parents in the organization of family education are based on scientific and pedagogic aspects, and recommendations are given to improve the educational skills of parents.*

**Key words:** family, parents, child, task, social development, responsibility, knowledge, culture, education, improvement.

«Faqt baxtli odamgina, baxtli insonni tarbiyalay oladi: nima qilsangiz ham baxtli bo‘ling, aks holda bolalarni tarbiyalay olmaysiz», -deganda A.S. Makarenko haq bo‘lgan.

Yosh avlodning barkamol bo‘lib tarbiyalanishi ota-onalarning asosiy vazifalari bilan amalga oshirilishi barchaga ma’lum. Aksincha ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi bilimsizligi, ma’lumoti kamligi, yetarli emasligi oilaga, jamiyatga, asosan bolalarga baxtsizlik, qiyinchiliklar va zahmat keltirishi hammaga ayon. Oila

tarbiyasida ota-onalarning bola tarbiyasi borasidagi harakati, yuqoridagi muammolarni, nuqsonni bartaraf etishda hal qiluvchi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kaykovus «Qobusnama» asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi qator vazifalarini sanab ko'rsatgan:

1. Bolaga yaxshi ot qo'ymoq;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. O'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmli qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish»[3.85] kerak deb bildirgan fikri bag'oyat hayotiyligini ijtimoiy hayotning o'zi isbotlab turibdi.

Ammo ba'zi ota-onalar o'z farzandlariga ma'yordan ortiq g'amho'rlik qilishlari maqsadga muvofiq emas deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 73-moddasi Ota-onalarning bolalariga ta'lif-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlarida «Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart»[2.192], -deb belgilab qo'yilgan. Ana shu g'oyalar oila tarbiyasi mazmunini va ota-onaning vazifalarini belgilashga asos, negiz bo'ladi.

Albatta bunday barkamol farzandni tarbiyalash oilada ota-onalar zimmasiga yuklatilgan. Buning uchun avvalo ota-onalar oila tarbiyasining mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifasi, shakli va metodlari to'g'risida atroflicha keng ma'lumotga ega bo'lishi shart.

Oilada ota-onalar bolalar tarbiyasini o'zlarining uzoq kelajagini o'ylab tashkil etishlari darkor. Shu o'rinda «Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang, sholi ek, o'n yilga ta'minlamoqchi bo'lsang daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang odam tarbiyala», -deb aytilgan qadimgi sharq xalqlar maqolalaridan birini eslash kifoya. Yoki ota-onalarga xalqning «Har kim ekkanini o'rар», hikmatini eslatish o'rinli.

Agar ota-onalar oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini aniq, ravshan tasavvur eta olmasalar, bolalar tarbiyasi noaniq, taxminiy, maqsadsiz olib boriladigan hamda natijalari esa shunga yarasha kechadi. Har bir ota-ona o'z farzandlarining kamolini ko'rishni, hayotda baxt-saodatga erishuvini va keksayganda farzandlari oldida piru badavlat, izzat-hurmatli, ardoqli ota-ona bo'lishini hohlaydi va shunga harakat qiladi. Ardoqli ota-ona bo'lish uchun esa oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini nimalardan iboratligi to'g'risida ilmiy ma'lumotga ega bo'lishni kundalik hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Shu o'rinda ota-onalar oila tarbiyasining maqsal va vazifalarini nafaqat bilish emas, balki hozir o'z farzandlari ongiga zaruriy fazilatlarni o'z vaqtida, o'rnida

singdirmas ekan, keksaligida farzandlar oldida izzat-hurmatga sazovor, ardoqli ota-onabola olmasligini eslatish joiz.

Shuning uchun qomusimizda belgilangan ota-onalik ma'suliyati ularning maxsus pedagogik bilimlarga, ko'nikmalarga va pedagogik madaniyatini tarkib toptirishni ob'ektiv hayot talab qilmoqda.

Haqiqatdan ham oilada bolalarni oilaga, ona-Vatanga sodiq va sadoqatli etib tarbiyalash uchun birinchi navbatda ota-onalarning umumiy hamda pedagogik madaniyatlarini oshirish-hozirgi oila tarbiyasining dolzarb muammosidir.

Mazkur tezisdagi ilmiy pedagogik jihatdan asoslanayotgan va tavsiya etilayotgan xulosalar oilada ota-onalarning bola tarbiyasi haqidagi ma'lumotlarining hamda pedagogik madaniyatlarining ortishiga va mustahkamlanishiga bevosita amaliy yordam beradi degan fikrdamiz.

Bizningcha, ota-onalar oila tarbiyasining quyidagi yo'nalishdagi eng asosiy vazifalarini bilishlari zarur va bolalar tarbiyasida tadbiq etishlari darkor:

- farzandlarni oilani boshqarish to'g'risida ma'lumot, ko'nikma, mahoratga ega bo'lmosg'i va ularning ma'naviy-axloqiy saviyasini tarkib toptirmog'i;

- farzandlarini oila va ijtimoiy hayotda faol fidoiy hamda mustaqil bo'lib yashashga o'r ganmog'i, odatlantirmog'i;

- farzandlarga aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy, iqtisodiy, siyosiy huquqiy, ekologik jihatdan ta'lim-tarbiya berish va ularni hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma, odat hamda xulq-atvorni tarkib topdirishi;

- farzandlar hayotini rejim asosida tashkil etishi, o'qish, mehnat faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratishi va oilaning ichki tartibini joriy etishi hamda nazorat qilishi;

- farzandlarga o'quv muassasalari, mehnat jamoalari, mahalla, davlat organlari tomonidan qo'yilgan umumiy talablarning bajarilishini ta'minlashi va ular bilan hamkorlikda ishlashi;

- farzandlarga o'z shaxsiy manfaatlarini oila, davlat va umumjamiyat talablariga moslashtirishi, uyg'unlashtirishi hamda ulardan ustun qo'ymaslikka odatlantirishi;

- farzandlar orasida spirtli ichimliklar, giyohvandlik moddalarni iste'mol qilmaslik haqida targ'ibot ishlarni olib borishi va shu sohadagi faoliyatlarini man etish, uzluksiz nazorat qilishi;

- farzandlarga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, oila, o'quv ishlab chiqarish va ijtimoiy foydali hamda kasb-korlik mehnatini tashkil etilmog'i, o'rgatmog'i hamda mehnat ahlini hurmatlash va qadrlashga amaliy tayyorlashi;

- o'zini va o'zgalarni: fuqarolarni, keksalarni, xotin-qizlarni, nogironlarni, bolalarni, ota-onalarni, opa-singilni, aka-ukalarni, qavmi qarindoshlarni qadrlash, izzatlash-hurmatlash va ularga yordam ko'rsatishga odatlantirishi;

-farzandlarning iste'dod-qobiliyatini hisobga olib kasb tanlashga yo'llashi, tashabbusini boshqarishi, hamda yangicha fikrlashga, ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka o'rgatib, tayyorlab borishi;

-farzandlarda tabiatga, o'simliklarga, jonivorlarga, tarixiy yodgorliklarga, adabiyotga, san'atga, mehr-muhabbatni tarbiyalashi;

-farzandlarni hayotda yaxshi ezgu niyat qilishga, hayotdan umidvor bo'lib halol yashashga o'rgatish;

-adolatsizlikka, nohaqlikka, ko'zbo'yamachilikka, poraxo'rlikka qarshi kurashni, halollikni,adolatni himoya qilish kabi ko'nikmalar va odatlarni tarkib toptirishi;

-farzandlarni jamoatchilikda o'zini tuta bilish, boshqarish, jamoat transportida yurishga o'rgatishi, jamoa tadbirlarida faol va fidoiy bo'lish, qo'shni oilalar, mahallalar bilan tinch-totuv yashashga odatlantirishi;

-farzandlarga diniy ta'lim-tarbiya berishi, milliy kiyinishga o'rgatishi;

-farzandlarni qonunlarga rioya qilishga, hurmat qilishga va uning amalda bajarilishini ta'minlashga odatlantirishi;

-farzandlarga xalqning tarixi, tili madaniyati, ma'naviyati, mafkurasi, fani, san'ati, dini, ichki va tashqi siyosati, mudofaa qudrati kabilar haqida ma'lumot berib borishi;

-farzandlarining yosh va individual xususiyatlarini bilishi hamda ularga kuchli ta'sir krsatishning xilma-xil metodlari, uslublari va vositalarni bilishlari;

-farzandlarda mehnat ko'nikmalari, mehnatsevarlik, mehnat qilish xohishini, oilaviy va ijtimoiy mehnat faoliyatga amaliy tayyorlashi, odatlantirishi va hok.

Bugungi jamiyatimiz ta'limning bosh maqsadi o'quvch-yoshlarni jamiyat, davlat va oila oldida o'zining ma'suliyatini chuqur anglaydiga, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o'qitib tarbiyalashdan iborat.

Shuningdek, Abdurauf Fitrat «Oila va oila boshqarish tartiblari» asarida: «Uylanishning birinchi maqsadi farzanddir. Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki, biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagи bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onadan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo'lishlari eng yaxshi fazilatdir»[1.112], -deb bildirgan fikri diqqatga sazovor va bola tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib, ota-onalarga oila tarbiyasining vazifalari haqida ma'lumot berish, pedagogik madaniyatni oshirish, oilada farzandlarni oilaparvar, millatparvar, vatanparvar, ijtimoiy faol, ma'naviy boy barkamol insonni shakllantirishning, oilani mustahkamlashning hamda jamiyatni ijtimoiy rivjlantirishning zarur sharti bo'lmog'i darkor.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Abdurauf Fitrat. *Oila va oila boshqarish tartiblari*. - Toshkent: «Ma'naviyat», 1998. -112 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oilanodeksi: (2012 yil 1-maygacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) - Toshkent: «Adolat», 2012 y. -192 b.
3. Kaykovus. *Qobusnoma*. - Toshkent: «Istiqlol», 1994. -85 b.

## OILADA BOLALARNI TO‘G‘RI TARBIYALASHNING ASOSIY SHARTLARI VA MUAMMOLARI

**Yo‘ldoshev Tojiddin Abdukarimovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

[tojiddinyuldashev1@gmail.com](mailto:tojiddinyuldashev1@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*“O‘zbek oilasi” tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi barcha millat, elat va elat vakillarining oilalari kiritilib, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va moddiy ahvoli jihatidan barcha oilalar e’tiborga olinadi. oilani muhofaza qilish bo‘yicha davlat siyosati. teng huquqlarga ega. Ularning barchasiga o‘z tili va madaniyatini rivojlantirish, o‘z milliy an’ana va qadriyatlarini kelajak avlodga yetkazish uchun huquqiy kafolatlar berish davlat siyosatining maqsadlaridan biridir. Ushbu maqolada er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarda ijobiy fazilatlarning rivojlanishi va oilada yuzaga keladigan muammolar tasvirlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Oila, huquqiy kafolat, sevgi, shaxsiy hayot, er va xotin munosabatlari, oilaviy muammolar, kelinlik burchi, hayot.*

### **ABSTRACT**

*Families of all nationalities, peoples and peoples living in the territory of the Republic of Uzbekistan are included in the concept of "Uzbek family" and all families in terms of race, nationality, religion, social origin and material condition are considered in front of the state policy on family protection. have equal rights. One of the goals of the state policy is to provide legal guarantees for all of them to develop their own language and culture, to pass on their national traditions and values to the next generation. This article describes the development of positive qualities in the relationship between husband and wife and the problems that arise in the family.*

**Keywords:** *Family, legal guarantee, love, personal life, husband and wife relationship, family problems, bride’s duty, life.*

“Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanligini tan olmog‘imiz darkor”-deb ta’kidlagan edilar Birinchi

Prezidentimiz I.A.Karimov 1997-yil “Oila faravonligi - millat faravonligi” nomli ma’ruzalarida<sup>13</sup>.

Bola sog‘lom muhitda katta bo‘lishi va kamol topishi tarbiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom muhit bola uchun kislorod kabitdir. Bola sog‘lom muhitda nafas olmasa, sog‘lom muhitli oilada voyaga yetmasa uning kelajagiga rahna soluvchi omillar ko‘payib boradi. Bu holat yillar davomida jamiyat rivojiga ham o‘zining salbiy ta’sirni ko‘rsatadi. Inson bolasi ongли mavjudotdir. Tarbiyalı inson esa ongли mavjudotning oliy ko‘rinishidir.

Inson bolasi uchun oila asosiy go‘sha, hayotga tayyor bo‘lib chiqadigan qutlug‘va mo‘tabar dargoh. Uning xosiyat u fazilatlarini, odam jismonan va ruhan quvvat-u tarbiya olishini oila bilan bog‘lasak, turmush kechirishdagi hissasi g‘oyat ulug‘ekanini his etamiz. Bizda oila – jamiyatning bir bo‘lagi, binobarin, u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo‘lar ekan, demak, jamiyat ham shuncha tez rivojlanadi.

Inson bolasining ruhiyatida shunday bir xislat borki, u oilada olganlarini bir umr unutmaydi va har qachon o‘shanga taqlid qilib yashaydi. Shuning uchun xalqda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bor. Shunday ekan, bolaga juda katta e’tibor kerak.

Ma’lumki, millatimiz bolajon bo‘lib, ko‘p bolalik har bir o‘zbek oilasining alohida belgisidir. Bizda ko‘p bolali oilalar soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ziyod, jami oilalarning o‘n ikki foizdan ko‘prog‘i besh va undan ortiq bolilidir. Qishloq joylarida esa bu yigirma foizni tashkil etadi. Bizning mamlakatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatları shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasining asosiy Qonunida davlatning oilaga munosabatini aniq va lo‘nda ifodasini topgan. Xususan, Asosiy Qonunning 63- moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidan bo‘lish huquqiga ega”, degan qoida bor<sup>14</sup>. Binobarin, oila to‘g‘risida g‘amxo‘rlik insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim xususiyatlaridandir.

Sir emaski, oilaviy hayot inson uchun eng maqbul turmush tarzidir. Buni qadimgi va hozirgi ba’zi holatlar tasdiqlaydi. Qadim sharqda yolg‘iz kishini darvesh, g‘arib, bechorahol odam hisoblashgan. Buni qarangki, italiyalik mutaxassislarining hisob-

<sup>13</sup> I.Karimov ”Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”. Toshkent. 2008.

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

kitobicha, har besh nafar yevropalikdan bittasi uyqusizlikdan azob chekar ekan. Sababi – yolg‘izlik!

Mana shularni insoniy tuyg‘u bilan mushohada qilsak, baxt degan tushunchaning zamini - oiladir. Donolardan biri aytganidek, o‘z uyida baxtli bo‘lgan odamgina baxtlidir.

Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutgan oilaning ikki sarkori - ota bilan onaning ma’naviy - ruhiy odobi, o‘zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko‘rganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tarbiya va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo‘lib o‘sishida aks ettiruvchi ko‘zgudek o‘rin tutadi. Bunda odamlarning: “Siz kimning farzandisiz?” deb so‘rashlarida, u inson qanday tarbiya ko‘rganligini bilish maqsadi yotadi.

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, “Bolani yoshdan, niholni boshdan asra”, “Erkalasa onasi, taltayadi bolasi”, “Bola aziz - odobi undan aziz” kabi naqlar borki, ularning mag‘izini chaqadigan bo‘lsak: farzandlarning qay tariqa tarbiya ko‘rib, o‘sib, voyaga yetishi, fe’l-atvorining qanday bo‘lib shakllanishi, birinchi galda ota-onaning farzandlarini qanday usul bilan tarbiyalashiga, o‘zlarini qanday tutishiga, ibrat ko‘rsatishiga ijobjiy yo salbiy ta’sir etishiga bevosita bog‘liqdir, degan ma’no-maqsad kelib chiqadi.

Ota-onal bolaga yoshligidan hayotga yashash nima ekanini, mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo‘lmasligini, biror kasb-hunar egasi bo‘lmasa, hayotda ko‘p qiyinchiliklar ko‘rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo‘lini bilmay qoqlidi, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi, bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo‘l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota-onal bolani kichiklidanoq axloq-odobga o‘rgatishi, ilm-hunarli qilishi, dastyorchilikda ko‘zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir. Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o‘ziga xos va mos bir qator qonun-qoidalari borki, unga qat’iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola - bir olam, ular birining o‘ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati, va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas’uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro‘-e’tibori muhimdir. Ota-onal qat’iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko‘rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishi, bolaning yoshi, o‘sish va rivojdanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo‘lishi mumkindirki, bu yo‘l-yo‘riqlar, qonun-qoidalalar oilada tabiiy ravishda, muntazam qo‘llanma, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko‘nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o‘ziga xos

ko‘pgina usul va vositalari borki, ota-onalik kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o‘z o‘rnida me’yorida, maqsadga, muvofiq foydalanishi g‘oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o‘rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o‘rni kelganda nasihat qilish, qat’iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o‘zgartirish, ishontirish, jamoatchilikning ta’siri, rag‘batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-onalik bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga e’tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o‘zgartirib, unga amal qilsa, ayni mudda bo‘ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g‘oyat nozik va murakkab masala bo‘lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Oilada bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyatagi birlikdir. Bunda ota-onalik, oiladagi katta-yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag‘batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning boshqa vositalarini qo‘llashda hammada yakdillik bo‘lishi lozim. Odatda, ko‘pincha bolaning onasi yoki buvini ruxsat bergen narsani otasi taqiqlab qo‘yadi yoki otasi bergen jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qiliq‘ini buvisi maqtasa, shu qiliq‘i uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba-teskarilik, avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va ko‘ngli bo‘sh buvisi o‘rtasida yo‘l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beparvolik va kelishmovchilikni sezgan bola mug‘ambirlik, aldamchilik, tilyog‘lamalik, xushomadgo‘ylikka o‘rganadi.

Bolani aql bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat-e’tibor berganda, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarni bilganda, bu harakat ota-onaga ruhan va jismonana barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. Bunday farzad o‘z navbatida ota-onasini mehr bilan sevadi, ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. Bu ajablanali hol emas. Chunki biz bolalarni qay tarzda yaxshi ko‘rsak, ularning ruhiyati, ichki dunyosi, atrof-muhitga munosabati ham shu tarzda tarkib topa boradi.

Ota-onalik hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo‘lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bu omil oilada aka-ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo‘lishiga olib keladi, bola oldida ota-onaning obro‘sni, hurmatini oshiradi, o‘z tengqurlari va boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo‘lishiga, ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rgatadi.

Bola tarbiyasi g‘oyat nozik, bu narsa vaqtini qo‘ldan boy bermay, doimo, muntazam shug‘ullanishni talab etadi.

Ota-onalar bolalar uchun eng mo‘tabar, aziz-u mukarram kishilardirlar, shu bois bolalar ota-onalariga o‘xshash uchun doimo havas bilan taqlid qilib yashaydilar. Shu tufayli ota-onalar hamma vaqt, har jihatdan bolalarga ibrat bo‘lishlari shart. Oilada bolalar bilan ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, ularning bir-birlarini hurmatlashlari

va bir-birlariga ishonishlariga asosiga quriladi. Odatda, bolalar o‘zlarining hamma ishlariga ota-onalarini o‘zlariga eng yaqin maslahatchilar deb biladilar. Qiyinchiliklarga duch kelganlarida ham, eng og‘ir muammoni hal etishda ham eng birinchi yordamchi ulardir. Bola uchun ehaqiqiy do‘sit ham, shodliklari va tashvishlarini ham baham ko‘rvuchi aziz inson ota-onadir.

Ota-onalar bolaning o‘qishi bilan, odob-axloqi bilan qiziqishlari, maktab va o‘qituvchining o‘quvchiga talablarini, maslahat va topshiriqlarini jiddiy kuzatib borsalar, ayni muddao bo‘ladi. Bu esa bolaning yaxshi o‘qishi va intizomli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ya’ni bolaning dars tayyorlashi va yurish-turishi o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilsa, u vaqtida bola dars tayyorlamay, kunni bekor o‘tkazib, kech qoladi. Shuning uchun bolaning o‘z vaqtida dars tayyorlashini nazorat qilish ota-ona, qolaversa har bir oila a’zosining burchidir.

Bolalarning qanaqa tarbiya olishlari u tarbiyalanayotgan muhitga bog‘liq. Shunday ekan, yoshlik-beboshlik bo‘lishi ham, yoshlik-nodonlikning boshlanishi bo‘lishi ham bolalarga berilayotgan tarbiyaga va bolalarning tarbiya topishiga bog‘liq. Yangi inson - ona O‘zbekistonning chinakam sohibi, chinakam ishbilarmoni, chinakam fuqarosi, bir so‘z bilan aytganda, komil inson bo‘lishi kerak.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*
2. *I.Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”.* Toshkent. 2008.
3. *Mavlonova, K.Xoliqberdiyev ., O.To‘rayeva. Pedagogika.* T.: O‘qituvchi, 2006.
4. *A.Munavvarov . Pedagogika.* T.: O‘qituvchi, 1996.
5. *N.Saydahmedov , S. Abdurahimov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.* Toshkent, 2010
6. *Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi.* T. 2006.
7. *Oila psixologiyasi.* /Shoumarov G. B. tahriri ostida). T., 2000.

**NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XITOY TILINI  
O'QITISHDA TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI  
SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Ro'zumova Gulbahor Matyakubbayevna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

[1904chunhua@mail.ru](mailto:1904chunhua@mail.ru)

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada xitoy tiliga o'qitishda nofilologik Oliy ta'lismuassasalari talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishdagi ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan bo'lib, aynan xitoy tilini o'r ganuvchi talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda as qotadigan pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarining xususiyatlari, ishlatilishi, o'quvchining qaysi ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallanganligi tahlil qilingan. Xitoy tilini o'rgatishda nofilologik Oliy ta'lismuassasalari talabalarida kommunikativ kompotensiyanı shakllantirish yo'llarini ochib berish hamda taqqoslashdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** Xitoy tili, nofilologik ta'lismo'nalishi, kommunikativ kompetentsiya, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari.

**ANNOTATION**

*The article analyzes the priorities in the formation of communicative competence of students of non-philological higher educational institutions in teaching the Chinese language, and its features, uses, what skills of pedagogical technologies and information technologies are intended for the development of communicative competence of students studying the Chinese language. In teaching the Chinese language, the nofilology consists in revealing and comparing ways to form communicative competence in students of higher education institutions.*

**Keywords:** Chinese language, direction of non-philological education, communicative competence, pedagogical Technologies, Information Technology.

Butun dunyoda, Evropa Ittifoqida, Rossiyada va mamlakatimizda ta'limga isloq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga qadar doimiy ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda, ob'ektiv asoslangan loyiha milliy tizimni rivojlantirish va takomillashtirish hech qanday to'siq yo'q. Shu bois bunday keng ko'lamlari va muvaffaqiyatli rivojlanish va islohot tajribasini o'rganish milliy ta'limga tizimi eng

batafsil tahlil, tadqiqot va umumlashtirishga loyiqdir. Respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy – tadqiqot ishlarida ta’lim tizimida kommunikativ yondashuvning ahamiyati haqida g‘oyalarni nazariy va uslubiy asoslari o‘z aksini topgan. Xususan, ushbu masala bilan S.S.G‘ulomov, A.A.Abduqodirov (“Iste’dod” jamg‘armasi), A.A.Abduqodirov (O‘zMU), M.Oripov, R.England, S.Novas, W.Souder va boshqa bir qator olimlar shug‘ullanganlar. Xitoy ta’limining kommunikativ kompotensiyasini ta’lim muassasalarida qo‘llash borasidagi ilmiy tatqiqotlar T.F.Bardina, V.D.Orexova, R.Hamdamov, S.I.Rahmonqulova, N.Hammond, A.Jones va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Kommunikativ topshriqlar orqali talabalarning faoliyatini tashkil qilish va boshqarish ananaviy o‘qitish metodidan faqli ravishda o‘quv materiallarining talaffuzini, yangi leksikasini, grammatik materialini, eshitib va o‘qib tushunilgan matnlarni, fikrini yozma bayon qilish usullarini muloqot jarayonida kompleks o‘zlashtirishni koz’da tutadi ya’ni o‘quvchi kommmunikativ topshriqni bajarishni mashq qilayotgan jarayondayoq undagi leksik birliklarning talaffuzini, anglatgan ma’nosini, grammatik-sintaktik tuzilishini, jumla tuzilishidagi o‘ziga xosliklarni egallab oladi. Topshiriq nutq darajasida o‘zlashtirilgandan keyingina uning grafikifodalanishi tushunishga, o‘rganilgan axbarot haqida fikrini yozma bayon qilishga va nihoyat undagi fonetik-grammatik qoidalarni o‘rganishga kirishadi.

Nofilologik talabalarda kommunikativ kompetesiyanı, ya’ni suhbatga kirisha olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, nutqiy faoliyat usullarini o‘rgatuvchi kommunikativ topshriqlar orqali tashkil qilinadi. Bunday topshriqlar o‘qituvchi tomonidan tayyorlanadi. Muloqot jarayonida kommunikativ topshriqdagi fonetik, grammatik belgilarni idrok qilish taqlidiy o‘zlashtirish yoki yod olish orqali amalga oshiriladi. Taqlidiy o‘zlashtirish eshitgan jumla mazmunini audio-vizual vositalar yordamida idrok qilish orqali tashkil qilinadi. Yod olish esa kommunikativ topshiriqini bajargandan keyin o‘zlashtirilgan og‘zaki nutq materiali asosida uyushtiriladi. An’anaviy o‘qitishda so‘zlar ifodalagan ma’noni tushunmasdan yodlash xotirada uzoq saqlanmaslik bilan xarakterlanadi. Eshitib tushinilgan nutq materiali ko‘p martalik takror asosida mustahkamlangach, bu talabaga o‘z fikrini mazmunli ifodalash usullarini, ma’lum bir nutq vaziyatlarida suhbatdoshiga nimani gapirishni, qanday gapirish usullarini egallahga yordam beradi.

Xitoy tillini o‘rganishda talaffuzning ahamiyati, o‘rni dastur talabidir. Nutq faoliyatining til materiallardan biri fonetikadir. Xitoy tilida talaffuzni o‘rgatish nutq faoliyatini o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Unutq faoliyatini asosini tashkil etadi, chunki tovushdan tuzilgan til kishilik jamiyatining birdan-bir bo‘lagidir. Talaffuz yoki

fonetik material nutq faoliyatining materiali bo‘lib xizmat qiladi. Talaffuz mazmuni bo‘yich o‘quvchilar<sup>15</sup>:

- 1) Xitoy tili unli, undosh tovushlarning va ularni talaffuz qilishni;
- 2) unlilarni uzun (cho‘ziq) qisqa talaffuz qilishni;
- 3) Xtoy tovushlarni o‘zbek tovulari bilan taqqoslashni;
- 4) Xitoy bo‘g‘in tizimini tuzilishini;
- 5) So‘zlarda urg‘u, ohangini;
- 6) Gaplarni ma’nodor guruxlarga ajratish;
- 7) Unlilarning urg‘u tushmaganda kuchsizlanishi;(reduksiya)ni o‘rganadilar.

Talaffuzni o‘rgatish asosan nutq faoliyati turlarini shakllantirishga, o‘stirishga, rivojlantirishga qaratilishi, bo‘ysundirilishi kerak. Sharq tillari, xususan xitoy tili tovushlari o‘zbek tilidagi tovushlardan kuchli farq qilib talaffuz qilinadi. Bu esa talabalarda malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishni taqazo etadi.

Alovida so‘zlarni emas, iboralarni yodlashga harakat qilish tavsiya etiladi. Har bir yodlanayotgan yangi iboralar ishtirokida kamida 10 ta gap tuziladi va ularni qayta-qayta o‘qish orqali yodlanayotgan iboraning har birini eslab qolishga harakat qilish talab qilinadi. Bularga quyidagilarni keltirish mimkin:

1. 你必须工作吗？
2. 我工作很忙？
3. 他没有工作。
4. 你做作业了没有？
5. 我要工作挣钱。

Ushbu misollarda belgilangan so‘zga gap tuzilgan. Ahamiyatlisi barcha gaplarda ushbu so‘z turli o‘rinlarga qo‘llanilgan va deyarli turlicha ma’moga ega. Bunda talaba so‘zni turli xil gapda qo‘llanilishi o‘rganadi. Muloqot qobiliyati oshishiga katta yordan beradi. Bilmay turgan so‘zingizni so‘rab olib, suhbatni davom ettirib ketishingiz butunlay jim bo‘lib qolishga nisbatan ancha yaxshiroq yechim hisoblanadi. Xitoy tilida gapirishni o‘rganish jarayonida talaba o‘zini erkin tuting va hayajonlanishsiz, butun e’tiborni gapirishga qaratishi lozim. Gapirish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘yish tabiiy ekanligini tushunish kerak. Hech kim xatolardan holi emas. Tabiiyki, talaba ham gapirishni o‘rganishda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Muhimi, bu xatolarda to‘xtab qolmasdan, gapirishning yuqoriyoq, keyingi bosqichiga ko‘tarilish va o‘z ustida tinimsiz ishslash, ekanligini doim yodda tutish darkor.

Og‘zaki va yozma munozaralarni o‘tkazish uchun tushunchalarni, fikrlarni, histuyg‘ularni, dalillarni va fikrlarni ifodalash va izohlash til orqali amalga oshiriladi. Bunday shovqinlar yozma yoki og‘zaki tilning grammatik, pragmatik va

<sup>15</sup> Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi.-T. 1996

sosiolingvistik xususiyatlarini belgilovchi turli xil ijtimoiy va madaniy kontekstlarda yuz berishi mumkin.

Lingvistik kompetentsiyalar aloqa kompetentsiyalari bilan juda bog‘liq va ular hatto teng deb qaraladi. Ilmiy ishlab chiqarish va aloqa sohasida lingvistik kompetentsiyalar tilning, ayniqsa yozma tilning adekvat ishlatilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilar bilan tavsiflanadi<sup>16</sup>:

- (1) yozma tildan etarli darajada foydalanish va tarkibni tuzish;
- (2) ilmiy hujjatlarni o‘quvchining ona tilida o‘qish va yozish;

(3) hujjatlarni o‘qish, yozish va boshqa ona tillariga, xususan, eng ko‘p ishlatiladigan (masalan, xitoy tiliga) tarjima boshqa tilni to‘liq bilishini anglatmasligi mumkin, ammo bu uning etarli darajada bo‘lishi uchun etarli bo‘lishi kerak.

Lingvistik kompetentsiyalar axborot kompetentsiyalari bilan ham bogl’iqdir, chunki ilmiy hujjatlarni to‘g‘ri yozilishi va tadqiqot natijalarini tavsiflash turli xil ilmiy matnlarni tushunishda va ishlab chiqarishda qo‘llab-quvvatlanadigan axborot izlash, tanlash, tuzish va qayta ishslash vakolatlarini namoyish qilishni talab qiladi. tomoshabinlar. Lingvistik kompetentsiyalar turli jamoalar yoki tinglovchilar (ilmiy yoki keng omma) uchun mo‘ljallangan, muvaffaqiyatli ilmiy aloqani amalga oshirish uchun bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro qo‘llab-quvvatlanadigan qobiliyatlarini, bilimlarni va munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Agar ular lingvistik nuqtai nazardan to‘g‘ri materiallangan bo‘lsa, aloqa ma’lumotlarini etkazish va hatto undan foydalanish.

Ta’limning har qanday shaklida, lingvistik kompetentsiyalar barcha odamlar uchun keng, ko‘ndalang, ko‘p qirrali va assosiy bo‘lishi kerak, shuningdek har bir ilmiy madaniyat va intizomga xosdir<sup>17</sup>. Ushbu kompetentsiyalar o‘qish kabi boshqa shaxsiy qobiliyatlar bilan juda bog‘liq, chunki kim o‘qimasa, to‘g‘ri yoza olmaydi. Ushbu vakolatlar mutaxassislar (ilmiy hamjamiyatlar) yoki keng jamoatchilikning (barcha ijtimoiy sohalarga ilmiy tarqalishi) turli guruhlardagi odamlarning jamoaviy o‘zaro ta’siri va bilimlarini ishlab chiqarish uchun zarurdir.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI***

1. Jalolov J. Chet tilini o‘qitish metodikasi.- Toshkent. “O‘qituvchi nashriyoti” 1996 y.
2. Lingvistik kompetentsiyalar [Reyzabal, 2012].
3. Ломб К. Как я изучаю языки. Заметки полиглота. М.: ООО «Манн, Иванов и Фербер («МИФ»)», 2017.

<sup>16</sup> Lingvistik kompetentsiyalar [Reyzabal, 2012].

<sup>17</sup> Lingvistik kompetentsiyalar [Reyzabal, 2012].

## SUBSTANTIATION OF THE DIRECTION OF RESEARCH ON IMPROVEMENT OF THE CLEANING SECTION FROM LARGE LITTER OF THE UHC CLEANING UNIT

Professor **T.M. Kuliev**,  
candidate of technical sciences **R.R. Nazirov, U.Sh. Mukhammadiev**  
JS "Paxtasanoat ilmiy markazi", Tashkent, Uzbekistan  
[umarali19971028@gmail.com](mailto:umarali19971028@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*The article presents an analysis of the technological process of the UHC cotton cleaning unit, some of its design flaws are identified, and directions for further research on improving the large litter cleaning section are selected.*

**Key words:** *cleaning, saw blade, brush, guide brush drum, reversible drive, cleaning section, chopping drum, weed impurities.*

### **I.INTRODUCTION**

Large-scale measures are being carried out in our country to modernize machinery and technologies for cotton processing industries, especially for cluster systems. In the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, the tasks are noted, in particular, "... strengthening the stability of macroeconomics, increasing the competitiveness of the national economy, ... reducing resource and energy costs in the economy, widespread introduction of energy-saving technologies into production" [1]. The fulfillment of these tasks, in particular, the development of efficient, resource-saving technologies and designs of raw cotton cleaners with a rational arrangement of working drums, reduction of cleaning multiplicity, optimal choice of parameters and cleaning modes, allowing obtaining high quality cotton fiber, is considered one of the important tasks.


### **II. SIGNIFICANCE OF THE SYSTEM**

One of the main directions in this area is to conduct research on improving the technology of processing raw cotton with a reduction in technological transitions, ensuring a combination of high process efficiency with a reduction in pore formation in the fiber, as well as reducing energy consumption, metal consumption and occupied production area.

In accordance with the plan of research, development and design work at TSNIIHprom, a combined cotton gin unit for medium-fiber and fine-fiber raw cotton with a capacity of 7 tons/H for the cleaning workshops of the cotton mill was developed, which received the UHC brand. These cleaners have been mass-produced since 1987 (Fig. 1).

In order to reduce the loss of raw cotton flakes together with weed impurities, each saw cleaner of the cotton cleaning unit is equipped with an individual regeneration section consisting of a saw drum and a removable brush drum.

Between the saw blade cleaners of the unit, small litter cleaners with four pegboard drums are installed for alternating cleaning of raw cotton from large and small litter. At the same time, the initial and final sections of the unit have two kolkov drums [2].



1-feeding rollers, 2-spike drums, 3, 4-main and regenerative saw drums, 5, 6-grate grates, 7-removing brush drum, 8-sorovyvodyj screw, 9, 10- guide brush drums.

Figure 1. Diagram of a part of a cotton gin unit

To regulate the degree of cleaning of raw cotton, depending on the initial clogging, breeding and industrial grade, the saw cleaners of this unit are equipped with feeders with two guide brush drums (9 and 10 pos.) having a common drive for reverse rotation, due to which it is possible to turn saw cleaners on or off (Fig. 1) [3, 4].


These drums are not directly involved in the cleaning of raw cotton, but only changes the direction of its supply - either they are fed to a saw drum, or they are sent to a fine litter cleaner. Therefore, eliminating them without compromising the cleaning process would reduce the mechanical effects on raw cotton and, therefore, reduce pore formation in the fiber, as well as reduce the energy and metal consumption, and the dimensions of the cleaner.

### III. EXPERIMENTAL RESULTS

It is known that at all cotton gins for the purification of raw cotton, two rows of the UHC cleaning unit are installed, and in each cleaning unit there are 4 sections for cleaning cotton from large litter.

Consequently, in the UHC cleaner alone, the number of guiding brush drums will be 8 pcs., and since two such cleaners must be operated at the cotton mill, the number of brush drums used (excluding removing ones) will be exactly 16 pcs.

The scheme of the large litter cleaning section with the removal of the brush drum guides has been developed, the scheme of which is shown in Fig. 2



1, 10-saw drum, 2-main saw drum, 3-cleaning brush, 4-grate, 5-regeneration saw drum, 6-shetochny removing drum, 7-fence, 8-guide, 9-partition, 11-grid, 12-auger, 13-frame.

Figure 2. Diagram of the mutual arrangement of the saw section and the pegboard drums of the fine litter cleaners

As can be seen from Fig. 2, the elimination of these drums in the cleaner would reduce the mechanical impact on raw cotton, which means to reduce pore formation in the produced fiber, and can also provide:

1. Free access (from above) to the main saw drum for maintenance and repair;
2. Reducing the height of the unit by about 400 mm;
3. Reduction of metal consumption by 20%;
4. Reduction of energy intensity by 10%;
5. Reducing the consumption of brushes and labor resources for their replacement.

The creation of a cleaner with the exception of such drums without compromising the efficiency of cleaning raw cotton with a wide adjustment of the degree of its cleaning, as well as in the existing UHC cleaner, is quite possible if you use a saw drum with a reversible drive (pos.2 in Fig. 2) and find such a mutual arrangement of the working bodies of the previous and next cleaners that would ensure reliable

transmission of the raw cotton being cleaned both in the operating mode of the saw sections and in the bypass mode.

Based on the above, the direction of further research was chosen for the development and manufacture of a section of a cotton cleaning unit with a reduction in the number of working bodies, determining the relative position of the working bodies of the previous and next cleaners, as well as other design parameters.

## REFERENCES

[1] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PU-4947 dated February 7, 2017 "On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan".

[2] T.M.Kuliyev, E.T.Maksudov " Handbook of Cotton Preprocessing ". Toshkent-2019 yil. 140-178 bet.

[3] T.M.Kuliyev "Improvement of effective structures and scientific bases for calculating the parameters of raw cotton and fiber cleaners" Dissertation for the degree of Doctor of Technical Sciences. Toshkent – 2020 215 p .

[4] Khaitov D.R. Improving the efficiency of cleaning raw cotton by improving the working bodies of large litter cleaners: Dissertation of the Candidate of Technical Sciences. - Tashkent: TITLP 1990. - 212 p.

## O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR TALQINI

**B.N. Sulaymonov** (PhD), Qarshi davlat universiteti  
**A.M. Akbarov**, magistrant, Qarshi davlat universiteti

### ANNOTATION

*The explanatory dictionaries of the Uzbek language are given information about the interpretation of multi-meaning words, their meanings, and their differences.*

**Keywords:** many meanings, semema, illustration, dictionary, bilingual dictionary, lexeme, figurative meaning.

### АННОТАЦИЯ

*В толковых словарях узбекского языка приводятся сведения о толковании многозначных слов и их различиях в значении.*

**Ключевые слова:** множественное число, семема, иллюстрация, словарь, лексема, переносное значение.

### ANNOTATSIYA

*O'zbek tilining izohli lug'atlarida ko'p ma'noli so'zlar talqini, ularning ma'nolari, bir- biridan farqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan*

**Kalit so'zlar:** ko'p ma'no, semema, illyustratsiya, lug'at, ikki tilli lug'at, leksema, ko'chma ma'no.

Tilning boyligi uning leksik sathini tashkil etgan so'zlarning miqdori bilangina emas, ularning ma'no nozikliklari, semantik imkoniyati, shu so'zlar yordamida vujudga kelgan badiiy tasviriy vositalar – frazeologik birikma, parafraza, idioma va boshqa birliklar bilan ham o'lchanadi. Shu bois muayyan xorijiy til bo'yicha nutqiy kompetentlikka ega bo'lish uchun shu tilning leksik birliklari yoki grammatik qonuniyatlarini o'zlashtirishning o'zигина yetarli emas, buning uchun tilning semantik imkoniyatlari, so'zlarning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari haqida ham tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Nutqiy faoliyatda leksik birlilik – so'z boshqa til birliklariga qaraganda muhim rol o'ynaydi.

Nafaqat ikki tilli lug'at, balki bir tilli izohli lug'atlarda ham, odatda, hosila ma'noning lisoniyashgan ko'rinishlari talqin qilinadi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'atida" urmoq fe'lining 19ta, tortmoq fe'lining 21ta, tutmoq fe'lining 18ta, tushmoq fe'lining 24ta ma'nosи izohlanadi. Hosila ma'nolar umumlashib yoki qo'llanish doirasi

kengayishi, ixtisoslashishi natijasida ko‘chma ma’nolar alohida-alohida sememalar sifatida rivojlanadi. Lug‘atda ushbu ma’nolarning barchasi mustaqil semema sifatida kira olmaydi. Bu sememalarning ko‘pchiligi muayyan sememaning nutqiy ko‘rinishlari (variantlaridir). Ammo ayni vaqtida ayni sememalarning ichida alohida, mustaqil hisoblanish mumkin bo‘lgan sememalar ham mavjud. Demak, nutqiy hosilalardan – so‘zlardan leksemalar rivojlangani kabi nutqiy ko‘chma ma’nolarda sememalar ham rivojlanishi mumkin [1:128]. Masalan:

### **TUTMOQ**

*1 Qo‘l bilan ushiamoq, ushlab turmoq; tutinmoq. Bir qo‘lda kitob, bir qo‘lda gulasta tutib turmoq.*

*2 Ovlab, quvib, izidan borib va sh. k. yo‘llar bilan ushiamoq, ushlab olmoq, qo‘lga tushirmoq. Baliq tutmoq.*

*3 Biror narsani iltifotan kimsaga taklif qilmoq, uzatmoq; foydalanish uchun to‘g‘rilamoq, bermoq. Mehmonlarga sochiq tutmoq.*

*4 Qo‘lidagi (o‘zidagi) biror narsani boshqa narsaga to‘g‘rilamoq, ro‘baro‘ holga olmoq. Xatni chiroq yorug‘iga tutib o‘qimoq.*

*5 Ko‘chma yo‘q bo‘lish, ketish va sh.k. dan saqlab turmoq. Hokimiyatni tutib turmoq.*

*6 Biror holat, vaziyatda saqlamoq, asramoq. Saidbobo negadir tili uchida turgan gapni yutib, cup tutdi.*

*7 Ko‘chma biror narsadan o‘zini tiymoq yoki biror narsani, voqeani yuz berishdan to‘xtatmoq, bosmoq, ushiamoq. U ko‘zlariga to‘lgan tomchilarni bazo‘r tutib javob berdi. O‘zini baland tutmoq. Ertalab yana qonli urushlar boshlandi. Ammo xalq endi o‘zini ancha tutib qolgan edi.*

*8 Ko‘chma idora qilmoq, boshqarmoq. Ro‘zg‘or tutmoq.*

*9 Ko‘chma o‘z qo‘li ostidagi, izmidagi, qaramog‘idagi kimsalarga qandaydir munosabatda, muomalada bo‘lmoq. Bolani bo‘sh tutish yaramaydi.*

*10 Biror tarzda ishlatmoq, foydalanmoq, qo‘llamoq. Idish-tovoqni, ko‘rpa-yostiqni toza tutmoq.*

*11 Parvarish qilmoq, boqmoq (pilla qurtini). Men, beshovlaring qurt tutinglar, beshta odam bo‘shasin, demoqchi emasman.*

*12 Ishlatish, foydalanish uchun o‘z ixtiyorida, qaramog‘ida olib turmoq, saqlamoq. Qani iloji bo‘lsa, bitta odam tutmasdan, butun ishni o‘zim eplay olsam.*

*13 Pardalash, to‘sish, qoplash va sh.k. maqsadlar uchun o‘rnatmoq, bog‘lab, ilib yoki osib qo‘ymoq. Pashshaxona tutmoq.*

*14 Ko‘payib, tarqalib, yoyilib va sh. k. yo‘llar bilan ma’lum joyni egallamoq, qoplab olmoq, bosmoq. Samovarning bug‘i uyni tutib ketdi.*

*15 Qo‘zimoq, qo‘zib qolmoq, huruj qilmoq (odatda, inson tabiatida bo‘ladigan turli xislatlar haqida). Otaning tantiligi tutib ketdi. Uning jazavasi tutdi.*

*16 Amal olmoq, o‘samoq, rivojlanmoq (yangi ko‘chat yoki payvand haqida). Onda-sonda ko‘chatlar o‘tqazilgan ekan-u, ko‘pi tutmapti.*

*17 Yordamchi fe'l sifatida bog‘lovchi vazifasida qo‘llanadi; hisoblamoq. Parvozga shaylanib nochor nam urgan Yarador burgutga mymmangiz oson.*

*18 Ba’zi so‘zlar bilan qo‘llanganda, shu narsa evaziga biror narsaga duchor bo‘lmoq, uning haqidan qutula olmaslik ma’nosini bildiradi. Mening begunoh qonim tutadi hammangni! [2:606]*

Ko‘rinib turibdiki, sanalgan 18ta ma’nodan faqat 5-, 7-, 8-, 9-ma’nolar ko‘chma pometasi bilan berilgan. Ko‘p ma’noli so‘z matnda faqat bitta semasi bilan nutqiy voqelanadi. Lug‘atda esa har bir ma’noni izohlash uchun alohida illyustratsiya – qurshov keltiriladi. Shuningdek, muayyan leksema turli usullarda ko‘chma ma’no hosil qilishi mumkin. Lug‘atlarda hosila ma’nolar talqin etilganda ko‘chma pometasi bilan beriladi, qaysi yo‘l bilan hosil bo‘lishiga diqqat qartilmaydi. Masalan,

**DASTURXON 1** – O‘rtaga yozib, ustiga ovqat qo‘yiladigan maxsus mato, ro‘zg‘or buyumi [3:680]. Ushbu ma’no dasturxon leksemasingning atash semasi hisoblanib, quyidagi matnda o‘z ma’nosini bilan voqelangan: Qaymoqqa qorilgan nonlar bilan to‘la dasturxon yozib, achchiq choyni quya boshladi. Oybek, Tanlangan asarlar;

Lug‘atda leksemaning 2 Oziq-ovqat, noz-ne’mat. Dasturxonga qarang. To‘kin dasturxon; 3 Turmush tarzi, ijtimoiy holati. Dasturxonga boqqan do‘st emas. 4 Ovqatlanish uchun kirishmoq. Bu orada Hamza ham hujrasidan chiqib, dasturxonga o‘tirdi. K.Yashin, Hamza. 5 Ovqatlanishga da’vat. Qani, dasturxonga qarang. K.Yashin, Hamza. 6 Ziyofat, gap-gashtak. Jamoamizning barchasi ham hozir bo‘lib, dasturxon yer erdik. A.Qodiriy, G‘irvonlik Mallavoy. 7 Ichidagi dardini, muammolarini hammaga oshkor qilmoq, yoymoq. Biror gapni har qayerlarda har kimgarga gapirib, ovoza qilib yurmoq. Siz kimga yaxshi ko‘rinmoqchi edingiz, yolg‘on gapni dasturxon qilib yuribsiz? P.Qodirov, Qadrim. Choyni ichib, piyolaning chetini kafti bilan artarkan, yuragidagi dardini dasturxon qilishga kirishdi. “Yoshlik”. 8 Yaxshilikni bilmaslik, nonko‘rlik. Nonini yeb, dasturxoniga oyoq artdi. 9 Mamlakat, jamiyat boyligi, rizq-ro‘zi. Sendaqa paytimizda biz, nainki mashoq, og‘zimizdagи nonimizni ham el dasturxoniga qo‘yganmiz. O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa – kabi turli ifoda yoki vazifa semalarining voqelanishi ham illyustrativ asoslar bilan tushuntiriladi.

Ushbu ma’nolardan 2-(Dasturxonga qarang), 3-(Dasturxonga boqqan do‘st emas), 4-(...hujrasidan chiqib, dasturxonga o‘tirdi), 5-(Qani, dasturxonga qarang), 6-(Jamoamizning barchasi ham hozir bo‘lib, dasturxon yer erdik) ma’nolar metonimiya, 7-(...yolg‘on gapni dasturxon qilib yuribsiz), 8-(Nonini yeb, dasturxoniga oyoq artdi),

9-(...og‘zimizdagi nonimizni ham el dasturxoniga qo‘yanmiz) ma’nolar metafora asosida hosil bo‘lgan.

Demak, ko‘p semali leksema o‘zining har bir semasi bilan turlicha leksemalar bilan o‘xshashlik va qo‘sningchilik munosabatlariga kirishadi. Uning umumiste’moldagi va ixtisoslashgan ma’nolari – jamiyat a’zolarining barchasi uchun tushunarli bo‘lgan ma’nolari lug‘atlarda izohlanadi. Ikki tilli o‘quv lug‘atlarida ko‘p ma’noli so‘zlarni leksikografik semantizatsiyalashda ularning, asosan, hozirgi o‘zbek yoki ingliz adabiy tilida keng qo‘llanadigan ma’nolari beriladi. Izoh tipidagi lug‘atlardan farqlanib, mazkur lug‘atlarda quyidagi lisoniyashmagan nutqiy ko‘chma ma’nolarga izoh berish talab etilmaydi:

- 1) ijodkorlar tomonidan poetik maqsadda qo‘llangan, adabiy tilda uchramaydigan nutqiy ma’nolar;
- 2) ayrim ilmiy asarlarda vaziyat taqozosiga ko‘ra shartli ravishda ishlatilgan ko‘chma ma’nolar;
- 3) qo‘llanishi chegaralangan terminologik ma’nolar;
- 4) tor doirada ishlatiladigan dialektal ma’nolar;
- 5) tarixiy yoki ijtimoiy, siyosiy eskirgan, arxaik ma’nolar;
- 6) faqat so‘zlashuv nutqida uchraydigan yoki ijtimoiy chegaralangan jargon, sleng, vulgarizm, varvarizm sifatida qo‘llanadigan ma’nolar.

Har qanday so‘z dastlab bir ma’noli bo‘ladi. Leksik ma’no tarixiy taraqqiyotda bo‘lib, davr nuqtai nazaridan o‘zgarib – torayib, kengayib boradi. Zamoniaviy leksikografiyaning eng muhim muammolardan biri – turli tillarga xos leksik-semantik imkoniyatlarni sinxron aspektida qiyosiy tadqiq etishdir. Bu ko‘p ma’noli so‘zlar leksikografik talqiniga diaxron emas, sinxron aspektida yondashishni taqozo etadi. Hatto XI asrning buyuk leksikografi M.Koshg‘ariy ham lug‘at so‘zligini tartiblashda avvalo “turmushda qo‘llanadigan va qo‘llanilmaydigan” so‘zlarni tanlab olgan. Lug‘at tuzilgan davrda har ikki xalq tilida iste’molda bo‘lgan so‘zlarnigina so‘zlikka kiritgan. Iste’moldan chiqqan, eskirgan so‘zlarni qoldirganini muallif ta’kidlab o‘tgani: “Tushunilishi oson bo‘lsin uchun asarda arabcha istilo (termin)larni qo‘lladim. Kitobni tuzish oldida Xalil ibni Ahmadning “Kitobul ayn” asarida tutgan tartibini qo‘llash, iste’moldan chiqqan so‘zlarni ham bera borish fikri menda tug‘ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o‘zib borayotgan turk tilini to‘liqroq yoritish jihatidan ham yaxshi edi. Lekin men o‘quvchilarning foydalanish masalasiga asoslandim. Men iste’moldagi so‘zlarnigina berdim, iste’moldan chiqqanlarini tashladim. Ten tutgan tartib to‘g‘riroqdir” [4:250].

Polisemantik so‘zning muayyan davrda faol bo‘lgan ma’nosi davrlar o‘tishi bilan istemoldan chiqishi yoki kuchsizlanishi mumkin. Masalan, “Devonu lug‘otit turk”da: **јіғач** – daraxt. Ўзўм ќіғачи – uzum daraxti. Јағак ќіғачи – yong‘oq daraxti

[5:234]tarzida talqin qilinadi. M.Koshg‘ariy yashagan davrda yog‘ och daraxt, uzunlik o‘lchovi, o‘tin ma’nolarini anglatgan. Ba’zi birikmalarda og‘och tarzida qo‘llangan: Beshog‘och (Beshyog‘och). Ayni paytda bu so‘z ustun, xoda, novda ma’nolarida qo‘llanadi.

Alovida ta’kid berish kerakki, o‘quv lug‘ati, xoh u tarjima lug‘ati bo‘lsin, hoh izohli lug‘at, so‘z ma’nosining semantik taraqqiyotini yoritishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Bu katta lug‘atlar, akademik lug‘atlarning vazifasi. Hatto ayni paytda iste’molda bo‘lgan leksemaning ko‘chma ma’nolari eskirgan bo‘lsa ham, o‘quv lug‘atlarda ushbu ma’noga izoh berish shart emas. Masalan, samovar yaqin davrlarga qadar til iste’molchilari ongida choyxonaga aloqador narsa-buyum nomi sifatida yashagan. Choyxona va samovar assotsiativ birliklar hisoblangan va biri aytilganda ikkinchisi tushunilgan: Ertalabdan samovar odamlar bilan gavjum. Ammo bugungi kunda samovarlar o‘rnini yangi texnologiyalarga bo‘shatib berdi va samovar so‘zi ham arxaizmga aylandi. Samovar leksemasi lug‘at so‘zligidan joy olsa-da, uning metonimiya asosida hosil bo‘lgan choyxona ma’nosini o‘quv lug‘atlarda izohlash shart emas.

Ko‘p ma’noli so‘z bir paytda o‘z shakldoshiga ham ega bo‘lishi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlarni leksikografik talqin qilishda ayrim ko‘p ma’noli so‘zlarning shakldoshlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyatining ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi. Ma’lumki, ko‘p ma’nolilik, odatda, o‘z qatlam so‘zlarida kuzatiladi. Biroq muayyan tilga mansub ko‘p ma’noli o‘zlashma so‘z boshqa tilga faqat bosh ma’nosini bilan emas, ko‘chma ma’nolari bilan ham o‘zlashishi mumkin. Shu bois so‘zlarni tarjimada aks ettirish muammolari tilshunoslik, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham allaqachonlar tilshunoslik kun tartibiga olib chiqilgan [6:32]. Muayyan tilda ko‘chma ma’nolariga ega bo‘lgan so‘z ikkinchi tilga o‘zlashganda faqat bosh ma’nosini bilan emas, odatda, ko‘chma ma’nolari bilan ham o‘zlashadi. Masalan, fors-tojikcha “dast” – qo‘l so‘zidan metonimiya asosida hosil bo‘lgan dasta so‘zining hozirgi o‘zbek tilida barchasi fors tilidan o‘zlashgan to‘rtta shakldoshi mavjud:

**DASTA I** [f. دسته – sop; tutqich] tutqich.

**DASTA II** [f. دسته] Keli (o‘g‘ir)da narsa oqdashda (tuyishda) ishlatiladigan tutqichli asbob, kelisop.

**DASTA III** [f. دسته] shv. Chillak.

**DASTA IV** [f. دسته] – guruh; to‘da; bog‘lam, to‘p.

Ushbu so‘zlardan I va IV so‘zning uchtadan beshtagacha ko‘chma ma’nolari mavjud. Sop, tutqich ma’noli dasta so‘zi “qo‘l bilan ushlanadigan qismiga ega bo‘lgan narsa-buyumning shu qismi nomi” ma’nosini ifodalaydi. Shu bilan birga u metafora yoki metonimiya asosida ko‘chgan bir necha ifoda semalariga ham ega bo‘lib, o‘zbek tiliga u atash va ifoda semalari bilan birga o‘zlashgan:

**DASTA I** [ф. سند – sop; tutqich] 1 Turli asboblarning qo‘l bilan ushlanadigan qismi; sop. Bolta dastasi. Pichoq dastasi. Pichoq dastasini qattiq qisganidan, tirnog‘i kaftiga botib ketdi. “Yoshlik”. Dastasi bo‘lmasa, qilich ham kesmaydi. “Qanotli so‘zlar”. U kichkina.. ketmonini yerga qadab, dastasiga o‘tirdi. S.Siyoyev, Yorug‘lik. 2 Tutqich, tutqa, qabza. Eshikning dastasi. [Gulnor] Bir qo‘li bilan derazaning dastasini ushladi. Oybek, Tanlangan asarlar. Bekning chayir qo‘li begona chamadonning dastasini ushlaganicha tinchidi. A.Muxtor, Tug‘ilish. Chashkaning dastasidan tutib, qora choy ichsa, juda gashtli bo‘ladi. N.Aminov, Qahqaha. 3 Musiqa asbobining tor (ip, sim) tortilgan va qo‘l surib, parda bosiladigan qismi. Dutorning dastasi. [7:680]

Shuningdek, *dasta* so‘zi *dastro ‘mol* – qo‘lro‘mol, *dastgoh* – inson qo‘li bilan boshqariladigan asbob-uskuna, *dastyor* – qo‘lidan ish keladigan bola, yordamchi, *dastak* – hassa, asos[8:83] kabi. Hatto tarkibida ma’nodoshi bo‘lgan turg‘un birikmalarda o‘zaro almashinib variantlilikni yuzaga keltirgan: dastasini o‘zidan chiqarmoq / sopini o‘zidan chiqarmoq.

Xullas, xorijiy tilni o‘rganishda ko‘p ma’noli so‘zlarning ko‘chma ma’nolari va ularning muhimlik darajasini bilish, o‘rnida qo‘llash, kontekstual ma’nolardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda ikki tilli lug‘atlarning roli muhim.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. Ne’matov H., Rasulov R. *O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b. – B.76.
2. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild.* – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 606 b. –B. 208-211.
3. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.* – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b. –B. 574
4. Mahmud Koshg‘ariy. *Devonu lug‘otit turk. Turkiy so‘zlar devoni. 3 jildlik. 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S.Mutallibov.* – Toshkent: FAN, 1960. – 250 b. – B.45-46
5. Mahmud Koshg‘ariy. *Devonu lug‘otit turk. Turkiy so‘zlar devoni. 3 jildlik. 3-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S.Mutallibov.* – Toshkent: FAN, 1960. – 234 b. –B.15
6. Abdullayeva L. *Metaforalar va ularning tarjima qilinishi haqida ba’zi mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti.* – 1965. 1-son. –B.32
7. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.* – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b. –B. 570
8. Rustamov. A. Karimov. Q. Umarov. Z. Forscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati. T. O‘qituvchi. 1975. –83b.

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Mo'minov Abbosbek Soyibjon o'g'li. (2023). SO'Z QUDRATI YOHUD ERKIN VOHIDOVNING BADIY MAHORATI. SCHOLAR, 1(1), 4–7.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548886"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548886</u></a>
2	<b>Камолов Жаҳонгир Мамасидикович, &amp; Раҳматова Малика Шерзодовна. (2023). ЭФТАЛИЙЛАР ДАВЛАТИ БОШҚАРУВ ТАРТИБОТИДА МАЪМУРИЙ МАРКАЗЛАРНИНГ РОЛИ. SCHOLAR, 1(1), 8–15.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548494"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548494</u></a>
3	<b>Мамасолиева М.Ж, Бакриддинов К.Н, &amp; Урманов Х.Н. (2023). ДРЕВНЯЯ ДНК И ИСТОРИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА. SCHOLAR, 1(1), 16–21.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548555"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548555</u></a>
4	<b>Jurayev Erali Xoliyar o'g'li. (2023). IS LEARNING PLACE NAMES INTO GROUPS THE MOST IMPORTANT TASK. SCHOLAR, 1(1), 22–28.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548612"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548612</u></a>
5	<b>Султанбаева Зульфия Бердимуратовна. (2023). МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ И ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. SCHOLAR, 1(1), 29–32. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548635"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548635</u></a></b>
6	<b>Ochilov Farkhodjon Shavkatjonovich, &amp; Reimbaev Bekhzod Mukhtarovich. (2023). PROBLEMS OF SETTLEMENTS WITH SUPPLIERS AND CONTRACTORS. SCHOLAR, 1(1), 33–41.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548650"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548650</u></a>
7	<b>Kodirova Shakhlo Salomovna. (2023). ANXIETY-DEPRESSIVE DISORDERS IN PATIENTS WITH CHRONIC HEART FAILURE. SCHOLAR, 1(1), 42–47. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7548676"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.7548676</u></a></b>

8

**Kodirova Shahnoza Salomovna.** (2023). STANDARTLASHTIRISH OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISH VOSITASI. SCHOLAR, 1(1), 48–51. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548891>

9

**Valiyev Hasan Sunnatillo o'g'li.** (2023). SURXONDARYODA ARXEEOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI. SCHOLAR, 1(1), 52–57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548898>

10

**Muminov Sidikjon Mirsobirovich, & Jo'rayeva Shaxnoza Mo'ydinovna.** (2023). TABIIY VA IJTIMOIY EKOLOGIYANING MULOQOT XULQIGA TA'SIRI. SCHOLAR, 1(1), 58–63. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548899>

11

**Ахундженов Д.Г, & Аскарходжаев Ш.И.** (2023). ВИЗУАЛЬНОЕ ОБСЛЕДОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ И РАЗРАБОТКА РЕКОМЕНДАЦИЙ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ДОЛГОВЕЧНОСТИ КОНСТРУКЦИЙ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ АНСАМБЛЯ ШОХИ-ЗИНДА. SCHOLAR, 1(1), 64–73.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7548743>

12

**Назарова М.К, Ахундженов Д.Г, & Зокиржонова К.Т.** (2023). ОЦЕНКА ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ. SCHOLAR, 1(1), 74–81. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548757>

13

**Lapasov Shaxzod Anvar o'g'li.** (2023). EKSPORTGA KO'RSATILADIGAN MOLIYAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI. SCHOLAR, 1(1), 82–87. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548903>

14

**Lapasov Shaxzod Anvar o'g'li.** (2023). O'ZBEKİSTONDA EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TİZİMİ. SCHOLAR, 1(1), 88–95. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548904>

15

**Eshkuziyeva Hilola G'ulom qizi.** (2023). HUVAYDONING "ROHATI DIL" DOSTONI TARKIBI. SCHOLAR, 1(1), 96–100. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548912>

**16**

**Azimova A.Q., & Islomov A.X. (2023). UZUM MEVASIDAN SHINNI TAYYORLASH USULLARI VA KIMYOVIY TARKIBI HAMDA TIBBIYOTDA ISHLATILISHI.** SCHOLAR, 1(1), 101–105.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7548920>

**17**

**Qurbanova Sarvinoz Gulboyevna. (2023). "ZARBULMASAL" ASARI VA XALQ OG'ZAKI IJODI.** SCHOLAR, 1(1), 106–109.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7548930>

**18**

**Д.Б.Ахунов, Ш.Жураев, Д.Ахатов, & Х.Жураев. (2023). ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛУЧЕННЫХ СИТАЛЛОВ НА ОСНОВЕ БАЗАЛЬТОВ МЕСТОРОЖДЕНИЯ КУТЧИ.** SCHOLAR, 1(1), 110–118. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548942>

**19**

**Ойбек Анварович Аманов, Абдирасул Абдиҳакимович Жўраев, & Фарход Дониёрович Мамадиёров. (2023). БАҲОРГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙ НАВЛАРИНИНГ ЎСУВ ДАВРИГА ЭКИШ МЕЪЁРИ ВА МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.** SCHOLAR, 1(1), 119–123.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7548958>

**20**

**З. Напасова. (2023). МАТН КОМПОНЕНТЛАРИНИНГ МУРАККАБ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР БИЛАН ИФОДАЛАНИШИ.** SCHOLAR, 1(1), 124–127. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548981>

**21**

**Karimova Xurshida Abdurashid qizi. (2023). XITOY VA TAYVANNING ZAMONAVIY IQTISODIY TERMINOLOGIYASI.** SCHOLAR, 1(1), 128–133. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548992>

**22**

**Usanov Sh.A. (2023). OILA TARBIYASINI TASHKIL ETISHDA OTA-ONANING ASOSIY VAZIFALARI.** SCHOLAR, 1(1), 134–138.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549002>

**23**

**Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich. (2023). OILADA BOLALARНИ TO'G'RI TARBIYALASHNING ASOSIY SHARTLARI VA MUAMMOLARI.** SCHOLAR, 1(1), 139–143.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549010>

**24**

**Ro'zumova Gulbahor Matyakubbayevna. (2023). NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XITOY TILINI O'QITISHDA TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. SCHOLAR, 1(1), 144–147. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7549018>**

**25**

**T.M. Kuliev, R.R. Nazirov, & U.Sh. Mukhammadiev. (2023). SUBSTANTIATION OF THE DIRECTION OF RESEARCH ON IMPROVEMENT OF THE CLEANING SECTION FROM LARGE LITTER OF THE UHC CLEANING UNIT. SCHOLAR, 1(1), 148–151. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7549024>**

**26**

**B.N. Sulaymonov, & A.M. Akbarov. (2023). O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR TALQINI. SCHOLAR, 1(1), 152–157. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7550743>**